Atrek daryosi sohilidagi Hoji-Govshan qishlog‘ida dunyoga kelgan ulug‘ turkman shoiri Maxtumquli badiiy so‘zni e‘zozlagan, ma‘rifatli oila farzandi edi. Otasi Davlatmamad juda qobiliyatli, ma‘rifatli inson bo‘lgan. Maxtumqulining bobosi Maxtumquli (Maxtumquliga bobosining ismini qo‘yishgan edi) ham adabiyotga qiziqishi kuchli bo‘lib, she‘r yozishga havasmand inson bo‘ladi. Shoirning bobosida she‘r yozishga havasgina bo‘lsa, otasi Davlatmamad esa haqiqiy turkman shoiri bo‘lib, Ozodiy taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Uning qariyb 6 ming misradan iborat pand-nasihat mazmunidagi “Vaz‘i ozod” (“Ozod vaz‘i”) nomli dostoni saqlanib qolgan. Bu asarlar Ozodiyning forsiy (voqean, u yaxshigina shohnamaxon bo‘lgan) va turkiy adabiyotdan, xususan, Alisher Navoiy ijodidan yetarli darajada xabardorligini ko‘rsatadi. [2, 4.] Shu sababdan, bevosita Maxtumqulining Navoiy ijodiga mehrini otasi uyg‘otgan desak, shubha qilmagan bo‘lamiz. Maxtumquli dastlabki ta‘limni ovulida otasidan oladi. So‘ngra 6 yoshida qishlog‘idagi Niyozsolih mulladan ta‘lim oladi. Maxtumquli Xalach atrofining Qiziloyoq qishlog‘idagi Idrisbobo madrasasida, keyinchalik Buxoroning Ko‘kaldosh, Xivaning Sherg‘oziy madrasalarida o‘qiydi. Nizomiy Ganjaviy, Firdavsiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy kabi taniqli shoirlar ijodini chuqur o‘rganadi. O‘qishi davomida boshqa tengdoshlaridan o‘zining aqli, bilim salohiyati, o‘ta ziyrakligi va teran fikrlashi bilan ajralib turgan. Alisher Navoiyning ijodiga katta qiziqish bilan qaraydi, Navoiyni o‘ziga ustoz deb biladi. Maxtumquli 6 yoshidan she‘rlar yoza boshlaydi. Yozgan she‘rlariga Firog‘iy- “ayriliq” deb taxallus qo‘yadi. Maxtumqulishunoslar Maxtumquli bu taxallusni qo‘llashining asosiy sababi yaqinlaridan judo bo‘lib, hayoti davomida ko‘plab ayriliqlarga uchraganini ta‘kidlashadi. [3, 140.] Dastavval shoir ikki akasidan, so‘ngra otasi va ikki o‘g‘lidan ayriladi. Akalari Abdulla, Mamatsafodan ayrilig‘i shoirning “Kelmadi” she‘rida bayon qilingan:

Yuki-ko‘chi bilan ketdi Abdulla,





Hamma ketgan keldi, bular kelmadi,
Mamatsafo ketdi yordam bermoqqa,
Uzatganlar keldi, bular kelmadi.[4, 9.]


Turkman xalqi tarixining eng og'ir va eng notinch sharoitida yashagan Maxtumquli akalari Abdulla va Mamatsafolar Chovdirxon boshchiligida Afg'onistonga Ahmadshoh huzuriga vakil qilib yuboriladi va dushmanlar tomonidan shafqatsizlarcha o'ldiriladi. She'rida shoir hamma ketganlar keldi, lekin akalari uyiga qaytib kelmaganligini, bu xolat esa shoir qalbini iztirobga solganligi tasvirleydi. Shoir yaqinlarini yo'qotish qanchalar azob ekanligini sodda so'zlar ila bayon qilgan. Shoirning otasidan ayrilig'i azobi "Ozodim qani" she'rida aks etgan:

Falak, izlar edim, sen duchor bo'lding,
Ko'zimning ravshani – Ozodim qani?
Yuragim sug'urib itlarga berding.
Shahrimning sultoni – Ozodim qani?

Shoir falakdan ko'zini nuri, shahri sultoni otasi qayerdaligini so'rab, nola qiladi. Otasidan judo bo'lganidan so'ng, butun bir oila tashvishi Maxtumqulining zimmasida qoladi, chunki otasidan oldin ikki akasi vafot etadi. Katta oilaning barcha yuki shoir gardaniga tushadi. Maxtumquli mudarrislik, ota bobosidan qolgan to'qindo'zlik, temirchilik, zargarlik kasblarini o'rganadi va shu kasblarni mohir ustasi bo'lib yetishadi. Otasidan keyin ro'zg'or yuritishda shu kasblar unga qo'l keladi.

Shakar edi, zahar bo'ldi so'zlarim,
Za'farondek sarg'ayibdur yuzlarim,
Quvvat ketdi, xiralandi ko'zlarim
Minbarim azoni – Ozodim qani?[5, 11.]

Shoir otasining o'limidan so'ng shakar so'zlari zahar bo'lganligini, ranglari sarg'ayib, tanasidan quvvat ketib, ko'zlari xiralashganini, azoni minbari Otasi qayerda ekanligini falakdan so'rab, fig'on chekadi. Sababi otasi uni hayot yo'lini yoritgan mash'ala edi, otasi bilan hamfikir edi. Otasining bevaqt o'limi yosh shoirni qayg'uga soladi. She'rida shoir ichki kechinmalari, dard-iztiroblari aks etgan. Shuningdek, shoir she'rida o'xshatish san'atidan ham chiroyli foydalangan. Yuzini sarg'ayishini za'faron o'simligiga o'xshatadi. Shoir she'rlarida badiiy san'atlardan mohirona foydalangan. Shoirga yaqinlarini yo'qotishi qattiq ta'sir qiladi. Ayniqsa, sevgan yoriga moddiy





qiyinchiliklar tufayli yetisha olmaganidan qiynaladi. Buni quyidagi misralarida yaqqol sezishimiz mumkin:

Jon halqumga keldi, yondim, yorildim

Bag'ishlasang netar, yorni, ey falak!

Nachog'liq sevishdim, bevaj ayrildim,

Bag'ishlasang netar, yorni, ey falak!

Shoir yoridan ayrilib joni halqumiga kelib, yondim, yorildim deb azoblanadi. Qanchalik sevib, sababsiz ayrilganini nola qilib, falakdan yorni bag'ishlasang nima qiladi? deb murojaat qiladi. Aslida, falak timsolida Allohga murojaat qiladi.

Maxtumquli, dunyo eski jahondir,

Sevishmaklik bu dasturi zamondir.

Gunohim ko'p bo'lsa, karaming kondir,

Bag'ishlasang netar, yorni, ey falak! [6, 139.]

Shoir gunohlari uchun Allohdan kechirim so'raydi, Uning keng karamidan umidvor bo'ladi. Shoir Maxtumquli sevgan yoriga she'rlari orqali nazmiy haykal qo'ygan yetuk qobiliyat egasi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Maxtumqulining barcha she'rlarida tasavvufona ohanglarni ko'ramiz. Naqlga ko'ra, Maxtumqulining ilk she'ri "Turgil, dedilar" manzumasidir. Shoir she'rda Alloh taolo ato etgan ma'naviy ikromni shukrona va hissiyot bilan bayon etadi:

Bir kecha yotardim, tunning yarmida, To'rtta otlig kelib, "Turgil!", dedilar, "Xabar bergaydirmiz fursat yetganda, Bul yerda erlar bor, ko'rgil!" dedilar. Nazarim tushganda ul to'rt mardona, Ko'nglim jo'sha keldi, boshim gardona,

deya shoir ma'no olamida erlar – valiy zotlarni ko'rib, ko'ngli jo'sh urib, boshi aylanganini aytib, his-hayajonini izhor etadi. Ma'no olamidan Maxtumquliga insonlarni she'r bilan Haqqa da'vat etish izni va iste'dodi berilgani manzuma zamirida ifodalangan. Bu "O'g'lon, Alloh yoring, borgil, dedilar" satridan ham anglashiladi. [7, 3-4.]

Maxtumquli bir qancha lirik she'rlar, lirik-epik dostonlar, g'azal va muxammaslar yozgan. Bizgacha uning lirik, falsafiy, didaktik ruhdagi 10 ming misradan ortiq she'rlari yetib kelgan. Maxtumqulining «Bo'lmasa», «Kelgay», «Bilan», «Naylayin», «Etmas», «Bular», «Ketdi zamona» va boshqa bir qator she'rlarida turkman xalqining hayoti, urf-odatleri, o'z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalari, shoirning ichki kechinmalari teran ifoda etilgan.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Maxtumquli turkman xalqini hamjihat bo'lishini xohlaydi, turkman beklarini birlashishga chorlaydi, markazlashgan turkman davlatini tuzishga urinadi. Har bir she'rlarida turkman xalqini ahil bo'lib, yakdil bo'lishga chaqiradi. Maxtumquli she'rlarining tag zamirida xalqining ahvoliga achinishini his qilasiz. Har bir she'rlarida dard seziladi, shuning uchun ham shoirning ko'p she'rlari mashhur san'atkorlar tomonidan qo'shiq qilib kuylangan. Shoir she'rlari tili sodda va tushunarli bo'lib, barcha xalqlar tomonidan sevib o'qiladi.

Maxtumquli dunyo kezib, ko'p yurtlarda bo'ladi, musofirlik, faqirlik g'urbatini chekadi, o'z Vatanini sog'inadi. Vatan sog'inchiga atalgan she'rlarida shoir o'z yurtini sevish, undan ayrilmaslik to'g'risida nasihatlar qiladi. Shoirning shunday nasihatga boy bir she'rini keltirib o'tishni joiz deb bildim:

Mastona yurguncha g'ayr yurtinda,
Unib – o'sgan o'z yurtidingdan ayrilma.
Mag'rur kaklik kabi nafsing yo'lida,
Doma tushub, qanotingdan ayrilma.[8, 4.]

O'zga yurtdan o'zing tug'ilib o'sgan o'z yurtiding afzalligini, yurtidingdan ayrilib, kaklik kabi nafsning quli bo'lib, aldanib, qanotingdan ayrilib qolma deb shoir nasihat qiladi. She'rlari orqali buyuk adabiy meros qoldirgan Maxtumquli turkman xalqining istiqboli uchun yondi, turkman eli ravnaqi uchun joninida berishga tayyor edi.


XULOSA

Maxtumquli she'rlarining tag zamirida asosiy g'oya xalqining orzu-umidlarini, or-u nomusini madh qildi. Maxtumquli she'rlari o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilyapti. Uning ayriliq taxallusini qo'lashida nimalar sabab bo'lgani shoir ijodi shinavandalari uchun qiziq. Shu sababdan, uning yaqinlari yo'qotishiga oid she'rlari tahlilga tortildi. Bu o'rganilganlar aslida Maxtumquli ijodidan bir tomchi, xolos. Uning adabiy merosini o'rganish, she'rlaridan dinimiz mazmun- mohiyatini anglash butun turk xalqi uchun, xususan biz o'zbek xalqi ixlosmandlari uchun yuksak sharaf tuyg'usini uyg'otadi. Pandu nasihatga boy she'rlari bizni yanada jo'shqinlikka undaydi. Zero, ajdodlari merosini chuqur bilmagan avlod tanazzulga uchrashi muqarrar.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиеев Ш.М. Миллий тараққиёт йулимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2017, - Б, 367.
2. Қурбанов Т. “Беркарар девлет ислерин” // Махтумкули-250 (Научные доклад статьи и сообщение о поэте). – Ашхабад, 1989, С, 140.
3. Махтумқули Dunyo o‘tib boradir she’rlar. T: Sharq nashriyoti, 2007, 4-bet.
4. Kerboboyev B. Махтумқули drama. Komil Yashin Asarlar, Oltinchi jild, Tarjimalar. T: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980, 139- bet.
5. Shomuhamedov Sh. Махтумқули she’riyatidan, T: 1976, 9-11- betlar.
6. Kenjabek M. Saylanma. Махтумқули-valiy shoir. www.ziyouz.com, 2007, 3-4-bet.
7. Махтумқули- Firog’iy. Saylanma. T.: O‘zbekiston, 2008, 4- bet.



ДОКУМЕНТАЛЬНАЯ ПРОЗА: ОТРАЖЕНИЕ РЕАЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ ПЕРО ПИСАТЕЛЯ

NON-FICTION: REFLECTION OF REALITY THROUGH THE WRITER'S PEN

Shaxnoza Berdiyeva


Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

E-mail: shat19@inbox.ru

Аннотация. Статья "Документальная проза: отражение реальности через перо писателя" представляет собой обзор жанра документальной прозы в современной литературе. Автор анализирует особенности этого жанра, его историю и значение в современном обществе. Обсуждается влияние документальной прозы на формирование общественного мнения, выявление социокультурных проблем и стимулирование аналитического мышления читателей. Через примеры известных произведений таких авторов, как Трумен Капоте, Светлана Алексиевич и другие, автор раскрывает разнообразие жанра и его способность к передаче реальности жизни. Статья призвана погрузить читателя в увлекательный мир документальной прозы и показать важность этого жанра как источника понимания современности и источника вдохновения для читателей различных возрастов и культурных контекстов.

Ключевые слова: документальная литература, реальные события, факты, Трумен Капоте, Светлана Алексиевич, особенности документальной прозы, социально-политические проблемы, исторические события, эмпатия, важные темы.

Annotation. The article "Non-fiction: Reflecting Reality through the pen of a writer" is an overview of the genre of documentary prose in modern literature. The author analyzes the features of this genre, its history and importance in modern society. The influence of documentary prose on the formation of public opinion, the identification of socio-cultural problems and the stimulation of analytical thinking of readers is discussed. Through examples of famous works by such authors as Truman Capote, Svetlana Alekseevich and others, the author reveals the diversity of the genre





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

and its ability to convey the reality of life. The article aims to immerse the reader in the fascinating world of nonfiction and show the importance of this genre as a source of understanding of modernity and a source of inspiration for readers of different ages and cultural contexts.

Key words: non-fiction, real events, facts, Truman Capote, Svetlana Alekseevich, features of documentary prose, socio-political problems, historical events, empathy, important topics.

Жанр документальной прозы является одним из наиболее увлекательных и значимых направлений в современной литературе. Он представляет собой мощный инструмент передачи реальности через призму литературного творчества. В данной статье мы погрузимся в мир документальной прозы, проанализируем его особенности, историю и значение в современном обществе, а также рассмотрим влияние этого жанра на формирование общественного мнения и стимулирование аналитического мышления читателей.

Жанр документальной прозы имеет давнюю и интересную историю, начиная с древних времен до современности. Этот жанр литературы стремится передать реальные события, факты и идеи в форме прозы, чтобы раскрыть истину и вызвать у читателя интерес к изучению реального мира. Первые письменные произведения, которые можно отнести к документальной прозе, появились еще в Древнем Египте и Древней Греции. Одним из примеров такой ранней документальной прозы можно назвать "Историю Геродота", который описывал историю и культуру различных народов. С развитием письменности и печати жанр документальной прозы стал все более популярным. В эпоху Просвещения в Европе появились множество документальных произведений, затрагивающих различные аспекты общества, науки и искусства. В XIX веке документальная проза стала обретать свои собственные формы и стили. Одним из определяющих произведений этого времени можно считать "Письма о природе" Жоржа Санда, где автор описывает природу и обычаи французской деревни.

В XX веке жанр документальной прозы стал особенно актуальным, поскольку авторы все более часто обращались к реальным событиям и проблемам в своих произведениях. Такие авторы, как Джон Стейнбек, Джордж Оруэлл, Травис Хаммонд, Эллен Уилксон и другие, создавали произведения, которые





отражали социальные, политические и экономические реалии своего времени. С появлением цифровых технологий и интернета в XXI веке документальная проза стала доступной широкой аудитории через различные средства массовой информации и платформы. Современные авторы продолжают развивать и расширять границы документальной прозы, обращаясь к новым темам, аспектам и идеям. Таким образом, история жанра документальной прозы богата и разнообразна, и она продолжает развиваться и процветать в наше время.

Одной из ключевых особенностей документальной прозы является стремление к достоверному отражению реальности. Писатели этого жанра исследуют и фиксируют события, людей, идеи без вымысла и украшения. Через перо писателя реальность приобретает новые измерения, вызывая у читателей глубокие эмоции и размышления. За счет использования фактов, интервью, дневниковых записей и других документов документальная проза создает живые и уникальные образы, которые касаются нас прямо в сердце.

Документальная проза - это жанр литературы, основанный на реальных фактах, событиях и историях, который стремится передать читателю правдивую картину мира. Два известных представителя этого жанра - Трумен Капоте и Светлана Александровна Алексеевич - каждый в своей сфере создали произведения, которые стали яркими образцами документальной прозы. Трумен Капоте, американский писатель и журналист, прославился своими работами в жанре "новая журналистика". Его наиболее известное произведение "Завтрак у Тиффани" изначально было рассказом о светской жизни Нью-Йорка, но позже Капоте обратил внимание на историю убийства четырех членов семьи в Канзасе, которая легла в основу его знаменитого рассказа "Хладнокровное убийство". В этом произведении автор совместил жанры документальной прозы и романа, рассказывая о реальном преступлении, переживаниях членов семьи убитых и самом убийце.

Светлана Алексеевич – известный белорусский писатель и лауреат Нобелевской премии по литературе. В ее творчестве особое место занимает документальная проза, которая позволяет ей создавать глубокие, эмоционально насыщенные произведения, основанные на реальных событиях и мнениях людей. В книге "У войны - не женское лицо" Светлана Алексеевич рассказывает о женщинах, участвовавших во Второй мировой войне. Она собрала реальные





истории, свидетельства и воспоминания женщин, которые принимали участие в боевых действиях, работали на фронте, врачевали раненых, сталкивались с тяжелыми испытаниями военных лет. Стиль работы Светланы Алексиевич в этой книге впечатляет своей искренностью и психологической глубиной. Она не только рассказывает о событиях войны, но и исследует внутренний мир и чувства своих героинь. Она поднимает важные вопросы о женской силе, стойкости, жертвенности и любви в самых тяжелых условиях. Книга "У войны не женское лицо" показывает, что война оставляет след не только на территории, но и в сердцах людей. Светлана Алексиевич открывает перед читателями новую перспективу на события войны, показывая ее через призму женского взгляда и опыта.

Это произведение не только памятник женщинам-героиням, оно также позволяет нам задуматься о том, как война меняет человека, его ценности и понимание мира. Благодаря работам Светланы Алексиевич мы можем услышать голоса тех, кто испытал ужасы войны на себе и кто преодолел их с достоинством и силой, независимо от пола. И Трумен Капоте, и Светлана Алексиевич умело используют факты, интервью, документы и свое тонкое чувство стиля, чтобы воссоздать живые истории, которые трогают сердца читателей и заставляют задуматься о важности правдивого повествования. Оба писателя отличаются высоким профессионализмом, глубоким пониманием человеческой психологии и умением создавать красочные и убедительные образы.

Документальная проза играет важную роль в формировании общественного мнения и освещении социокультурных проблем. Благодаря произведениям таких авторов, как Светлана Алексиевич и Трумен Капоте, читатели получают возможность погрузиться в реальную жизнь и переживания людей, столкнувшихся с трагическими событиями и вызовами современности. Данная проза способствует развитию эмпатии, понимания и сочувствия к окружающему миру, что является важным шагом к построению гуманного общества.

Документальная проза – это не просто жанр литературы, но и мощное средство отражения реальности через перо писателя. Художественные произведения в этом жанре позволяют нам увидеть исторические факты, социокультурные события и человеческие судьбы через призму литературного






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

воображения авторов. Они берут нас за руку и проводят сквозь запутанные дорожки прошлого и настоящего, оставляя в наших сердцах эмоции и понимание.

Таким образом документальная проза дает нам возможность погружаться в различные эпохи, переживать события более глубоко и, в конечном итоге, обогащать наше мировоззрение. Она играет важную роль в сохранении исторической памяти, отражении социокультурной ситуации и вызове к размышлениям над человеческой сущностью. Через документальную прозу мы видим, как писатели передают реальность своим уникальным, литературным образом, разбирают сложные вопросы, вызывают эмоции и заставляют задуматься: что призывает нас к осмысленному взгляду на прошлое, нынешнее и будущее, помогая нам стать более сознательными и эмпатичными существами. Документальная проза – это мост между реальностью и искусством, между прошлым и настоящим, который позволяет нам увидеть мир с новой, литературной перспективой.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Документальная литература [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://tolkslovar.ru/d5190.html>
2. Местергази Е.Г. Специфика художественной образности в «документальной литературе» [Текст] // Филологические науки. – №1. – 2007. – С. 3-8.
3. Berdieva, S. (2023). Documentary Imagery in Modern Non-Fictional Prose. *European Science Methodical Journal*, 1(3), 4-10.
4. Светлана Алексиевич « У войны - не женское лицо » Мастацкая литература 1985 г.
5. Berdiyeva, S. (2023). Zamonaviy adabiyotda non-ficshning o 'ziga hosligi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(1), 59-62.



BADIIY KO‘CHIM VA RAMZNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Rajabov To‘xtamurod Abdullayevich

(BuxDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi)

Har bir davr adabiyoti, xususan, she‘riyatining nozik qirralarini ifodalovchi xususiyati, uslubiy yo‘nalishining she‘riy vaznlarga, janrlarga xos munosabati namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda badiiy ko‘chim ham she‘riyatga ta‘sirini o‘tkazadi. Barcha davrlarda individual xususiyatdan kelib chiqib ijod qilinishini inkor qilib bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘zbek she‘riyati ham mana shunday jarayonni boshidan kechirdi va bu jarayon davom etmoqda. Bu davrda ko‘chimlarni qo‘llashda ularning shakliy tuzilishiga ko‘proq e‘tibor berildi. Yillar davomida taroshlangan va yaxlitlangan simvol va ramzlarga yangicha yondashuvlar paydo bo‘ldi. Ijodkorlar ushbu shakllar, simvollar orqali mavzu va g‘oyani ochib berish yo‘lidan yurdilar. Jahon adabiyotshunosligida D.S.Uang badiiy adabiyotdagi asarlardan olingan ayrim ramz va metaforalarni san‘at ko‘rinishlaridan biri sifatida tahlilga tortib, an‘anaviy san‘atni tadqiq etish asnosida ramz va metaforaning tarixiy rivojlanishini ham o‘rganadi.

Zamonaviy she‘riyatdagi simvollar misrada yuzaga kelishi, fikrni to‘la ochib berishga xizmat qilishi va jarayonga aloqasi nuqtayi nazaridan alohidalik hosil qiladi. Simvol barcha sohalarda uchrashi, uning she‘riyatga singishida ham shoirning mahorati jiddiy o‘rin egallaydi. “Simvol (grekcha “sumbol” so‘zidan olingan bo‘lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a‘zolarining bir-birini tanib olish uchun qo‘llangan shartli belgidir) belgi tushunchasini anglatadi”. Poetik simvollar tashqi ko‘rinish jihatidan intim tuyg‘ularni belgilar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, simvol o‘zi ifodalayotgan tushunchani aniq va badiylik me‘yorlariga amal qilgan holda ko‘rsatishi ham shart hisoblanadi. Simvolning turli sohalarda uchrashini tadqiqotchi N.Kostoromov to‘la tadqiq etadi. “Simvallashtirish nisbatan turli sohalarda uchraydi. Farq shundaki, ayrim hollarda (poetik simvollarda) simvol insonning mavjud psixik xususiyatlariga suyangan holda yuzaga keladi, boshqalarda esa (simvol-belgida) u sun‘iy bo‘ladi, shuning uchun ham u o‘ta shartli mohiyatga ega”. Simvol she‘rda g‘oya jihatidan hikoyaga teng muayyan bir ma‘noni ochishga yordam bera oladi.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Albatta, she'riy parchada keltirilgan simvolni to'g'ri va aniq tahlil qilish uchun simvol anglatgan ramziy ma'noni aniq tushunib yetish talab qilinadi.

Otlar tishi qariydi,
Palaxmonlar belog'riq.
Shahar devor ko'ksida
Kunda ochilar yoriq.

Adabiyotshunos olim D.Quronov ta'kidlaganidek: "Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli o'laroq dunyoga keladi". Yuqoridagi she'rda ham ijodkor o'zini tarix qa'riga tashlaydi. Qolaversa, barcha urushlar, vayronagarchiliklar tugab dorilomon kunlar boshlanayotgani haqida to'lqinlanib so'zlaydi. Voqelik mazmunini ochib berishda esa palaxmon obrazidan foydalanadi. "Palaxmonlar belog'riq" satri orqali urush bizdan yiroq ketganiga ishora qiladi. Palaxmon so'zi ramziy ma'noda qo'llangan bo'lib, urush va vayronagarchilik ramzi sifatida ishlatilgan.

Aslida, she'riyatda mantiq va simvol hayotiy xulosalar bilan aralashgan holda ifodalanishi lozim. Ramz ko'chim sifatida qabul qilinib, u hayotiy misollar orqali ifodalanmas ekan, bunday simvollar o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisholmaydi. Qolaversa, ko'chim va timsol tugallangan obraz yaratishda o'zaro yaxlitlikka erishishi lozim. Buning uchun esa ijodkordan ma'lum bir me'yor va aniq ritm talab etiladi. "Badiiy detal, timsol va obrazga singdirilgan fikr, g'oya o'zining ma'no darajalarining alohida qavatlanishi bilan musiqadagi yanglig' notalar jamuljamligini eslatadi. O'z navbatida, har qanday badiiy obrazning, yaxlit she'riy matnning yuzaga kelishida badiiy detal va badiiy timsol pog'ona vazifasini o'taydi".

Ma'lumki, folklor an'analari bilan sug'orilgan adabiyotimizda bitta obraz ham simvol darajasiga ko'tarilishi va ko'chma ma'no ifodalashi mumkin. Xalq og'zaki ijodi orqali millatimiz ongiga singgan ba'zi obrazlar zamonaviy she'riyatda simvol darajasiga chiqqan. Masalan, Alpomish, Farhod, Tohir obrazlari bunga dalil bo'la oladi. Chunki bulardagi alohida holat va ustunlik boshqa obrazlarga nisbatan chuqur o'rnashgan. Shuning uchun ham qahramonlik, fidokorlik, sevgi tushunchalari, odatda, shu obrazlar atrofida mujassamlashtirilgan. Natijada, katta ma'noni ifodalagan tushunchalar ramz darajasiga ko'tarilgan. Davr shoirlari umumiy holatni ifodalashda mazkur ramzlardan foydalanish an'anasini o'rganishgan. An'anaviy xususiyatga ega bo'lgan ushbu ramzlar ham hech qanday qoidasiz, hech qanday ifodasiz to'g'ridan to'g'ri ko'chim turi sifatida kela oladi:





O'g'lim desang, osmonlarga
G'irotd bo'lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdagi
So'lig'imsan, Vatanim....

“A.A.Potebnya o'z davrida metaforani “qisqartirilgan qiyos” deb atagan edi. Darhaqiqat, masalaga bir tomonlama yondashilsa, bunday nomlash (atash) metaforizatsiya hodisasining xarakteriga va ayni paytda o'zbek tili dalillariga ham mos keladi”. Alpomish obrazi butun bir millat uchun qahramonlik namunasi ekanligi barchaga o'zida ravshan. Shoir aynan mana shu holatni nazarda tutadi. Biron kishining o'g'il farzandi bo'lsa, beixtiyor “Alpomishday yigit bo'lsin” deya niyat qiladi. Ko'rinib turibdiki, Alpomish o'zbek xalqi uchun qahramonlik ramzidir. Shoir shundan foydalanib, butun bir millat vakili sifatida qahramonning navkari bo'lishni xoxlaydi. Ramz bir necha kishida uchraydigan fazilatlarni bir kishi atrofida birlashtiradi. Ya'ni yuzlab insondan umumiy yaxshi sifatlarini oladi va o'zi gavdalantirayotgan obrazda umumlashtiradi va shu kabi holatlar evaziga adabiyotshunoslikda ramz yuzaga keladi. Ramziy obraz yillar o'tgani sari zamon zayliga qarab to'lishib, mukammallashib boradi. Shuning uchun o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, yangilanib boraveradi. Davr ijodkori esa zamonlardan oshgan obrazni mohiyatan yangilab ishlata boradi.

Zamon shoirlari ramzlarga asoslangan ko'chmlarni qo'llashda (ular yaratilmaydi, matnga tayyor holda olib kiriladi) an'anaviylikdan chetga chiqmaydi, poetikada shakllangan qoliplar asosida ish ko'radi. Ramziy ko'chmlar hosil qilishda shakliy jihatdan ularga ta'sir etmay yangi ma'noviy qirralarni kashf etishlari tabiiy.

She'riyatda ramzlarning tuzilishi va uning turli o'rinlarda turli ma'nolarda kelishini majoziylik nuqtayi nazaridan tahlil qilib to'laroq anglash mumkin. Har bir ramz ma'lum bir poetik ifoda va shu ifodaga asos bo'luvchi ma'lum bir unurni ifodalaydi. Shoirning ruhiy holati obrazlarni qanday ramziy ma'noda qo'llash uchun asos bo'lishini ta'minlab beruvchi unsur sanaladi. Shu orqali bir-birini takrorlamaydigan, bir-birini inkor qilmaydigan, o'zaro yaqinlikka ega, ammo jiddiy farqlarga uchragan bir qator ramziy obrazlar she'riyatga kirib keladi. Xuddi mana shu





holat poetikada xilma-xillikka sabab bo‘ladi. Ushbu holatlarning barchasi esa poetik ifodaning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi vositaga aylanib qolganini sezish ham qiyin bo‘lib qoladi. So‘zning belgilari boshqa so‘zlar bilan bog‘langanidan keyin yaralgan obraz o‘zining xususiy ifodasiga aylanib qoladi. Shundan so‘ng poetik ifoda ikki so‘zning qo‘shilishini emas, balki ramzga aylangan obrazni o‘zida ifodalab boradi. Natijada, misrada aks etilgan va akslantirilgan so‘zlar yuzaga keladi. Bu esa poetik ifodalovchi va poetik ifodalanovchi kabi tushunchalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Somon yo‘llarida yuribmiz, mana,
Falak burjlaridan irjaymoqdamiz.
Ko‘kda Zuhrodan ham so‘rab ko‘r, mana,
Goh hingirlab, goho tirjaymoqdamiz.

Mazkur namuna ustozlar ijodini davr ijodidan yuqori baholab yozilgan she‘r sanaladi. Zuhro yulduz esa yetolmaslik va go‘zallikning ramzi sanaladi. Zuhro yulduz eslanganda beixtiyor yuksaklik va ulug‘lik gavdalanadi kishida. Bu o‘rinda Zuhro ifodalanayotgan ramz sanaladi, atrofidagi so‘zlar esa o‘z-o‘zidan ifodalovchiga aylanib boradi. Ushbu misoldan anglash mumkinki, aslida shoirning tafakkur darajasi o‘quvchining tafakkuridan ustunroq bo‘lishi lozim. Shundagina shoir o‘zi anglagan irfoniy tuyg‘uni o‘quvchiga ko‘chim tarzida beqiyos yetkazib bera oladi.

Yuqorida keltirilgan she‘riy parchadan ko‘rishimiz mumkinki, ijodkorning mahorati, shoirlik tasavvuri, xayolot ummonining boyligini ko‘rsatuvchi badiiy vosita ramzdir. Ramziylik asosida ma‘no ko‘chirish jahon adabiyotidagi barcha ijodkorlar uchun umumiy, mushtarak holatdir. Shuning uchun ham dunyoviy va milliy adabiyotdagi ramziylik bir-biriga mos tushadi.

Barcha davr she‘riyatida ham simvol va ramziy obraz majozning bir turini ifodalab kelgan. Ramz hamisha majoz bo‘la oladi, ammo har qanday ko‘chim turi ramziylik hosil qilolmaydi. She‘riyatda metaforalarga simvol tarzida qarash ham uchraydi, ammo ko‘chim simvol darajasiga chiqishi uchun bir qator talablarga javob berishi kerak. Avvalo ramz bo‘lishi uchun bitta ko‘chim o‘zida bir necha ma‘noviy qirrani umumlashtirgan bo‘lishi, she‘riyatda ramz sifatida o‘rtaga tashlangan ko‘chim turining maqsad va vazifalari barcha o‘quvchilarga birdek tushunarli bo‘lishi, ifodalanayotgan ko‘chimning o‘rni o‘zgargan taqdirda ham uning ma‘noviy bo‘yoqdorligiga putur yetmasligi kerak. Mana shu holatdagina ko‘chim ramz darajasiga






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

chiqadi, boshqa holatlarda esa metafora, yoki metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida qoladi. Barcha voqea-hodisa va narsalarni shartli ravishda boshqa nom bilan ifodalash ramziy ko‘rinishni hosil qilavermaydi. Voqea-hodisalarni boshqa nom bilan atash odatda tasviriy ifodalarni hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI!

1. Шаропов А. Оламлар ичра оламлар – Т.: Фофур Фулом. 1978.
2. Н.Косторомов “Историческое значение южно-русского народного творчества”, журнал “беседа”, 1872, стр. 48.
3. Ражабов Д. Бадиий образ ва ритм табиати. – Б.: Бухоро, 2002
4. Ражабова И. Варазруд гулоби –Т.: Академнашр 2015.
5. Юсуф М. Сайланма. – Т.: Шарқ. 2007.
6. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т.: Фан, 1983.
7. Сирожиддин Саййид. Элдошларим, дилдошларим. – Т.: Адабиёт. 2021





TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KREDITDAN SAMARALI FOYDALANISH

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Hojiqulova Feruza Dona qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Jumayeva Nafisa Narzulla qizi

Annotatsiya: Tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy faoliyat sohasida dasturlar doirasida ilgari olgan kreditlaridan samarali foydalanib, tadbirkorligini yo'lga qo'ygan va kredit to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirgan kichik tadbirkorlik sub'yektlariga faoliyatini yanada kengaytirishi uchun mazkur kreditlardan takroran foydalanishga ruxsat etilishi jarayonidagi asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Annotation: The main aspects of the process of allowing repeated use of these loans in order to further expand their activities to small business entities that have effectively used the previously received loans within the framework of programs for the development of entrepreneurship and made loan payments on time we'll see.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kredit, Imtiyozli kredit shartlaridan foydalanish, Moliyaviy moslashuvchanlikni oshirish, Yetkazib beruvchilar bilan ishonchni mustahkamlash, Investitsiyalar va hamkorlikni jalb qilish, Biznesni kengaytirishga yordam berish, Biznes krediti reytingini mustahkamlash.

Keywords: Entrepreneurship, credit, Access to preferential credit terms, Increasing financial flexibility, Strengthening trust with suppliers, Attracting investment and cooperation, Helping business expansion, Strengthening business credit rating.

Tadbirkorlikning dinamik manzarasida yaxshi kredit amaliyotini saqlashning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi. Korxonalarining kredit amaliyoti uning moliyaviy sog'lig'iga, o'sish trayektoriyasiga va umumiy muvaffaqiyatiga chuqur ta'sir qiladi. Ushbu maqola tadbirkorlikning barqaror o'sishini rag'batlantirishda ishonchli kredit amaliyotlarini qabul qilish va ularga rioya qilishning chuqur ta'sirini o'rganadi ;

1. *Imtiyozli kredit shartlaridan foydalanish:* Ijobiy kredit tarixini yaratish va qo'llab-quvvatlash qulay kredit shartlariga kirish eshigini ochadi. Kreditorlar





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

mas'uliyatli kredit boshqaruvi bo'yicha tasdiqlangan tajribaga ega bo'lgan korxonalariga past foiz stavkalari, moslashuvchan to'lov shartlari va kredit limitlarini oshirishni taklif qilishga ko'proq moyil.

2. *Moliyaviy moslashuvchanlikni oshirish*: Yaxshi kredit amaliyotlari korxonalariga turli ssenariylarni boshqarish uchun moliyaviy moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Ushbu moslashuvchanlik kompaniyalarga kengaytirish, uskunalar sotib olish yoki qiyin bozor sharoitlariga moslashish va chidamlilikni oshirish uchun moliyalashtirishni ta'minlash imkonini beradi.

3. *Yetkazib beruvchilar bilan ishonchni mustahkamlash*: Qattiq kredit tarixi kompaniyaning yetkazib beruvchilar oldida ishonchliligini oshiradi. Ushbu mustahkamlangan ishonchlilik yanada qulay to'lov shartlari, chegirmalar va etkazib beruvchilar bilan yaxshilangan munosabatlarga aylanadi, bu esa yanada silliq operatsiyalar va xarajatlarni tejashga yordam beradi.

4. *Investitsiyalar va hamkorlikni jalb qilish*: Investorlar va potentsial biznes hamkorlar kompaniyaning kredit qobiliyatini diqqat bilan o'rganadilar. Yaxshi kredit amaliyotini namoyish etish moliyaviy barqarorlik va mas'uliyatni anglatadi, biznesni sarmoya va hamkorlik imkoniyatlari uchun yanada jozibador qiladi.

5. *Iqtisodiy tanazzulga bardosh berish qobiliyati*: Kuchli kredit profiliga ega bo'lgan korxonalar iqtisodiy tanazzulga bardosh berish uchun qulayroqdir. Qiyin paytlarda kreditga ega bo'lish operatsiyalarni davom ettirish, strategik investitsiyalar va iqtisodiy noaniqliklar sharoitida imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

6. *Biznesni kengaytirishga yordam berish*: Yaxshi kredit amaliyotlari biznesni kengaytirish uchun zarur bo'lgan mablag'ni ta'minlash uchun asosiy hisoblanadi. Kreditlar yoki kredit liniyalari orqali korxonalar ishonchli tarzda kengaytirish tashabbuslarini amalga oshirishlari, yangi bozorlarga kirishlari va kengaytiriladigan infratuzilmaga sarmoya kiritishlari mumkin.

7. *Sotuvchilar bilan yaxshiroq shartlarni muhokama qilish*: Ijobiy kredit tarixi korxonalariga sotuvchilar bilan yaxshiroq shartlarni muhokama qilish imkonini beradi. Bunga qulay to'lov shartlari, ommaviy xaridlar uchun chegirmalar va boshqa imtiyozlar kiradi, bu esa xarajatlarni tejashga va umumiy moliyaviy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

8. *Biznes krediti reytingini mustahkamlash*: Yaxshi kredit amaliyotlariga izchil rioya qilish biznes kredit reytingini oshiradi. Kuchli kredit reytingi qo'shimcha





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

moliyaviy imkoniyatlar, jumladan, yuqori kredit limitlari va turli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun eshiklarni ochadi.

Tadbirkorlikni moliyalashtirishga turli yo‘nalishlarda yondashish mumkin. Bozor iste‘molchilarga nimani taklif qilishini va ushbu bitimlardan to‘liq potentsialidan qanday foydalanishni tushunish muhimdir. Iste‘molchilarning kompaniyangiz rivojlanishidagi ushbu dastlabki bosqich uning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun juda muhim hisoblanadi.


Kredit karta tadbirkorlikni moliyalashtirishning eng mashhur usullaridan biridir, ammo u diqqat bilan ko‘rib chiqishingiz kerak bo‘lgan bir nechta ogohlantirishlarni o‘z ichiga oladi. Eng muhimi, bu tadbirkorlik krediti bilan bir xil narsa emas va u iste‘molchilar bilishi kerak bo‘lgan turli xil oqibatlariga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maqolada tadbirkorlikning rivojlanishi samarali kredit orqali rivojlanishi bo‘yicha jarayonlar muhokama qilinib, taklif va tavsiyalar berilgan, shuningdek yaxshi kredit amaliyotlarining tadbirkorlik o‘shiga ta‘siri o‘zgaruvchan jarayon hisoblanadi. Imtiyozli kredit shartlarini ta‘minlashdan tortib investitsiyalarni jalb qilish va kuchli hamkorlikni rivojlantirishga qadar, mas‘uliyatli kredit boshqaruviga ustuvor ahamiyat beradigan tadbirkorlik dinamik tadbirkorlik landshaftida uzoq muddatli muvaffaqiyat va barqarorlik uchun o‘zini tutadi. To‘g‘ri kredit amaliyotini qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash nafaqat moliyaviy tanlov, balki barqaror o‘shishni maqsad qilgan korxonalar uchun strategik majburiyat jarayonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. tulakov u., ch u., turaev b. increasing the income of the population is the guarantee of a prosperous life //test engineering & management. – 2020. – т. 83. – №. 3. – с. 609-615.
2. тўраев б. э., хатамов о. қ. арима модели ёрдамида курилиш ишлари хажмини прогноз қилиш (сурхондарё вилоятида мисолида).“ //uzbridge” электрон журнали. – с. 74-84.
3. to‘rayev b. e. et al. mahalliy byudjet daromadlarini arima modeli asosida prognozlash //journal of universal science research. – 2024. – т. 2. – №. 1. – с. 141-149.
4. тураев б. корреляционно-регрессионный анализ доли строительных работ в валовом региональном продукте сурхандарьинской области //экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 6. – с. 205-214.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

5. turaev b. e. forecasting the volume of construction work using the arima model (on the example of surkhandarya region) //scientific progress. – 2021. – т. 2. – №. 2. – с. 1287-1290.
6. hojiqulova f., eshquvvatov o. umumdavlat soliqlari va daromadlaridan mahalliy budjetlarga ajratmalar hisobi // " science shine" international scientific journal. – 2023. – т. 7. – №. 1.
7. qizi hojiqulova f. d., eshquvvatov o. a. mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda sun'iy intellektning roli //golden brain. – 2023. – т. 1. – №. 23. – с. 19-23.
8. feruza x., eshquvvatov o. a. suniy intellektning mehnat bozoriga tasiri //" xxi asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2023. – т. 1. – №. 8. – с. 36-39.
9. hojiqulova f. mahalliy byudjetlardaromadlarini shakllantirish asoslari //talqin va tadqiqotlar. – 2023. – т. 1. – №. 13.
10. hojiqulova f. moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi banklarning transformatsion salohiyatiga ta'siri //приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – с. 317-318.
11. hojiqulova f. et al. improving the tax system in our countrytraining issues //science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. 7. – с. 378-382.
12. hojiqulova f. mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirish masalalari //science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. 7. – с. 378-382.
13. hojiqulova feruza dona qizi 'ta'lim sohasining bozor iqtisodiyotiga tasiri' - 2024. – т. 1. – №. – с. 220-223.
14. hojiqulova feruza dona qizi 'moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi banklarning transformatsion salohiyatiga tasiri' -2024. – т. 1. – №. – с. 407-410.
15. hojiqulova feruza dona qizi, & eshquvvatov otabek abdullayevich. 'surxondaryo viloyati bo'yicha investitsiyalar va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hajmini arima modeli yordamida prognozlashtirish' //journal of universal science research, -2024. – т. 2. – №. – с. 382-395.
16. hojiqulov feruza dona qizi, & xojimuratov zafarbek jo'ra o'g'li. o'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning o'rni va ularni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari //journal of universal science research, -2024. – т. 2. – №. – с.20-31.
17. hojiqulova feruza dona qizi, & kenjayeva sabohat safarovna. surxondaryo viloyati aholi jon boshining asosiy kapitaliga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini arima modeli yordamida prognozlashtirish //journal of universal science research, - 2024. – т. 2. – №. – с. 257–266.





MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AGRAR SOHANING TUTGAN O'RNI

Xamidov Asilbek Umuruzoqovich

Termiz davlat universiteti talabasi


Ashurov Jaloliddin Eshpo'latovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolda agrar sohadagi muammolar, rivojlanish, muammolarga yechimlar, agrar soha va agroturizm o'rtasidagi bog'liqliklar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: agrar soha, paxtachilik, strategiya, agroturizm.

Markaziy Osiyo qadimdan o'zining qishloq xo'jaligi sohasining eng yuksak cho'qqilariga erishgan, ya'ni g'alla yetishtirish, yilqichilik, qo'ychilik kabi. Ko'rinib turibdiki, Markaziy Osiyo aynan, O'zbekiston mintaqasida agrar sektorda ishlovchi aholining bilim va tajribalari ko'p. Ammo Chor Rossiyasining O'rta Osiyo mamlakatlarini bosib olishi, undan so'ng paxtachilik siyosati doirasida, yuksak taraqqiy etgan qishloq xo'jaligi tanazzulga yuz tutdi, keyin Sobiq sovet ittifoqi(SSSR)ning kollektivlashtirishidan so'ng qishloq xo'jaligi tanazzuli yakunlandi, ya'ni unumdor bo'lgan yerlar paxta ekish uchun berildi, mamlakatda paxta xalq uchun yetishtiriluvchi g'alla miqdoridan ko'p edi va bu uzoq yillar davomida saqlanib kelgan qishloq xo'jaligi yutuqlarini yo'qqa chiqardi. Bu siyosatlar birgina qishloq xo'jaligi sohasiga emas, balki O'rta Osiyo tabiatiga ham o'zining aks ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Daryo suvlari orqali yangi, o'zlashtirilmagan cho'l hududlarini o'zlashtirish, paxta dalalarini sug'orish maqsadida foydalanish oqibatida Orol dengiziga suv yetib bormay, ko'lning qurib ketishiga olib keldi. Bu muvafaqqiyatsiz siyosatlar oqibatida yuzaga kelgan tabiiy va ijtimoiy muammolardan Markaziy Osiyo(O'zbekiston) hozirgi vaqtgacha ziyat chekib kelmoqda. Yuqoridagi fiklar asosida, agrar sanoat mintaqa iqtisodiyotini, hamda tabiatini rivojlantirishi ham yoki tanazzulga olib kelishi ham mumkin. Mintaqada agrar soha orqali iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda, o'sha hududning flora va faunasini ham rivojlantirish, faqat iqtisodiyotni emas, balki tabiatni ham o'ylash zarurligi tarixdan ma'lum.






O'zbekiston mustaqillika erishgandan so'ng, yerlarni fermerlarga bo'lib berish, agrar sohani rivojlanishida dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Ammo 1991-yildan keyin ham paxta yetishtirish, qishloq xo'jaligida katta ulushga ega bo'lib keldi. Yana bir muhim faktga yuzlansak, 2003 yilda Jahon savdo tashkiloti kam rivojlangan mamlakatlarning paxta va paxta mahsulotlarining bozorga kirish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida "Paxta tashabbusi"ni ishlab chiqdi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar uchun paxta muhim mahsulot sifatida qaraladi. Ammo rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar uchun u "xavfsizlik yostig'i" hisoblanadi. Paxta ko'plab kichik qishloq fermerlari va ishchilari, ayniqsa, ayollar uchun keng foydalanuvchi manba bo'lib, dunyodagi eng qashshoq qishloq joylarida ish va daromad keltiruvchi mahsulotdir.¹⁹

Agrar sohadagi muammolar. Agrar soha faoliyati mintaqada to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, iqtisodiyotda kerakli rivojlanishni bermaydi. Ya'ni dehqon va fermerlarga islohotlar orqali yetarli sharoit yaratib berilmas ekan soha rivojlanishda orqada qolib ketadi. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi rivojlanishi sust ekanligining eng katta sabablaridan biri bu- mulk huquqi juda zaif himoyalanganligidadir. Buni quyidagicha izohlash mumkin: fermerlarning mulk daxlsizligi yaxshi himoya qilinmaganligi, mahalliy davlat organlari tomonidan oson olib qo'yilishi mumkinligi uchun yerga katta investitsiyalarni jalb qilmaydi va ekin miqdorining kamayib ketishiga olib keladi. Agarda fermerlar huquqlari to'la davlat himoyasiga olinsa, ular yerga katta investitsiyalarni jalb etadi va soha yaqin yillar ichida misli ko'rilmagan rivojlanishga erishadi. Keyingi muammolardan biri esa fermerlardan davlat xarid stavkalarining kamligi sababidan keyingi ekin mavsumigacha foyda va zarar bir bo'lib qoladi, keyingi rivojlanish uchun kam miqdordagi pul mablag'i jab etishiga olib keladi. Ammo bu muammolar sharoitida ham qishloq xo'jaligi 2023- yilda yetarli darajada o'sdi.(1-diagramma). 2040-yilga borib Markaziy Osiyo mamlakatlarida qurg'oqchilik bo'lishi prognoz qilinayabdi. Bu esa nafaqat qishloq xo'jaligiga, balki barcha sohalarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shu sababli ham keyingi yillarda suv muammosi ham agrar sohada dolzarb bo'lib boradi, bu esa oldimizda yechilishi qiyin bo'lgan katta boshqotirma turganidan darak beradi. Tomchilatib sug'orish, yokida

¹⁹ <https://qalampir.uz/uz/news/-2249-69895>






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

sug'orishda boshqa suvni tejavchi vositalardan foydalanilmasa, yomon oqibatlar tez orada o'zini ta'sirini ko'rsatishni boshlaydi.

1-rasm. 2023-yil holatiga O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'ish sur'atlari(o'tgan yildagiga nisbatan, % da)

Agrar sohani rivojlantirish. Agrar sohani rivojlantirish uchun hozirda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilingani



sohani tubdan isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda ushbu strategiya belgilab berilgan ishlarning amalga oshirilishi natijasida, qishloq xo'jaligida ko'plab sezilarli o'zgarishlar yuz berdmqda. Shu o'zgarishlarga misol qilib, Xo'jalik yuritishning zamonaviy uslublari va ilg'or shakllari, jumladan, turli ixtisoslashuvdagi klasterlar, qishloq xo'jaligi birlashmalari (kooperatsiya) tashkil etildi. Shu bilan birga, hududlarda jami 51,9 ming gektar er qayta foydalanishga kiritildi.²⁰ Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda bir qator ustuvor yo'nalishda sanab o'tishni lozim topdim:

1. Femerlarga yer egaligini berish, ularning mulk himoyasini davlat tomonidan qat'iy nazoartga olish, bu bo'yicha qaror, farmon va qonunlarni ishlab chiqish. Fermerlarning yerdan uzoq vaqt foydalanishlariga imkoniyat yaratib berish. Bu esa ularga yerga uzoq vaqtli investitsiya kiritishlariga yordam beradi va hosilning oshishiga olib keladi.

2. Jahonning ilg'or texnologiyalaridan foydalanishni o'rgatish, fermerlar uchun chetdan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan texnologiyalarni olib kirishda, bojxona qiymatlarini minimallashtirish.

²⁰ <https://yuz.uz/uz/news/qishloq-xo'jaligini-rivojlantirishda-qanday-muammolar-bor->





3. Femerlarga agrar sohada dunyoning yetakchi o'rinlarda boruvchi, Germaniya, Amerika fermerlari bilan fikr, tajriba almashishlariga imkoniyatlar yaratib berish.

Agrar soha va Agroturizm o'rtasidagi bog'liqliklar. Agrar soha rivojlanib borar ekan, unga bog'liq bo'lgan agroturizm ham bir qatorda rivojlanishi uchun qulay sharoit bo'ladi. Sharq madaniyati, oilaviy tamoyillari, yashash sharoiti kabilarga qiziquvchi turistlarni mamlakatga jalb etadi. Bunda qishloqlarda turistlar yashashi uchun "sayyohlik uylari" tashkil etish, ularga qulay sharqona madaniyatni ko'rsatuvchi sharoitlar yaratib berishdan iborat bo'ladi. Agroturizmni tashkil etishning kompleksli tamoyili. Unga muvofiq qishloq joylarining tabbiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, ekologik, tarixiy resurlardan foydalanish maqsadida agroturizmni, tarixiy, diniy, etnik turizm turlari bilan birga qo'shib tashkil etish zaruratga aylanadi.²¹ Agrar sohani barqaror rivojlantirish uchun imkoniyatlar juda ham ko'p bo'lib, shulardan biri sifatida agroturizmni olishimiz mumkin. Agroturizmni tashkil etish va rivojlantirish orqali mintaqalarda qishloq aholisini ish bilan ta'minlanishiga, ularning qo'shimcha daromadlari oshishiga, agrar korxonalar va turistik korxonalarining foydalilik darajalarining yuqori bo'lishiga, qishloq infratuzilmasining yaxshilanishiga erishiladi. Zero, turizm daromadli soha ekanligi jahon amaliyotida o'z isbotini topgan. Ba'zi bir xorijiy mamlakatlarda agroturizm qishloq joylarni va qishloq xo'jaligini rivojlantirish va qo'shimcha daromad manbai bo'lib qolmoqda²²

XULOSA

Yuqorida yuritilgan fikrlarni jamlagan holda, agro soha iqtisodiyot uchun juda katta foyda olib keladi, ammo undagi muammolar hal qilinmasa, soha O'zbekiston iqtisodiyotida ulkan foyda olib kelolmaydi. Agro sohani rivojlantirish barobarida mamlakat infratuzilmasi, agroturizmni rivojlantirish uchun yetarli sharoitlarni yarata oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. D.A.Nazarova, Sh.S.Yusubova Agroturizmni hududiy tashkil etishning tamoyillari, rivojlanish modellari va ulardan amaliyotda foydalanish.

²¹ D.A.Nazarova, Sh.S.Yusubova Agroturizmni hududiy tashkil etishning tamoyillari, rivojlanish modellari va ulardan amaliyotda foydalanish. Ijodkor o'qituvchi ilmiy-amaliy jurnali. T.2021

²² S.N.Abdurahimov. Mamlakatda agroturizmni rivojlantirishda investitsiyalarni o'rni. "O'zbekistonda "Aqlli qishloq xo'jaligi" va "Qishloq xo'jaligi-4.0" konsepsiyalarini amalga oshirish: muammo va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani. T.2021





2. S.N.Abdurahimov. Mamlakatda agroturizmni rivojlantirishda investitsiyalarni o'рни. "O'zbekistonda "Aqlli qishloq xo'jaligi" va "Qishloq xo'jaligi-4.0" konsepsiyalarini amalga oshirish: muammo va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani. T.2021

3. I.Sh.Egamberdiyeva, "Ekoturizm", 25-bet, Toshkent-2021

4. R.Xaitboyev, Ekologik Turizm

5. M.A.Boltaboyev, I.S.Tuxliyev, B.SH.Safarov, S.A.Abduxamidov. Turizm: nazariya va amaliyot. 2018

6. Xursanova, S. A., & Turayev, B. E. (2024). Hudud dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini trend modellari yordamida prognozlashtirish. *Technical science research in Uzbekistan*, 2(2), 200-208.

7. Khurramov, E. X. (2019). Role of innovation in increasing efficiency of production of agricultural products in forestry. *Theoretical & Applied Science*, (10), 518-521.

8. Алтиев, А. С., Очилов, И. С., & Султонов, Х. Ф. (2021). Global experiences in improving the economic mechanisms of irrigated land improvement. *Экономика и социум*, (6-1), 418-426.

9. Xudoyberdievich, X. E. (2023). Qishloq xo'jaligidagi asosiy vositalarni takomillashtirish va ularning iqtisodiy jarayonlari. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 6(4), 1093-1096.


10. Xudoyberdievich, X. E. (2023). Qishloq xo'jaligida iqtisodiy kontsentratsiyaning roli. *Ijodkor o'qituvchi*, 3(29), 466-470.

11. Xudoyberdiyevich, X. E. (2023). Qishloq xo'jaligida investitsiya va uning samaradorligini oshirish. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 622-627.

12. Khurrama, E. X. (2020). Эффективное увеличение сельскохозяйственного производства на землях лесного фонда. *Theoretical & Applied Science*, (7), 5-9.

13. Sultonov, X. G. (2022). Effectiveness of attracting investments in improving the ecological condition of irrigated lands. *Экономика и социум*, (4-1 (95)), 56-60.

14. Алтиев, А. С., Очилов, И. С., & Султонов, Х. Ф. (2021). Суғориладиган ерлар экологик ходатини яхшилашнинг иктисодий механизмини такомиллаштиришда жаҳон тажрибалари. *Экономика и социум*, (6-1 (85)), 418-426.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

15. Алтиев, А. С., Очилов, И. С., & Султонов, Х. Ф. (2021). Global experiences in improving the economic mechanisms of irrigated land improvement. *Экономика и социум*, (6-1), 418-426.


16. Ibragimov, A., & Sulstonov, X. (2019). Bioecology rare species and extinction of the surkhan state natural reservoir. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(2), 77-81.

17. Нормуратов, О. У., Султонов, Х. Г., & Турсунова, Ш. Г. (2017). Влияние различных норм минеральных и органических удобрений на динамику питательных элементов почв и их вынос хлопчатником. *In international innovation research* (pp. 119-123).

18. <https://kun.uz/>

19. <https://yuz.uz>

20. <https://qalampir.uz>





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK PALATASI VA SENATI O‘RTASIDAGI KELISHMOVCHILIKNI BARTARAF ETISH TARTIBI

Sobirov Sardorbek Bahodir o‘g‘li

Toshkent Davlat Yuridik universiteti, Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-bosqich talabasi

sardorsobirov120502@gmail.com

Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o‘g‘li

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi hamda Senati o‘rtasida qonun loyahasini qabul qilish yoki boshqa protseduraviy kelishmovchiliklar ortidan yuzaga kelgan ziddiyatlar, oqibatlar va uni bartaraf etish tartibi haqida to‘liq yoritadi. Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senati o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik asosan qonun qabul qilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lganligi sabab ushbu jarayonni to‘liq yoritishga qaror qilindi.


Kalit so‘zlar: Qonun loyhasi, yuridik kuch, protsedura, kelishuv komissiyasi, Qonunchilik palatasi devoni, Senat devoni.

ANNOTATION:

This article fully covers the conflicts, consequences and the procedure for their elimination after the adoption of a draft law or other procedural disagreements between the Legislative Chamber and the Senate of the Republic of Uzbekistan. Since the possible disagreement between the Legislative Chamber and the Senate of the Oliy Majlis is mainly related to the process of adopting the law, it was decided to fully cover this process.

Key words: The draft law, legal force, procedure, agreement commission, office of the Legislative Chamber, office of the Senate.

Demokratiyamizning yorqin namunasi bo‘lib turgan Konstitutsiya 2023-yil 30-aprelda yangilangan holda qayta qabul qilindi va tabiiyki undagi o‘zgarishlar va yangilanishlar anchagina bisyor. Shuningdek, Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan qonun loyihalari va uni qabul qilish protseduralarida ham yangi islohotlardan boxabar bo‘lishimiz mumkin. Avvalgi Konstitutsiyaning 84-moddasida





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senati tomonidan qonun loyihasining qabul qilinishi haqida quyidagicha so‘z boradi, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasiga qonun tashabusi subyektlari yohud o‘zining tashabbusi orqali kiritilgan qonun loyihasi qabul qilingach o‘n kundan kechiktirmay Oliy Majlis Senatiga yuborilishi va u tomonidan ma’qullangan va qabul qilingan qonun liyihasi o‘n kundan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuborishi, so‘ng Prezident tomonidan qonun o‘ttiz kun ichida imzolaniib rasmiy manbalarda e’lon qilingach yuridik kuchga ega bo‘ladi. Ushbu jarayon Yangi Konstitutsiyada muddatlari o‘zgartirilgan holda keltirildi. Ya’ni, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi tasdiqlagan qonun loyihasi Senatga uni ko‘rib chiqishi va ma’qullashi uchun oltmish kun va qabul qilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kun muddat ichida taqdim etishi belgilandi. Oliy Majlis Senatiga qonun loyihasini ko‘rib chiqishi va ma’qullashi uchun muddat berilishi mavjud bo‘lgan vakolat oid ish hajmining ko‘pligi bilan bog‘liq deb aytish mumkin. Chunki, Qonunchilik Palatasi qonun liyihasi qabul qilgunga qadar uni muhokama qilishi va kamchiliklari bo‘lgan taqdirda to‘g‘irlashi uchun vaqt bo‘lgani kabi Senatga ham ma’lum muddat berish lozim deb topildi. Senat tomonidan ma’qullangan qonun Oliy majlis tomonidan ma’qullangan deb topiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kundan kechiktirmay yuboriladi va Prezident qonunni oltmish kun ichida imzolaydi va e’lon qiladi.²³

Qonun qabul qilish jarayonida Qonunchilik Palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan rad etilsa, qonun Qonunchilik Palatasiga qaytariladi. Qaytgan qonun Qonunchilik palatasi deputatlarining umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik tomonidan ma’qullansa, qonun loyihasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan deb hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi. Bundan tashqari, Qonunchilik Palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan qonun beldilangan muddat ichida ma’qullanmagan yoki rad etilmagan bo‘lsa qonun Qonunchilik Palatasi tomonidan Prezidentga jo‘natiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o‘z e’tirozlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari

²³ 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 84-moddasi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak.²⁴ Bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining 08.11.2005 yildagi 152-I, 112-I-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining kelishuv komissiyasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi joriy etilgan. Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi (30-31-moddalar), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi (25-modda) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlari, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi (16-modda), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi (11-12-moddalar) O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti (137—144-moddalar) va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamentiga (28-modda) muvofiq ishlab chiqiladi. Unga ko'ra, Senatning qonunni rad etish to'g'risidagi qarorida rad etish vajlari ko'rsatilishi kerak. Unda bir vaqtning o'zida qonunga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish zarurligi to'g'risidagi, shuningdek Senatdan kelishuv komissiyasiga a'zo etib saylangan senatorlarning familiyalarini aniq ko'rsatgan holda kelishuv komissiyasini tuzish haqidagi takliflar bayon etilishi mumkin. Senatning qonunni rad etish to'g'risidagi qarori mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida Qonunchilik palatasiga yuboriladi. Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Senat va Qonunchilik palatasi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Senat a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Kelishuv komissiyasi tarkibiga nomzodlar yuzasidan Senat Raisi va Qonunchilik palatasining

²⁴1992-yil 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 99-moddasi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Spikeri tomonidan o‘zaro maslahatlashuvlar o‘tkaziladi. Kelishuv komissiyasining majlislari komissiya a‘zolarining xohishiga ko‘ra Qonunchilik palatasida yoki Senatda o‘tkaziladi. Kelishuv komissiyasining ishini tashkiliy, axborot, hujjatlashtirish jihatidan va boshqacha tarzda ta‘minlash komissiya qayerda ishlashiga qarab, tegishincha Qonunchilik palatasi Devoni yoki Senat Devoni tomonidan amalga oshiriladi. Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning har bir e‘tirozini alohida-alohida ko‘rib chiqadi. Kelishuv komissiyasi qonunning Senat e‘tiroz bildirmagan ayrim moddalari tahririni o‘zgartirish to‘g‘risida, agar bunday o‘zgartirishni Senatning takliflari asosida ishlab chiqilgan qonun moddalarining tahriri taqozo etadigan bo‘lsa, qaror qabul qilishga haqli. Kelishuv komissiyasi ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni o‘z ichiga olgan xulosa qabul qilinadi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi to‘g‘tisidagi qonun 30-moddasi).

Qonunchilik palatasi bilan Senat o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda, Qonunchilik palatasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida tarqatib yuborilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joziki, har bir huquqiy ijtimoiy davlat o‘z ichki muammolarini xatto oliy davlat organlari ichida yuz bergan kelishmovchiliklarni qonun yo‘li va huquqiy tartibda yechim bera olishi davlat boshqaruvining irodaviy qobiliyatidan bir namuna bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.T.Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. (darslik) – T.:“Yuridik adabiyotlar publish”.,2022-yil. 279-285-betlar
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Toshkent-2013., 22-b
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Tartibi, 08.11.2005 yildagi 152-I-son;
5. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis to‘g‘risida”gi qonuni.





**SURXONDARYO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR
ZIYORATGOHLAR
ЗНАЧИТЕЛЬНЫЕ ПАЛОМНИЧЕСТВА В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ
ОБЛАСТИ
NOTABLE PILGRIMAGES IN SURKHANDARYA REGION**

Nazarova Shahnoza

Termiz Davlat Universiteti

Khurshidovna123@gmail.com

Ashurov Jaloliddin

TERDU o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan diqqatga sazovor ziyoratgohlarning siz bilmaga beshtasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Murchbobo maqbarasi, Zulkifl maqbarasi, Said Vaqqos maqbarasi, Said Otaliq madrasasi, Xo'ja Xasan Ilg'or maqbarasi.

Аннотация: В статье рассказывается о пяти примечательных святынях, расположенных на территории Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: мавзолей Мурчбобо, мавзолей Зулкифль, мавзолей Саида Ваккаса, медресе Саида Аталика, мавзолей Ходжи Хасана Ильгора.

Annotation: The article talks about five notable shrines located in the Surkhandarya region.

Key words: Murchbobo mausoleum, Zulkifl mausoleum, Said Waqqas mausoleum, Said Ataliq madrasa, Khoja Hassan Ilgor mausoleum.

O'zbekistonning qoq markazida joylashgan Surxondaryo viloyati boy tarix, jo'shqin madaniyat va hayratlanarli manzaralarga boy hududdir. O'tmishga kirish eshigi bo'lib xizmat qiladigan ko'plab diqqatni tortuvchi ob'ektlarning uyi bo'lgan bu mintaqa tashrif buyuruvchilar va mahalliy aholi uchun boy tajribalar hazinasiga ega. Surxondaryo viloyati qadimiy me'moriy mo'jizalardan tortib, zamon sinovidan o'tgan an'anaviy urf-odatlargacha bo'lgan meros va innovatsiyalarning erish qozonidir. Ushbu maqolada biz ushbu diqqatni tortadigan ob'ektlarning ahamiyatini, tarixini o'rganamiz.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Surxondaryo viloyatini chinakam maftunkor manzilga aylantiruvchi yashirin marvaridlar va aytilmagan hikoyalarni kashf qilish uchun biz bilan sayohatga qo'shiling. Keling, Surxondaryoning eng diqqatga sazovor joylarining hayajonli olami bilan tanishaylik.

Murchbobo Maqbarasi – Asl ismlari shayx Said Vali bo'lgan Samarqandlik savdogar 1874- yilda haj amalini ado etib, kichik yoshli o'g'li bilan Afg'oniston (Balx shahri) orqali o'z vataniga qaytayotib termizga keladi. O'shanda Termiz atrofi qumzor bo'lgan Pattakesar degan joyda bo'lgan. Pattakesar qaroqchi-o'g'rilari savdogar Said Valining qarshisidan chiqadi. Uning belbog'iga boylangan hamyonida pul bor deb o'ylab uni o'dirishadi. Qo'rquvdan daxshatga tushgan baqirib qocha boshlaydi. O'g'rilar uni ham tutib olib o'dirishadi. Belbog'dagi hamyonga qarashsa pul emas, qora murch bo'adi. O'g'rilar murch urug'ini tashlab yuborib, savdogar va uning o'g'lini o'sha yerga ko'mishadi va yerni tekislab qo'yishadi. Faqat belgi sifatida qabr ustiga tayoq qoyib oq mato boylab qo'yishadi. Keyinchalik qabr ustiga murch daraxtlari o'sib chiqadi. Karvonlarga yo'l ko'rsatuvchi, o'sha zamonlarda shubxali yo'l bilan boyib ketgan, keyinchalik katta savdogarga aylangan Termizlik Imom Aliboy 1916-yilda o'z mollariga omborxonaga qurdirish uchun Said Vali va O'g'li shaxid bo'gan joyni tanlaydi va murch daraxtini kestirib qurilishni boshlaydi. Imom Aliboyga bu shaxid joyligi haqida aytishsa ham, bunga etibor bermaydi. Qurilish vaqtida Imom Aliboyga ishchilari odam suyagi qoldiqlari chiqayotganligi haqida xabar berishadi. Bu holatni ko'rgan Aliboy qo'rquvdan falaj oladi. Imomali boy kasalini davolasg uchun bir qancha muvolaja oladi, biroq bu kasallikdan turib ketish og'ir kechadi. Oxir oqibat Imom Aliboy o'z hisobidan ustalarni chorlab shayx qabri ustida maqbara qurdiradi, shayx qabrlari ustiga yana murch daraxti o'sib chiqadi va bu daraxt hozirda ham mavjud. Keyin shayx hazratlari o'zining kim ekanligini boyning tushida ayon qiladi, bu voqealardan keyin Imom Aliboy ko'p o'tmay olamdan o'tadi. 1980-yillarda maqbara Surxondaryo ulug' siymolardan biri diniy arbob Naqshbandiya tariqatining bilimdoni minglab odamlarning piru raxnamosi bo'lan el-yurt ardoqlagan inson Shayx Toshbolta Abdulfafiz xoji xazratlari tomonidan qayta tamirlangan. Ushbu maqbara Termiz shahridan 4,0 km uzoqlikda joylashgan.

Zulkifl Maqbarasi – Termiz yaqinidagi me'moriy yodgorliklar (XI-XII asrlar) Rivoyat qilinishicha, bu yerga Qur'oni karimda tilga olingan 25 payg'ambarlardan biri Zulkifl payg'ambar dafn etilgan. Zulkifl miloddan avvalgi VII-IV asrlarda yashab






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

o'tgan tarixiy shaxs hisoblanadi. Uning qabri Iroqning Kifl shahrida joylashgan, G'aznaviylar davrida Zulkifl qabri orolga ko'chirib keltirilgan va maqbara hamda masjid barpo etilgan. Tarixiy manbalarda 992-993-yillarda vafot etgan abbosiylarning atoqli lashkarboshilaridan biri Is'hoq Ibn Qunaja ham shu yerda dafn etilgani qayd etilgan. Amudaryodagi payg'ambar orolinig janubiy qismida joylashgan masjid go'rxoha va ularga tutash ikki xonadan iborat. Binolar turli davlarda bunyod etilgan. Masjid murabba tarxli, gumbazli, oldi peshtoqli bo'lib mehrobiga ganchkor girih naqshlar ishlangan. Go'rxona masjid sathidan 1m gacha baland qilib qurilgan, unda sag'ana saqlangan. Go'rxonaning ikki eshigi orqali tutash qurilgan ikki xonaga o'tiladi. Xonalar devoriga g'ishtlar mavjli shaklda terilgan. Ushbu maqbara Eski Termiz shahrida joylashgan bo'lib, Termiz shahridan 16,1 km uzoqlikda joylashgan.

Rivoyatga ko'ra, Amudaryoning narigi sohilida yashagan payg'ambar sifat bir kishi vafoti oldidan o'z muridlariga vasiyat qiladi. Vasiyatda "o'lsam tobutimni Amudaryoga oqizinglar. Tobutim qayrda to'xtasa, o'sha yerga dafn qilinglar" deydi. U shayx vafotidan so'ng, uning shogirdlari vasiyatini bajarib, tobutni daryoga oqizadi. Allohning inoyati ila Amudaryoning suvi qanchalar sersuv va tez oqishiga qaramay, tobut suvga qarama-qarshi oqa boshlaydi. Bundan hayratlangan muridlar tobutni daryo yoqalab kuzatib borishadi. Amudaryo daryosi ikkiga bo'linib, hosil bo'lgan orolchaga yaqinlashgach tobut shu joyda to'xtaydi va vahiy keladi "yuqorida ul zot yotibdiki, hatto tobutim ham ul zotdan xatlab o'tolmaydi". Bu Hakim at-Termiziyga nisbatan kelgan vahiy edi. Tobut o'sha orolchaga dafn etilgach, mahalliy aholi tomonidan ushbu orol "Payg'ambar o'roli" deb yuritila boshlanadi.

Said Baqqos maqbarasi – Maqbara Sherobod Tumanida joylashgan bo'lib Termiz shahridan 61,4 km uzoqlikda joylashgan. Said Vaqqos asl ismlari Axmad ibn Abu Said Vaqqos Termiziy. Bu olimning tug'ilish va vafot etish yillari hamda ijodiy faoliyati haqida malumotlar mavjud emas. U kishi xazrat Imom Abu Iso at -Termiziy yashagan Bug' qishlog'i yaqinida dafn etilgan. Imom termiziy kabi termizlik sayyidlar xonadonidan bo'lgani taxmin etiladi. Olimlar fikricha, Sheroboddagi Abdulloh Said Vaqqos maqbarasi XI-XII asrlarda barpo etilgan. Demak, Abdulloh Said Vaqqos Termiziy bundan ancha oldinroq yashagan. U kishining "Taqdir ul-bashar" nomli asari bo'lgan.

Said otaliq madrasasi – Denov tumanida joylashgan bo'lib termiz shahridan 143,2 km uzoqlikda joylashgan. Madrasa XVI asrning eng katta madrasalaridan biridir.






Qur'on suralariga monand 114 ta hujradan iborat qilib qurilgan ikki qavatli inshoot. XVII asr geografi Maxmud ibn Valining yozishicha Denov o'sha davrda katta shahar bo'lganligi uning mustaxkam qal'asi, juda yaxshi bozori, katta madrasa va xonaqohi bo'lganligini yozib qoldirgan. Mahalliy aholi madrasani bundan 200-300 yil avval Said Otaliq nomli inson buyurtmasi asosida bunyod etilganligini aytishadi. Bazi xabarlarga ko'ra madrasa Naqshbandiya tariqatining arboblardan biri Xoja Alouddin Attorga atab u kishining avlodlari tomonidan 26 yil davomida qurilgan. Qurilishda usta Ahmad Mamat Buxoriy rahbarlik qilgan. Aytilishicha, Naqshbandning kuyovlari bo'lib u kishining ikki xalifalaridan biri bo'lgan. Bu kishi dafn qabrlari hozir " Shayx Attor Baliy " yoki "Ostona buva " deyiladi. Madrasa qurilishi buyurtmachisi Said Otaliq ham Alouddin Attor avlodidan bo'lgan. Me'moriy tadqiqotlarga ko'ra poydevorning chuqurligi 5,5 metr. Madrasa shimoldan janubga tomon cho'zilgan, to'g'ri to'rtburchak tarhli (46x64 m), burchaklariga guldastalar ishlangan. Peshtog'ining ikki yon tomonida ikki qavatli uch ravoqli peshayvoni bor. Peshtog' orqali kiraverishda miyonsaroy gumbazi qalqonsimon qanotlarga, masjid va madrasaxona gumbazlari toqilarga tayangan. Hovli (40x29,5 m) atrofida oldi chuqur ravoqli, ikki qavatli hujralar joylashgan. Pastki qavatdagi hujralar hajmi 4,75x2,75 m. Va yuqoridagi hujralar jami 2,75x2,25 m., tomi va yuqoridagi hujralar hajmi 2,75x2,25 m., tomi balxi gumbazli. Peshtoqi va ichki xonalarida miyonsaroy ravoqlarida ganchkori bezaklar va ichki bo'rtma qobirg'asimon, muqarnas naqshlar saqlangan. Madrasa 1956-1960 va 1972-1973- yillarda ilmiy o'rganilib, loyiha asosida tamirlanmoqda.

Xo'ja Xasan Ilg'or – 582-650 yillarda yashab o'tgan payg'ambar saxobalaridan biri. Ul zot Islomni targ'ib qilishda katta kuch sarflagan. Islom ilmining bilimdonlaridan biri sifatida bir qancha janglarda Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimizga yordam bergan, o'ta dovyurakligi va botirligi tufayli u janglarda jasorat ko'rsatgan. Xotirasi kuchli bo'lib, har qanday malumotni yodida saqlab qola olgan. Islomga oid risolalar ham bitgan. Shuning uchun unga Xo'ja Xasan yoniga Ilg'oriy degan tahallus berilgan.

Rivoyatga ko'ra, Xazrati Ali Ibn Abu Tolib O'rta Osiyo xalqlarini zabt etish va uni islom diniga kiritish uchun qattiq janglar olib borgan kezlarda, oradan 1 yil o'tsa ham Alidan darak bo'lmagan. Shunda payg'ambarimiz ko'zlariga yosh olib, uni o'lik tirikligini ham bilmadik deb saxobalariga gapirganlar. Shunda Xo'ja Xasan Ilg'oriy payg'ambarimizga ta'zimqilib, xazrati Alidan xabar olib kelish uchun yo'lga chiqishga






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ruxsat so'raydi. U Alini qidirib topib, u bilan birga jang qiladi. Ammo u og'ir yaralanib, ziyoratgohda yotib qoladi. Qaytib ketishga ko'zi yetmagach bir kabutarni ushlab, unga noma bitib, Alining tirikligi haqida malumot beradi. Payg'ambarimiz nomani olib: "Biz uchun begona yurtlarda hoking qoldi. Iloho ziyoratgohga aylansin" deb duo qiladilar. Ana shundan keyin bu manzil ziyoratgohning asl nomi Xo'ja Xasan Ilg'oriy bo'lsada xalq xabar etkazgan kabutar nomini ham qo'shib aytadigan bo'lishgan. Keyinchalik bu joy kaptarxona ziyoratgohi deb atalib ketgan. Bu yeda ikki qabr bor bo'lib birinchisi Xo'ja Xasan Ilg'oriyga tegishli, uning uzunligi 3-4 metr, eni 2 metr, balandligi 1,5 metrni tashkil etadi. Qabrning tepasida tog' echkisi yoki kiyik shoxi qo'yilgan. Ikki shox o'rtasida o'sha qora tosh joylashtirilgan. Qabr oldiga kichkina eshikcha bo'lib, ostiga tuproq colingan. Ziyorchilar o'sha tuproqdan olib yaralariga malham qiladilar. Ikkinchi qabr Xalifaga tegishli bo'lib, birinchi qabrdek o'rnatilgan. Hajm jihatdan birinchi qabrdan ancha kichik. Ziyoratchilarning aytishicha, shu loy qurib bitguncha yara ham tuzalib ketadi. Ziyoratgoh boshiga 2ta tut daraxti bor. Ikkisi ham ikki tomonga shoxlagan. Kimki qo'rqqan bo'lsa yoki chilla tushgan bo'lsa, mana shu tutni uch marta ziyorat qilib uch marta orasini aylanib, Qur'on oyatlaridan tilovat qilib o'ziga najot izlasa topadi. Bu tutlarning ekilgani 1100-1200 yil deb taxmin qilinadi. Ziyoratgoh tuprog'i asosan turli yaralar, teri kasalliklari, pes va boshqa yaralarga davodir. Chin ixlos qilib, har qanday yaraga tuproq loylaridan surtsalar u tuzalmay qolmaydi va albatta shifo bo'ladi. Kimda-kim surunkali yara, qo'tir, so'gal, chipqon, toshma teri kasalligi bilan og'risa chilla tushgan bo'lsa, shu yerda davo topadi.

Surxondaryodagi har bir tajriba hayrat va kashfiyotlarga boy unutilmas sarguzasht bo'lishini va'da qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Surxondaryo viloyati har qanday sayohatchida unutilmas taassurot qoldirishi shubhasiz, o'ziga jalb etuvchi va diqqatni tortuvchi ob'ektlarga boy hududdir. Qadimgi megalitlardan tortib go'zal tog'largacha, bu hudud o'z mo'jizalarini kashf qilishni xohlaydiganlar uchun boy tajribalarni taqdim etadi. Shunday ekan, sumkalarizingizni yig'ing, kashfiyotlar safariga chiqing va Surxondaryoning yashirin xazinalaridan hayratlanishga tayyorlaning.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Surxondaryo viloyat Turiz Boshqarmasi malumotlaridan foydalanildi.





УДК 677.061.9:677.494.745.001.57

**ПАХТА ТОЛАСИНИ МОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИНГАН НИТРОН
ТОЛАСИГА АРАЛАШТИРИБ ЙИГИРИЛГАН ИПЛАРНИНГ БИР
ДАВРЛИ ДЕФОРМАЦИЯСИ
ОДНОЦИКЛОВАЯ ДЕФОРМАЦИЯ ПРЯЖИ, СМЕШАННОЙ С
ХЛОПКОВЫМ ВОЛОКНОМ, МОДИФИЦИРОВАННЫМ
НИТРОНОВЫМ ВОЛОКНОМ
SINGLE CYCLE DEFORMATION OF YARN WHICH IS MIXED WITH
COTTON FIBER MODIFIED NITRONE FIBER**

U.B.Rajarova

«Тўқимачилик материалшунослиги» кафедраси доценти, ТТЕСИ

A.O.Erkinov

«Тўқимачилик материалшунослиги» кафедраси 2-босқич талабаси, ТТЕСИ

A.A.Bahromova

«Тўқимачилик материалшунослиги» кафедраси 2-босқич талабаси, ТТЕСИ

Ушбу мақолада модификация қилинган нитрон толасига пахта толасини маълум улушларда аралаштириб йиғирилган ипларнинг 1 даврли чўзилиш деформациясида олинган кўрсаткичлари таҳлил қилинган.

В статье рассматриваются результаты исследования одноциклового характеристики при растяжений смесовой пряжи хлопка с модифицированным нитроном.

The article discusses the results of a study of the single-cycle tensile characteristics of blended cotton yarn with modified nitron.

нитрон толаси, гигроскопик хусусият, кийим-кечак, тола
нитроновое волокно, гигроскопичность, одежда, волокно

nitron fiber, hygroscopic property, clothing, fiber

Маълумки, нитрон толасининг гигроскопик хусусиятлари жуда паст. Шунинг учун ундан кийим-кечак маҳсулотлари ишлаб чиқариш имкониятлари чегараланган эди. “Толали материаллар ва қоғоз кимёвий технологияси ва дизайни” кафедрасида юқори частотали нурланиш таъсирида табиий ипак





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

чиқиндиларини эритиш технологияси ишлаб чиқилди ва шу технология орқали нитрон толасини табиий ипак чиқиндилари билан модификациялаб, толанинг гигроскопик хусусиятларини яхшилашга эришилди [1]. Бизнинг олдимизга қўйган мақсадимиз, модификация қилинган нитрон толасига пахта толасини маълум улушларда аралаштириб йиғирилган ипларнинг бир даврли чўзилиш деформациясида олинган кўрсаткичларни ўрганишдан иборат. Ушбу ипларнинг ярим даврли чўзилиш деформациясида олинган кўрсаткичлари олдинги мақолада [3] берилган.

Адабиётлардан [2] маълумки, нитрон толасининг эластиклик хусусиятлари пахта толасининг эластиклик хусусиятларидан юқори. Лекин нитрон толаси модификациялангандан кейин эластиклик хусусиятлари сақланиб қоладими ёки ўзгарадими? Ушбу ҳолатни ўрганиш учун икки хил толалардан, яъни пахта ва модификацияланган нитрон толаларидан иплар олинди. Ипларни “Пахтасаноат” илмий марказидаги “Шерли” экспресс лаборатория ускунасида чизикли зичлиги 18,5 текс бўлган иплар йиғириб олинди.

Синов ишлари учун олти вариант иплар йиғириб олинди. Шундан урта вариантда модификацияланган нитрон ҳар хил фоизда пахта толаси билан аралаштирилган, яъни М10/90, М30/70, М60/40 ва урта вариантда пахта толасига модификация қилинмаган нитрон толаси қўшилган, яъни 10/90, 30/70, 60/40 (касрнинг сурати нитрон ва махражи пахта толасининг фоиздаги улушини билдиради). Синов ишлари учун танланган вариантларнинг ярим даврли чўзилиш деформацияда олинган кўрсаткичлари бир-бирига яқин ва улар амалий ишларда фойдаланиш учун тавсия этилган [3].

Бир даврли чўзилиш деформацияда олинган тўлиқ деформацияни проф. Г.Н.Кукин урта қисмга бўлиб, таҳлил қилишни тавсия этади.

1. Шартли қайишқоқ деформация
2. Шартли эластик деформация
3. Шартли пластик ёки қолдиқ деформация.

Бу деформациялар бир вақтда ўтади. Лекин уларнинг тезлиги ҳар хил. Шартли қайишқоқ деформациянинг тезлигини товуш тезлиги билан таққослашади. Амалий ишларда қайишқоқ деформация қисми учун бошланғич 5 секунддаги деформация олинади. Шартли эластик деформация қисми учун 1-3



соат дам олишдан кейинги қайтиш деформация миқдори олинади. Пластик деформацияга эса, намунанинг узайиб қолган қисми киради.

Намуна ипларнинг бир даврли чўзилиш деформациясида олинadиган кўрсаткичлари “Тўқимачилик материалшунослиги” кафедрасида “Стойка” асбобида аниқланди.


Синов лабораториясида ҳавонинг меъёрий шароити яратилди. “Стойка” асбобига ипнинг бир учи маҳкамланса, ипнинг иккинчи учига статик юк осилди. Статик юкнинг миқдори ипнинг пишиқлигидан 25 фоиз деб олинди.

Тажрибада режалаштирилган 6 соат вақт ичида ипнинг юк таъсирида узайиш ва юкдан кейин қисқариши асбобдаги шкаладан ёзиб олинди.


Маълум бўлган формулалар билан тезлик деформациясининг қисмлари фоизларда ёки улушларда ҳисобланади.


Тажрибада олинган натижалар бўйича намуна ипларнинг бир даврли чўзилиш деформациясидаги релаксация диаграммаси берилган.

1-расм




2-расм






3-расм



Намуна ишларнинг чўзилишдаги тўлиқ деформациянинг таркиби бўйича улушлари қуйидаги жадвалда келтирилган.

1-жадвал





Т/р	Вариантлар	Тўлиқ деформация, мм	Тўлиқ деформация таркибини улуши			Улушлар йиғиндиси
			Қайишқоқ, $r_{\text{қ}}$	Эластик, $r_{\text{э}}$	Пластик, $r_{\text{п}}$	
1	M10/90	19,0	0,16	0,34	0,47	1,0
2	M30/70	17,0	0,18	0,41	0,41	1,0
3	M60/40	16,0	0,37	0,44	0,19	1,0
4	10/90	20,0	0,25	0,25	0,50	1,0
5	30/70	18,0	0,28	0,33	0,39	1,0
6	60/40	17,0	0,41	0,35	0,24	1,0

1-жадвалдан маълумки, бир даврли чўзилиш деформацияда олинадиган кўрсаткичларга, яъни тўлиқ чўзилиш деформациянинг таркибига нитрон толасини модификациялаш салбий таъсир қилмайди. Чунки маълум фоизда нитрон аралашган ипларнинг тўлиқ деформациясининг таркибидаги улушлар бир-бирига яқин.

Қилинган ишлар ва олинган натижалардан қуйидагилар хулоса қилинди:

1. Модификацияланган нитрон ва пахта аралашмасидан йигирилган ипларнинг бир даврли чўзилиш деформацияда олинадиган кўрсаткичлари модификация қилинмаган ип кўрсаткичларига ўхшаш, яъни нитрон толасини модификациялаш салбий таъсир кўрсатмайди.


2. Аралашма ипларда нитрон толасининг фоиз миқдори ошиши билан қайтадиган деформациялар улуши ошади. Бу хусусият кийим-кечак маҳсулотлари учун ижобий кўрсаткич ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. И.А.Набиева. Модификация волокно нитрон отходами натурального шелка и разработка технологии отделки смесовых материалов на его основе. //Диссертация на соискание ученой степени доктора технических наук. 2010 г.

2. Г.Н.Кукин, А.Н.Соловьев. Текстильное материаловедение. II. 1989 г.

3. Ражапова У.Б. ва бошқалар. Модификация қилинган нитрон толасини пахта билан аралаштириб йигирилган ипларнинг механикавий кўрсаткичларини тадқиқоти. //Ж. Тўқимачилик муаммолари. 2011 й.



**Men yoqtirgan adib****Мой любимый писатель****My favorite writer****Muallif: Saitqulova O`g`iloy Zokir qizi**

Ta`lim muassasasi: Termiz davlat universiteti

Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi.

Annatsiya: o`zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo`shgan Shukur Xolmirzayev- yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan o`zbek xalqi ma`naviyatining yuksalishida o`ziga xos o`ringa ega. Shukur Xolmirzayev qissa, hikoya va romanlari yosh-u qari sevib o`qiydigan asarlardir, shu o`rinda, yozuvchining barcha asarlarini sevib o`qiyman. Ayniqsa "Ustoz" hikoyasi juda ibratli bo`lib, maqolada keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: ustoz, shogird, asar, yozuvchi, talant, siyosat.

Аннотация: Шукур Холмирзаев, внесший большой вклад в развитие узбекской литературы, занимает особое место в развитии духовности узбекского народа своей уникальной прозой, созданной с высоким художественным мастерством. Рассказы, повести и романы Шукура Холмирзаева любят и молодые, и старые, и я с удовольствием читаю все произведения писателя. Тем более история «Учителя» очень поучительна и упомянута в статье.

Ключевые слова: учитель, ученик, труд, писатель, талант, политика.

Annotation: Shukur Kholmirzayev, who made a great contribution to the development of Uzbek literature, has a special place in the development of the spirituality of the Uzbek people with his unique prose created with high artistic skills. Shukur Kholmirzayev's short stories, stories and novels are loved by young and old, and I love reading all the writer's works. Especially the story of "Teacher" is very instructive and is mentioned in the article.

Key words: teacher, student, work, writer, talent, politics.

Har bir insonning o`zi sevib o`qiydigan asarlari bo`lganidek, mening ham o`qigan bo`lsamda yana qayta-qayta o`qiydigan asarlarimdan biri Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub "Ustoz" hikoyasidir.

Men yoqtirgan adiblardan biri – O`zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Shukur Xolmirzayev 1940-yil 24-mart kuni Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tavallud topgan. Sh. Xolmirzayevning dastlabki hikoya va ocherklari 1958 yildan nashr etila boshlagan. Sh. Xolmirzayev ijodining ilk davridayoq hikoya bilan bir qatorda qissa janrida ham qalam tebratib, „Oq otli“ (1962), „To‘lqinlar“ (1963), „Un sakkizga kirmagan kim bor?“ (1965) qissalarini yaratdi. Bu asarlar 60-yillardagi o‘zbek qissalarining eng yaxshi namunalaridan bo‘lib qoldi. Yozuvchining shu davrda yozgan hikoyalari keyinchalik „Olis yulduzlar ostida“ (1971), „Hayot abadiy“ (1974), „Og‘ir tosh ko‘chsa...“ (1980), „Yo‘llar, yo‘ldoshlar“ (1984), „Bodom qishda gulladi“ (1986), „Tog‘larga qor tushdi“ (1987) singari to‘plamlaridan o‘rin oldi. Sh. Xolmirzayevning hikoya va qissalarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o‘ziga xos romantikasi ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug‘ilib o‘sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o‘zgarishlar o‘zining badiiy talqinini topdi. Keyinchalik Boysun va boysunliklar hayoti Sh. Xolmirzayev ijodining asosiy mavzusi darajasiga ko‘tarilib, yozuvchi ijodida realistik tasvirning ustuvor yo‘nalishga aylanishida muhim omil bo‘ldi. Sh. Xolmirzayev voqelikdagi murakkab hayotiy jarayonlar va kishilarning ziddiyatlardan iborat ruhiy olamini kashf eta borgan sayin uning dastlabki hikoya va qissalaridagi romantik pafos endi o‘z o‘rnini realizmga bo‘shatib berdi va yozuvchining o‘zbek adabiyotiga „shafqatsiz realizm“ unsurlarini olib kirishiga imkoniyat yaratdi. XX asrning 80—90-yillarda yaratgan asarlarida mazkur davrdagi jamiyat va xalq hayotining chuqur badiiy tahlilini berdi. Sh.Xolmirzayev 1987-yili “Ustoz” hikoyasini yozadi. Ushbu hikoya haqida qancha aytisak ham bir o‘qiganga yetimidi, shu sababli hikoyani o‘zini o‘qishni tavsiya beraman...

Ustoz (hikoya)

Meni bilasan, birovdan til qisiq joyim yo‘q, hamma narsam bor: mashina, dacha; kitoblarim chiqib turibdi. Hamma unvonlarni olib bo‘ldim. Nimadan qo‘rqaman?.. Faqat ehtiyot bo‘lish kerak: odam og‘ziga ehtiyot bo‘lishi kerak. Til o‘lgur yomon: bejiz tilni «suyaksiz» demaydilar. Har xil gapni har kimning oldida gapiravermaslik kerak. To‘g‘ri endi, hozir rostgo‘ylik — modada. Ammo moda — o‘tkinchi. Siyosatning buqalamundan farqi yo‘qligini ko‘rganmiz-da...

Meni bir shogirdim bo‘lardi. Sen uni bilmaysan: asarlari chiqmadi. Eh, attang. Uziga o‘zi qildi. Keyin...





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Juda dangalchi edi-da. Eng «nozik» gaplarni ham bemalol gapiraverardi. Kattani — katta, kichikni — kichik demasdi. Ko‘ngliyam ochiq edi-da, ul bechoraning. Eh... Uning talanti! Yo‘q, mana, salkam yetmishga borib, adabiyotimizda unday talantni ko‘rgan emasman! Io‘q! Yozganda, shundoq ko‘z oldingga keltirib qo‘yardi. Tili! Biram obrazli de. Shunday detallar topardiki, og‘zim ochilib qolardi. Qahhordayam, Chexovdayam topolmaysan u topgan detallarni. Ko‘zi o‘tkir edi!

Boyoqish o‘ziam ancha qiynalib o‘sgan. Qilmagan hunari qolmagan. Hayotni yaxshi bilardi. Lekin hayotni bilgan, achchiq-chuchukni tatigan kishilar odatda kamsuqum, vazmin bo‘lishadi. U bo‘lsa... mag‘rur edi. Odamga tik qarasa, men ham qo‘rqib ketardim.

Bir kun Yozuvchilar uyushmasiga kirsam, kitob do‘koni oldida bir bola turibdi. Meni ko‘rib:

— Assalom alaykum, ustoz, — dedi.

Men hayron bo‘lmadim, uni qaerdadir bir ko‘rganimni esladim. Odatim shu-da, bolam, qaysi oblastga bormayin, yoshlarning boshini silayman.

— Keling, shogird, — dedim.


— Sizni so‘roqlab kelgan edim, — dedi u. — O‘sha uchrashuvdan keyin ko‘p vaqtlar o‘tib ketdi... To‘xtovsiz yozaver, mashq qilaver. O‘zingga ishon, degan edingiz... Mana, endi ishonib, bir-ikkita mashkdarni olib kelgan edim. Iloji bo‘lsa, shunga bir ko‘z yugurtirsangiz. Agar yoqmasa, mana shu axlat paqirga yirtib tashlayman.

Eshityapsanmi uning gapini?

Har qalay, uni «jinniboy» deyish ham mumkin edi. Darvish desang ham bo‘ladi. Bir hisobda yozuvchilar o‘zi — darvish xalq. Mana, men ham bir darvish bo‘lmasam, seni mashinangga tushib, shu yoqqa yo‘l olamanmi? Material yetmayaptimi menga? Yozuvchi uchun har qanday narsagayam bir qarash — kifoya. Qolganini o‘zi fantaziyasi bilan to‘ldirib olaveradi...

Bolaga qiziqqanimdan uning qo‘lyozmasini uyimga olib ketdim. Shu kecha: «Qani, nimani yozipti ekan?» deb varaqlay boshladim-u, uzilolmay qoldim.

U bir balo ekan: tasvirlaydigan narsasini shu qadar yaxshi biladiki! Lupa bilan qaraganmi deysan. Qahramonlarning dialogi. Ko‘tarilgan problemalarini aytmaysanmi!.. Ha, hech kimga o‘xshamaydigan bir talant edi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Kechasi bilan uxlolmadim. O'ylatadi-da... Lekin senga aytishim kerak: qaltis joylariyam ko'p. Masalan, bir joyda raykom sekretarini tanqid qiladi... Bilama-an, Markazqo'mning ko'ziga cho'p solib yurgan arboblardan xam bor! Ammo ularni adabiyotga olib kirib urish? Yo'q... Oddiy xo'jalik odamini ol: ana uni xoxdagancha tanqid qilaver. Shuning uchun men ko'proq peyzajga zo'r beraman, lirikaga zo'r beraman: bular beziyon mavzular. Qolaversa, umrboqiy mavzular. To'g'rimi? Ana shunday...

Ertasi vaqtli turib, uyushmaga kelsam, zinapoyada kiyshayib turibdi.

Salom yo'q-alik yo'q:

— Sizga yoqmasayam yirtib tashlamayman, ustoz, — dedi u. — O'ylab ko'rsam, ulardan ham tuzuk narsalar yozolar ekanman.

Men o'sha hikoyalar ta'sirida edim. Do'konchi ayol ham, qorovul ham shu yerda. Bolani shartta quchib o'pdim.

— Tabriklayman, o'g'lim. Sen allaqachon yozuvchi bo'libsam, — dedim.

U bir minutlar dirillab qoldi. Keyin:

— Rahmat, — dedi.

— Seni tushunibmanmi?

— Ha..

Bolani podvaldagi oshxonaga olib tushdim. Rangidan sezgan edim: maishatining mazasi yo'q. Ovqat olib berdim... Bilasan, men pulga sig'ingan odam emasman: ziqnalarni o'lgudek yomon ko'raman.

Bechora bola! Odobli-da, ovqatni oxirigacha yemadi. Chamamda, mening maqtovim bilan to'yib qolgan edi...


Keyin:

— Jur, redaksiyaga boramiz, — dedim.

Lo'mbillab yonimga tushdi. Sen ustozning bunday paytdagi holatini bilmaysanda: yonida shogirdi bo'lsa, tag'in talantli bo'lsa, o, undan quvonchli bayram yo'q uning uchun!

Shunday qilib, jurnalga bordik... Ha, o'sha jurnalga. Hikoyani kam beradi-yu, lekin beradi. Redaktori yo'q ekan, bo'limga opkirib, mudir bilan tanishtirdim. Hikoyalarini maqtadim. Lozim bo'lsa, «Oq yo'l» yozib beraman, dedim.

Bola xursand bo'lib ketdi... Xursandligi shunchalikki, hoziroq «mardikor bozori»ga borishini aytdi...





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Oradan uch-to'rt kun vaqt o'tdi. Bolaga telefonimni bergan edim. Qo'ng'iroq qilmadi. Bir kun yana uyushmaga kelsam, xuddi o'sha kitob do'koni oldida turibdi.

— Salom, ustoz! — dedi.

— Nega telefon qilmaysan?

— Xalaqit bergim kelmadi. Ishlayotgan bo'lsangiz... Ko'rdingmi uning odobini? Boya aytganimday dangal, o'lgudek mag'rur bola, tagan bunaqa andishali edi.

— Ha, nima yangilik bor? — dedim.

— Bosilarmish! — dedi u ko'zlari chaqnab. — Sizni so'rashayotgan edi.

— A, ketskik!

Tag'in uni mashinamga o'tqazib, redaksiyaga bordim. Bo'limga kirsak, hikoyalarni allaqachon tahrirdan chiqarib, mashinistkaga berishgan. Bolani tabrikladim.

Keyin o'zim redaktor kabinetiga kirdim... Uni bi-lasanmi? O'lgudek qo'rqq odam-da. Jurnalda bitta orfografik xato o'tib ketsa, sochini yuladi.

U ham bolaning hikoyalarini o'qigan ekan.

— Tabriklayman! Zo'r talant topibsanz-ku? — dedi.

— Topamiz-da, — dedim. — Talantlar seni redaksiyanga emas, redaksiyam bo'lmasayam menga keladi.

Keyin u bolaning qaerdan ekani, nima ish qilishi, xullas, rosa surishtirdi. Aytib berdim.

Yetimlar uyida o'sgan, universitetning filologiya fakultetiga kirolmagan. Sirdan jamiyatshunoslik bo'limida o'qirgan.


Xullas, u o'sha kuni redaksiyadan chiqqandan keyin nimalarni gapirib bergan bo'lsa, aytib berdim.

Keyin, redaktor mendan unga «Oq yo'l» yozib berishni so'radi.

— Jonim bilan yozib beraman! — dedim.

Lekin, uka, men o'zimni vijdonli odam deb hisoblayman. To'g'rimi? Unga qarshi borolmayman. Yo'q-yo'q... Xullas, redaktorga masalani yotig'i bilan tushuntirdim:

— Sen bermalol bosaver, — dedim. — Tanqidchilar bor, ular o'z hukmini chiqarishadi. Qo'rqadigan joyi yo'q... Lekin, ba'zi qaltis momentlar bor, — dedim. — Masalan, ayrim joylarda rahbar shaxslarga tegib ketgan. Raykom sekretarigayam... Demak, siyosatga!





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

He, yaramas! Rangi o‘chib ketsa bo‘ladimi? Aytdim-ku, o‘lgudek qo‘rqoq deb!

Lekin o‘sha paytda boshqa gap gapirmadi.

— Yaxshi, o‘ylab ko‘ramiz, — dedi.

Shu gapidan sal gumonsiragan edim. O‘ylaganimday bo‘lib chiqdi.

Hikoyalarni qoldiripti!

Ha.

Tag‘in bir kun bolani o‘sha kitob do‘koni oldida ko‘rdim. G‘amginlik bilan kuldi-da:

— Meni tushunishmadi, — dedi. — Niyatimni...

Redaktorni, — og‘aynim bo‘lsayam, — rosa so‘kdim: unga o‘xshagan kishilar talantga yo‘l berishmaydi, uka. Ba‘zan hayron bo‘lasan: shunday kishilarga matbuotning rulini berib qo‘yishadi.

— Xafa bo‘lma, boshqa bir ish qilamiz! — dedim. — Jur, mashinaga kir.

Mashinada nashriyotga borayotganimizda, boyoqish asta so‘radi:

— Rahbar ham odam-ku, a? Unda ham insoniy ojizliklar bo‘ladi-ku?

Nima, men unga «ojizliklar» — kamchiliklardir, ularni tuzat, yumshat, zamonaga boq, deyishim kerakmidi? Yo‘q, bu gapni mensiz ham aytishgan bo‘lsa kerak redaksiyada. Balki chiqib qolsa, keyin tanqidchilar aytishardi.

— Bo‘lganda qandoq! — dedim.

Yosh talantning darrov yo‘lini kesib, qo‘rqitib qo‘yishim mumkin. Talantni o‘z holiga qo‘yish kerak: ana shunda u bemalol o‘sadi. O‘zligini topadi: mening unga aytadigan har bir gapim — go‘yo mening yo‘limga tush deganim bo‘ladi.

Endi o‘ylab qarasam, uka, unga o‘sha paytda ochiq gapirsam bo‘lar ekan...

Lekin, uning qabul qilmasligini ham bilardim-da! Asarlaridan ko‘rinib turardi!

Hikoyalarni u chin e‘tiqodlan yozgan.

Birinchi kundagi bir gapini aytdim, shekilli:


«Hikoyalarim sizga yoqmasayam, yirtib tashlamayman!»

Tushunarli-da.

Mening vazifam — uni qanday bo‘lsa, shu holida chiqarish edi.

Buni adabiyotdagi demokratizm deyilar, bolam. Hech kim birovga o‘z fikrini o‘tkazmasligi kerak.

Nashriyotga bordik. Direktori — eski og‘aynim. Bolani to‘g‘ri uning oldiga olib kirdim. Rosa maqtadim.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

— Kitobi chiqsa, nashriyotingga obro‘ keltiradi, — dedim. — Buning ustiga, bitta talantni ochgan bo‘lasan!

Direktor mening gapimni ikki qiladimi?

— Bosh ustiga. Bitta retsenziyaga beramiz. Tamom. Planga kiritamiz. Qarabsizki, ikki yildan keyin kitobi chiqib turipti, — dedi.

— Bir yildan keyin, — dedim.

— Ha, bir «okno» ochilsa, tushirib yuboramiz, — dedi.

— Lozim bo‘lsa, «So‘zboshi» yozib beraman.

— Olam guliston!

Keyin, bolani chiqarib yubordimda, direktorga yotig‘i bilan tushuntirdim.

Nima, men rost gapni... O‘z e‘tiqodimni aytmasligim kerakmi?

Qolaversa, uka, uning mas‘uliyati — mening bo‘ynimda edi: asari chiqqandan keyin biron joyda gap qo‘zg‘alsa, men javob berishim kerak. Ustozning burchi bu...

Shuning uchun bu tomonini ham puxta qilishim ke-rak.

To‘g‘rimi?

— Mana shunday gaplar... Sal qaltis demasang, bunaqa hikoyalar yaratilmagan...

E, odamlar, odamlar!

Qo‘lyozmani olib ketib, direktorning o‘zi o‘qib chi-qipti-da, keyin retsenziyaga beribdi.

Retsenziyachilar ham har xil bo‘ladi, bolam. Ba‘zisi rahbarning qovog‘iga qarab turadi. Agar o‘sha asar haqida direktorningmi, bo‘lim mudiriningmi sal gumoni bo‘lsa, bas, «yaramaydi» deb retsenziya yozib keladi.

Ana shunday bir ablahning qo‘liga tushgan ekan: yo‘qqa chiqarib kelibdi.

Bola hikoyalarini olib ketganini eshitdim. Endi o‘zini surishtiraman de!

Hech yo‘qki — topilsa!

Senga o‘xshagan shogirdlar ko‘p-da, o‘g‘lim. Meni o‘zi yoshlar yaxshi ko‘radi.

Birigayam qattiq gapirmayman.


Nima uchun endi gapirishim kerak?

Uning yo‘lini o‘zgartirishim kerak?

Yo‘q!

Lekin, u bola...

Xullas, daragi o‘chib ketdi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Bir kuni de, uyushmaga kelsam, xat bor. Olsam, o‘shandan. Falon kasalxonada yotibman, siz bilan bir hasratlashgim keldi, ustoz, deb yozibdi. Tag‘in ming bir andisha... Sezdim: u bejiz meni yo‘qlamayapti. Uyimga telefon qilishdan cho‘chigan bola kasalxonaga chaqirib tursa!

Kun sovuq edi. Dekabr oyi edi-da. Avtoni surib haydab, bozorga bordim. Olma, nok xarid qildim. Ikkita issiq non. Bir qog‘oz xaltaga solib, kasalxonaga bordim.

Men u kasalxonada hech bo‘lmagan edim. Shaharning chekkasi. Aytgiligi yo‘q. Palatasiyam sassiq, tor, olti kishi yotibdi.

Osma ukol olayotgan ekan.

Rangida rang yo‘q.

Ko‘nglim buzilib ketdi:

— Nima bo‘ldi? — dedim.

— Jigarim shamollapti.

— Ko‘zing sariq emas-ku?

— Sarig‘i sirtga tepmapti.

Voy-voy, cho‘p bo‘lib qolgan ekan. Bir oz gaplashib o‘tirdim: shunda uning bolalari tashlab ketgan bir rus kampirning balkonida — ijaraga turishini bildim. Rosa urishdim.

Axir, menga ochig‘ini aytsa, men unga joy topib berolmasmidim? Ana shunaqa edi-da...

— Xo‘sh, mendan nima yordam kerak? — dedim. — Bu yer juda iflos-ku?

— Iflosligiyam mayli, — dedi u. — Lekin dorilar uzilib qolgan. Bu yilgi dori ado bo‘pti. Yanvardan berishar ekan. Shunga sal-pal... Bu yerda odamlarning qarindoshlari topib kelishyapti. Mening hech kimim yo‘q...

Dod deb yuborayozdim.


— Seni yaxshiroq kasalxonalardan biriga o‘tkazaman, — dedim.

Tashqariga chiqqach, vrachlar bilan sal aytishdim ham: bunaqa kasalxona-yu, undagi dori problemasini fantaziya qilib ham topolmaysan, axir. Juda g‘alatida...

Keyin yugur-yugur boshlandi: bilmadim, uning o‘z otasi bo‘lgandayam menchalik chopmasdi.

Chopgan bilan hech narsaga qo‘li yetmasdi.

Rayzdravga kirdim. Keyin oblzdravga kirdim. Gorzdravga kirdim. Qor, muz. Mashinamning balonlariyam dabdala bo‘ldi hisob. Ijodim qolib ketdi.





Ishqilib, shunga yordamim tegsin, deyman-da.
... Oxiri yo‘li topildi.
Hukumatga yaqin shifoxona bor edi. Kirib, o‘zimni tanishtirdim.
Juda yaxshi qabul qilishdi.
— Shunday-shunday... Bir shogirdimiz bor, ahvoli chatoq... — deb tushuntirdim.
Bosh vrach yaxshigina odam ko‘rindi.
— Xo‘p bo‘ladi. Bir og‘iz so‘zingiz... Telefon qildirmasdan to‘g‘ri opkelaversangiz bo‘lar ekan, — dedi. — Bizda zapas dorilar bor, yaxshi qarashamiz...
— Rahmat. Salomat bo‘ling!
U meni koridorga kuzatib chiqdi.
Xayrlashayotib... nima deb o‘ylaysan?.. Indamay ketishim kerakmidi?
Yo‘q. Vijdonim yo‘l qo‘ymasdi, uka. Qurg‘ur vijdon azobi qattiq bo‘ladi-da!
Buning ustiga, u menga shogird bo‘lgandan keyin, uni bu yerga o‘zym keltirib yotqizganimdan keyin... haligi mas‘uliyati ham bo‘ynimda bo‘ladi...
— Kechirasiz, — dedim. — Juda yaxshi, o‘ta talantli bola-yu, ba‘zan jindak, nima desam ekan, betga choparlik odati bor... Yosh-da. Sizlarda hukumat odamlari kelib davolanadi... Shu, nima desam ekan, uqtirib qo‘yasizmi...
— Tushundim, tushundim, — degandi bu... yaramas ham! Keyin ko‘chaga ham kuzatib chiqqanini ko‘rib, juda ko‘nglim tinchigandi. Lekin: «— Bolani o‘zimiz olib kelamiz. Yo bugun, yo erta... Ishqilib, joy bo‘shashi bilan», — deganiga parvo qilmayman.
Juda charchagan ekanman, uyga ketdim. Shu kecha toza havodan nafas olay deb hovliga chiqqan edim, boshim shamollagan ekan, haroratim ko‘tarilib, to‘rt kun yotdim.
Beshinchi kuni zo‘rg‘a o‘rnimdan turdim.
Xayolim bolada!
Sen hozir tushunmaysan: katta bo‘l, yozuvchi bo‘l...
Keyin birovni shogird tut. Ana undan keyin mening holatimni tushunib olasan: bamisoli bolang-jigaringga aylanib qoladi shogirdlaring!.. Ammo u bitta edi!
Mashinani bir amallab garajdan chiqardim. Xotinim hay-haylab turibdi. Qaramadim.
Eski kasalxona oldidan o‘tayotib, to‘xtadim. Tavakkal qilib ichkariga kirdim. «Priyomni pokoy»ning oldidan o‘tayotgandim, o‘sha kuni aytishib qolgan vrachim chiqib qoldi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3


— Assalomu alaykum, domla!
— Va allaykum, — dedim. — xayolim joyidamas-da. O'tib ketishinga...
— Marhamat, kiring.
— Bizning bolani opketishdimi? Qachon opketishdi?
— Yo'q. Hech kim so'rab kelmadi, — dedi vrach. Qarasam, rangi bir xil...
E, nima deysanki, uni o'tgan kuni opchiqishgan ekan. Shu tobda morgda yotgan ekan...
He, shunday kuydim, shunday kuydim...
Uni kim o'ldirdi? Endi o'ylab ko'r, o'g'lim: odamlar mana shunaqa. Qo'rqoq, vahimachi, vijdonsiz!.. Bu gaplarni senga aytyapman.

* * *

Men mashinani to'xtatdim.
— Tushing, domla!
— E, nimaga?
— Men o'lishni istamayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshboyev.O., „Adabiy zamondosh“, „G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi“, T:2018
2. Shukur Xolmirzayev "Saylanma". "Sharq" nashriyoti. TOSHKENT:2016





MODIFIKATSIYALANGAN KARBAMID-FORMALDEGID SMOLASIGA QO'SHIMCHA PLASSIFIKATOR QO'SHIB KOMPOZITLAR OLISH

Murodova Dildora Chori qizi Kimyo fakulteti III kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Eshmurodov X.E.**

E-mail: khurshideshmurodov@gmail.com

Annotasiya. Ushbu ishda formaldegid va karbamid asosida olingan yelimning tarkibi o'rganilib chiqildi va unga modifikator sifatida dietil tereftal kislota qo'shdik. Tayyor bo'lgan mahsulotni tajribada sinab ko'rdik. Ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar. Karbamid, formaldegid smolasi, modifikator, dietil tereftal kislota, NaOH 40% li, ammoniy xlorid.

ПРИГОТОВЛЕНИЕ КОМПОЗИТОВ ПУТЕМ ДОБАВЛЕНИЯ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ПЛАСТИФИКАТОРА В МОДИФИЦИРОВАННУЮ МОЧЕВИНОФОРМАЛЬДЕГИДНУЮ СМОЛУ

Абстрактный. В данной работе был изучен состав клея на основе формальдегида и карбамида и в качестве модификатора к нему добавлена диэтилтерефталевая кислота. Готовый продукт мы протестировали в эксперименте. Даны рекомендации по их использованию.

Ключевые слова. Карбамид, формальдегидная смола, модификатор, диэтилтерефталевая кислота, NaOH 40%, хлорид аммония.

PREPARATION OF COMPOSITES BY ADDING ADDITIONAL PLASTICIZER TO MODIFIED UREA-FORMALDEHYDE RESIN

Abstract. In this work, the composition of formaldehyde-based and urea-based glue was studied and diethyl terephthalic acid was added to it as a modifier. We tested the finished product in an experiment. Recommendations on their use were given.

Keywords. Urea, formaldehyde resin, modifier, diethyl terephthalic acid, NaOH 40%, ammonium chloride.





KIRISH

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan bilan talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo'lib, bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamuljamini anglatadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi. Akmeologiya (akte) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi. V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi ma'suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi. Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

Talabaning ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik.





Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxsh qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zini o'rni anglay olishi.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik); qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati; xayol qila olish (fantaziya.)

Demak, o'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivasion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir. Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me'yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shartsharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usularini yechishni aniqlashga qaratilganidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;

Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar bo'lajak o'qituvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash va qo'rquv hissi mavjud bo'lsa yoki tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda "pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak.

Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish lozimki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalar hisoblanadi. Oliy pedagog ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qosimova Z.H. "Ta'lim texnologiyalari" - Toshkent : 2014yil
2. Ro'ziyeva.D.I. "Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning ilmiy pedagogok asoslari" - Toshkent: 2007yil
3. Ilin Ye.P "Psixologiya tvorchestva , kreativnosti" - Moskva 1998yil





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

4. M.Usmonboyeva, A.To'rayev "Kreativ pedagogika" – Toshkent 2006yil
5. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A, Pardayev A "Ta'limda innovatsion texnologiyalar".
6. Kalbaevna, K. Z. (2021). Social and Pedagogical Competency as an Important Component of Professional Training of Future Teachers. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 1241-1245.
7. 7.Kurbaniyazova, Z. (2021). PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR SOCIAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2021(3), 92-105.
8. Kurbaniyazova, Z. K. (2021). The role of social pedagogy in the professional training of future teachers. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 23-26.





РОЛЬ ЯЗЫКА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Atajanov Kenyesbay Ibragimovich

Озбекстан дене тәрбиясы хэм спорт университети Нөкис филиалы Спорт ойынлары кафедрасы ассистент оқытыўшысы.

Ключевые слова: лингвистика, фразеология, междометие, валентность, эквивалент, контекст, образ, семантика, форма.

Keywords: linguistic, phrase logical, language, context, metaphor, concerning, peculiarities, semantics, forma.

АННОТАЦИЯ.

Статья посвящена одной из языковых единиц нашего языка, случаям употребления междометия в художественном языке. В художественных произведениях каракалпакской литературы приводятся некоторые подробности, касающиеся особенностей значения слова в употреблении.

THE ROLE OF LANGUAGE IN THE PEDAGOGICAL EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

RESUME.

In article, one of the linguistic units of our language is devoted to the event of the use of mejdometie units in an artistic language. In the works of, some details are given concerning the peculiarities of the meaning of the word in use.

YOSH AVLOD PEDAGOGIK TARBIYASIDA TILNING O'RNI.

ANNOTATSIYA.

Maqola tilimizning lingvistik birliklaridan biri bo'lgan kesimning badiiy tilda qo'llanish holatlariga bag'ishlangan. Qoraqalpoq adabiyoti badiiy asarlarida qo'llanishdagi so'zning ma'no xususiyatlariga oid ba'zi tafsilotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: tilshunoslik, frazeologiya, kesim, valentlik, ekvivalent, kontekst, obraz, semantika, shakl.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

В каракалпакском языке в усилении значения слова название предмета или явления усиливается смотря на вещественную связанность, близость, ограниченность с другим предметом или явлением.

По словам профессора Е. Бердимуратова, в литературных произведениях слова-междометия используются в качестве одного из ярких видов смысловых языковых средств. Поэтому мастера художественного слова часто используют слова-междометия, тем самым выделяя стилистические особенности, образность и языковой смысл, подходящие стилю художественной литературы. [1. 70.].

Как принято в науке о языке, если междометия являются языковыми стилистическими, семантико-стилистическими категориями, напрямую связанными с образностью, экспрессивностью речи, то крайне необходимо оценивать с лингвистического аспекта на базе точных фактов тематические группы, основанные на их денотатных, сигнификатных, назывных отношениях и связях, их состояниях стилевого употребления. Потому что, образно-художественная экспрессия считается одним из основных структурных элементов, являющимся организатором, виновником различения поэзии и прозы от других функциональных стилей в литературном произведении. В образности и художественности при помощи междометий ясно отражаются образы, картины, бытовые сцены, они доставляют самое важное эстетическое наслаждение. В употреблении слов-междометий образность речи создается содержательной своеобразностью речевых средств, их способами употребления и местом использования. Появление экспрессии в слове происходит вместе с расширением и осложнением смыслового состава, созданием в его структуре дополнительных смысловых окрасок. Эти оценивающие-характеризующие качества и признаки являются важными признаками речи. Слова-междометия в качестве переносного значения взаимосвязаны и близки друг другу, тем не менее, оно является переносным значением, появившимся на втором предмете вследствие переименования на основе их внешней или внутренней связанности, а не на какой-либо схожести между предметами, явлениями или действиями, обозначающих междометия. Подобная связь основывается на связях между предметом и материалом, из которого он сделан, между содержимым предмета и тем, что означает облачение этого содержимого, между движением и средством передвижения, связи автора и его произведения, связи между местом и





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

проживающими там людьми. Отличительная черта междометий – в них отсутствует схожесть между названием и названным предметом. Тем не менее они близки друг другу. Наряду с этим постоянно участвует в семантической структуре слова, характеризуется стильностью и продуктивностью. [2. 40.].

В поэтических творениях творческие поиски, находчивость и мастерство мастера художественного слова играют решающую роль. Там формируются такие поэтические качества поэта, как оригинальность, новаторство, смелость в художественном изображении. Лучшие литературные произведения создаются через поэтический язык и своеобразную композицию, идею, содержание, качественность, образность и эмоциональность, создающие основу для эстетического наслаждения и организации структурных элементов на высоком уровне. В любом поэтическом произведении моментально чувствуемая читателем оригинальность, новизна, новаторство появляются только лишь через точные картины тех признаков, определяющих ценность национальной поэзии. В этом роль поэтического языка велика.

Слова-междометия явно видны в контексте передачи семантической экспрессии, его реализации на основе эстетических требований. Они отчетливо видны в произведениях каракалпакских мастеров художественного слова. Обратим внимание на эти примеры:

Шийрин тилиң эркеленип сөзлеген, (Лепечут твои сладкие уста)

Кирпигиң оқ жүреклерди гөзлеген, (Ресницы стрелой целятся в сердца)

Бундай да болар ма, рәўшан көз деген, (Ах, какие ясные глаза)

Мухаббеттиң ушқыны бар оларда. (Искра любви в них видна)

Уйтқыдығой, уйтқыр дүбелей, (Вихри веют, заважают)

Жүрегимде ҳаслаң сейимес. (Никак в сердце не рассеются)

Жайнап-жасна, долаңшы гүлдей, (Цвети, расцветай, словно горный цветок)

Нур шаш, бәхәр таңына мегзес. (Свети, как весенняя заря)

(К. Даулетназаров).

В этих стихотворных строках для получения образности изображения явно бросаются в глаза факты тщательного использования всех семантико-стилистических богатств, присущих общему языку. Образность, экспрессия в нем правильно и своевременно использовала соответствующие языковые





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

средства, согласно эстетическим требованиям художественного изображения, их логической стилевой связи и единства.

Күнлерим – дизилисken тырналар, (Дни мои – словно журавлиный клин)

Өмирим дем сайын урланар, (Жизнь моя с каждым вдохом мала)

Моншақлар, жүзиклер, сырғалар... (Бусинки, колечки, сережки...)

Әлўидағ әрманлар, әлўидағ! (Прощай мечта моя, прощай!)

Здесь мастер художественного слова впервые применил новое слово “әлўидағ”, мастерски достиг эмоциональности смысла слова.

Через использование междометий в поэтической форме со стилевой целью передал поэтическим языком душевные переживания героя, пропитанные духом любви к Родине, к природе родимой земли, обогащенные патриотическим характером. В дастане мы видим, что автор смог раскрыть языком героя своеобразную красоту почвы, природы земли, где родился, её прекрасные картины в разных временах года, красоту пейзажной панорамы и чувствуем, что произведение пропитано духом любви к Родине. Это говорит о том, что поэт воспитывался на красочном разнообразии фольклорных эпических произведений и воодушевлялся и отчетливо выделяется то, что в поэтическом пространстве занимают место действительность реального быта, чувства, связанные с жизненной правдой. В дастане поэта идет речь о реальных жизненных раздумьях, мечтах и чаяниях, мировоззрении, духовных богатствах.

Через междометия, богатые сильными смысловыми особенностями представляются изображение ценность родной земли, различные события особенными экспрессивными эмоциями. [3. 67.]. Он воспевае понятия о родной земле, передавая добродушным языком лирического героя, сравнивая Родину с раем, родимым гнездом, материнскую нежность, материнский запах с горстью родной земли, от запаха которого он наслаждался и не может никак насладиться. Говоря о невозможности замены Родины, родного края другим местом проживания выражает бесконечные любовные чувства к родной земле языком лирического героя.

В его лирике, пробуждающей эмоциональность совершенно ясно виден национальный пейзажный колорит каракалпакских аулов.

Суў акса сагадан сарқырап, (Когда журчит ручей свысока)

Кыялым қосылып аққандай, (Мои мысли протекают с ним)





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Күн шықса күлимлеп жарқырап, (Улыбаясь солнышко взойдет)

Аўылдың келбети пах, қандай! (Ах, как прекрасен мой аул!)

Хотя с первого взгляда кажется, что строки, где без прикрас приведены природные картины, имеют простые рифмы, ему удалось из отдельных смыслов слов создать одну целую эстетически-эмоциональную чувствительность и поднять ценность произведения. Воспеты оригинальные национальные краски природы и достигнута прекрасная эмоциональная экспрессивность.

Тап жаңа жұлдыздан түсип келгендей, (Словно только что сошли со звезды)

Ай таманға өзи ушып келгендей, (И прилетели сами на луну)

Бул кәраға жаңа көшип келгендей, (Словно только что прибыли сюда)

Ғаўқылдасар кеште қарақалпақлар. (Каракалпаки вечером галдят)


(Т. Мәтмуратов)

Композиционное строение стихотворения «Ғаўқылдасар қарақалпақлар» (Галдят каракалпаки), из которого приведены примеры очень интересное. При помощи междометий особенно чувствительными представились читателю острота языка, чувственность, идейная художественность.

Его богатый на эмоции язык посредством передачи глубокого философского смысла галдящим беседам каракалпаков на вечерних праздниках и вечеринках, где высказываются «украшенные фантазией» хорошие пожелания для народа оставляют тёплые впечатления в сердцах народа.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Бердимуратов Е. Qaraqalpaq әдебиі тили. Leksikologiya. Нукус - 1998.
2. Ефимов А.И. О языке художественных произведений. - Москва, 1954, - С.181-216.
3. Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка: Автореф. дисс...канд. филол. наук // Москва, 1952;
4. Кенесбаев С.И. Қазақ тілі қалыптанған сөз топтары (қоссөздер, идионімдер мен фразалар). Автореф. дисс. ...-д-ра филол. Наук// Алма-ата, 1944;
5. Кожаметова Х. Фразеологизмдердің көркем әдебиетте қолданылыуы.-Алматы, 1972, - С.54,58
6. Юлдашов Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1999. «Издательство СамГУ», с.200.





HUDUDLARNI INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Turdialiyeva Masuda Rahimjon qizi – magistr*

**Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi*

Annotatsiya. Maqolada hududlarda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning bugungi kundagi ahamiyati, hududlar miqyosidagi bu boradagi ko'rsatkichlar tahlili haqidagi izlanishlar natijalari bayon qilingan,

Kalit so'zlar. investitsiya, hududlar, jozibadorlik, muhit, oshirish, xorijiy investitsiya, iqtisodiyot, rivojlanish, bozor, barqarorlik, valyuta.

INCREASING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF AREAS

Abstract. The article describes the reforms implemented in our country to increase the investment attractiveness of the regions and their importance today, the results of the research on the analysis of indicators in this regard at the regional scale,


Key words. investment, regions, attractiveness, environment, increase, foreign investment, economy, development, market, stability, currency.

ПОВЫШЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ РАЙОНОВ

Абстрактный. В статье описаны реформы, реализуемые в нашей стране с целью повышения инвестиционной привлекательности регионов и их значение сегодня, результаты исследования по анализу показателей в этой связи в региональном масштабе,

Ключевые слова. инвестиции, регионы, привлекательность, окружающая среда, прирост, иностранные инвестиции, экономика, развитие, рынок, стабильность, валюта.


So'nggi yillarda jahonda ro'y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, iqtisodiy o'sish sur'atlarida notekislik holatlari kuzatilmoqda, dunyo bozorida xom-ashyo tovarlari narxlari ko'tarilmoqda, moliya tizimida nomutunosiblik sezilmoqda,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3


mamlakatlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalar zanjirlari zaiflashuvi yuz bermoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda jahonning yaxlit iqtisodiy tizimida va har bir mamlakat doirasida o'z milliy iqtisodiyotini izdan chiqarmaslik uchun mumkin bo'lgan barcha iqtisodiy chora-tadbirlar ko'rilishi taqozga etiladi. Shu sababli bizning mamlakatimizda ham makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Aynan shu maqsad yo'lida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qator strategik kontseptsiyalar ishlab chiqilmoqda va ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda [1]. Milliy iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgartirishlar amalga oshirilishi, zamonaviy sohalar va tarmoqlarning vujudga kelishi, ishlab chiqarishning diversifikatsiya qilinishi, munosib investitsiya muhitining shakllanishi va iqtisodiy hayotga innovatsion texnologiyalarning samarali joriy etilishi natijasida sezilarli iqtisodiy yutuqlarga erishildi, jumladan iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlari ta'minlandi [2]. Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bir davrni boshlab berdi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ko'plab yutuqlarning qo'lga kiritilishiga va yillar davomida to'planib qolgan bir qator muammolarni hal etilishiga erishildi. Jumladan, investorlarning O'zbekiston bozoriga kirishi va erkin faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilgan barcha omillar bartaraf etilib, tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratildi, 2017-yilda milliy valyuta-so'mning erkin konvertatsiyasi joriy qilinib, xorijiy investorlarning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq barcha cheklovlar bekor qilindi. Shuningdek, soliqlarning umumiy soni 13 tadan 9 tagacha kamaytirildi, mol-mulk, shaxsiy daromad va ijtimoiy soliq stavkalari ikki barobarga pasaytirildi, 6 mingga yaqin import boj stavkalarini pasaytirish choralari ko'rildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan "Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi [3]. Ushbu hujjatda asosiy yo'nalishlardan biri sifatida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, keyingi besh yilda YaIM hajmini 100 milliard AQSh dollariga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 2500 AQSh dollariga va 2030-yilgacha bo'lgan muddat ichida 4200 AQSh dollariga yetkazishni hamda xususiy sektorning YaIMdagi ulushini 80 foizga yetkazish





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

mo'ljallangan. Mazkur strategiya bilan hamohang ravishda mamlakatimizda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontseptsiyasi" ishlab chiqilgan. Kontseptsiyaga asosan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlar raqobatbardoshligini, investitsion va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozorida keskinlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlarini o'stirish va kam ta'minlanganlikni qisqartirish kabi ustuvor vazifalarni hal etish belgilangan. Iqtisodiy o'sish, umuman olganda biror-bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimning yoki mamlakatning rivojlanish darajasini ifoda etuvchi iqtisodiy mezon hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish jamiyatning rivojlanish istiqbollari belgilash imkonini beradi, resurslarning cheklanganligi muammosini hal etish uchun sharoit yaratadi. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy o'sish masalalarini tadqiq qilishda u bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish hajmining qisqa muddatda ko'payib ketishi va mamlakatning ravnaqi emas, balki uzoq muddatli vaqt oralig'ida ishlab chiqarish real hajmi tabiiy darajasining uzoq muddatli o'sishi ahamiyatga egadir [4]. O'z navbatida, har qanday mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganish va tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega masaladir. O'zbekistonning o'ziga xos shart-sharoitlari va bozor tamoyillari asosida rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida ekanligi e'tiborga olinadigan bo'lsa, milliy iqtisodiyotning o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biri sifatida iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda, mamlakatning iqtisodiy hayotida investitsiya faoliyatini yuritish, investitsiya muhitini yaratish va investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan bo'lib, amaldagi qonunchilikka ko'ra, "Investitsiya siyosati - O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui" sifatida e'tirof etiladi [5]. Investitsiya bilan birga turli sohalarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi, bu esa milliy iqtisodiyotimizning faol o'sishini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Xususan, 2022-2026-yillar davomida mamlakatda






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish orqali, 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard AQSh dollari xorijiy investitsiyalarni jalb etish mo‘ljallangan [6]. Dunyo miqiyosida davom etayotgan koronavirus pandemiyasi va iqtisodiy inqirozning ta’siriga qaramasdan investitsiyalarni jalb etishni samarali amalga oshirish uchun mamlakatimizda yetarli imkoniyat mavjud. Respublikamizda bevosita yuz berayotgan muhim tarkibiy o‘zgarishlar, uning tabiiy resurslarga boyligi, ishchi kuchining yetarliligi va tadbirkorlik faoliyatining keng-ko‘lamli rivojlanib borayotganligi investitsiya muhitini yanada jozibador qilishni ta’minlay oladi. Shu boisdan ham investitsiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun ob’ektiv zaruratga aylangan [7].

O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasiga muvofiq, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish iqtisodiy barqarorlikning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar tadbirkor va investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda. Bu esa investitsiyalar hajmining ortishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shunga qaramasdan, hududlar miqyosidagi investitsiyaviy faollik darajasida o‘zaro nomutanosibliklar mavjud.

1-rasm



Bunday holat hududlarning iqtisodiy salohiyati va resurslar taqsimotidagi o‘ziga xos jihatlari bilan bir qatorda, ichki va tashqi omillarning ta’siri natijasi hamdir.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va belgilangan strategik maqsadlarga erishish hududlarning investitsion faolligini uzluksiz va davriy ravishda tahlil qilib borishni taqazo etadi.

O'zbekistonda 2023-yilning dastlabki 9 oyi davomida hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish samaradorligini tahlillari shuni ko'rsatadiki 2023-yilning dastlabki 9 oyi mobaynida aksariyat hududlarda investitsiyaviy faollik o'sish dinamikasini qayd etilgan va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ortgan. Asosiy kapitalga investitsiyalarning respublika bo'yicha o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 11,8 foizga teng bo'lgan. Hududlar miqyosida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent (25,9 foiz), Samarqand (21,2 foiz), Jizzax (20,8 foiz) viloyatlarida qayd etilgan. Jami investitsiyalarning ortishi asosan xususiy sektor mablag'larini jalb qilish hisobiga ta'minlangan. Ma'lumot uchun: birgina Samarqand viloyatida joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida korxonalar mablag'lari hisobidan investitsiyalar 1,6 marotaba, tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 2,4 marotaba ortgan [8]. Sirdaryo (10,0 foiz), Xorazm (5,4 foiz) va Qashqadaryo (0,4 foiz) viloyatlarida asosiy kapitalga investitsiyalarning pasayish dinamikasi qayd etildi.

Sirdaryo viloyatida barcha markazlashgan investitsiyalar, shuningdek, Xorazm viloyatida byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari hisobidan investitsiyalarning qisqarishini jami investitsiyalarning kamayishiga asosiy sabab sifatida keltirish mumkin.





1- jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati (choraklik)


	2022-Q1	2022-Q2	2022-Q3	2022-Q4	2023-Q1	2023-Q2	2023-Q3
O'zbekiston Respublikasi	115,2	106,6	103,3	100,2	103,1	107,9	111,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	125,6	123,9	119	114,9	118,6	104,2	103,4
Andijon viloyati	154,7	149,4	123,5	116,5	84,3	89,2	108,6
Buxoro viloyati	187,4	125,1	101,5	94,2	56,7	94,2	106,6
Jizzax viloyati	118,7	125,9	114,7	104,6	93,2	108,5	120,8
Qashqadaryo viloyati	121,3	99,1	92,2	80	72,9	93	99,6
Navoiy viloyati	111,1	106,7	108,2	109,4	99,4	104,6	110,7
Namangan viloyati	105,2	114,1	107,7	104,2	103,9	107,5	118,2
Samarqand viloyati	139,6	125	116,2	111,6	130,7	116,3	121,2
Surxondaryo viloyati	104	94,2	97	87,5	112,5	110,9	112,3
Sirdaryo viloyati	151,7	140,9	138,7	135,1	127,4	97,1	90
Toshkent viloyati	82,1	86,9	90,1	110,7	121,7	137,7	125,9
Farg'ona viloyati	122,9	119,4	116,3	112,4	132,3	114,9	118,2
Xorazm viloyati	106,4	109,5	102,6	94,2	108	99,6	95,4
Toshkent shahri	91,4	86,6	92,7	87,2	117,8	111	113

Qashqadaryo viloyatida esa investitsiyalarning qisqarishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda aholi investitsiyalari hisobiga yuz bergan. Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida jami markazlashgan investitsiyalar hajmi 51,2 foizga kamaygan bo'lsa, Xorazm viloyatida byudjet mablag'lari hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari hisobidan investitsiyalar mos ravishda 8,9 va 6,6 foizga pasaygan [9]. Joriy yilning 9 oyi davomida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdorining o'sish dinamikasi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan hududlar miqyosida turli xil tendensiyalarga ega bo'ldi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, mamlakatning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi bilan asosiy kapitalga investitsiyalar omili o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, iqtisodiyotda investitsiyalar hajmining ortishi yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga bevosita sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan milliy iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar xajmini ko'paytirish, ularning jozibadorligi oshirish, ayniqsa xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish choralari ko'rilishi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Abdulloev,S.Amonov.Mintaqa innovatsion jozibadorligini baholash usullar. Agroiqtisodiyot jurnali,7-10 betlar 2/2022





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

2. Ashurova N. B, Boborajabova S. F. Investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro reyting, indekslar tahlili. International scientific and practical conference. "Improving Uzbekistan's position in international ratings and indexes: theory, practice and strategy". 450-452 pp., November 17/2023 . <https://doi.org/10.5281/zenodo.10139268>
3. Azimovna, R. F. (2024). Youth Entrepreneurship and its Development Measures. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(1), 340-343.
4. Sh.M. Mirziyoev. "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. Raxmatov.Sh.D. Hudud investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning ilg'or xorij tajribalari. 18-23 b., Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 6, December 2023. ISSN: 2181-1016
6. Mirzaev I.Q. Investitsion jozibadorlikni oshirish milliy iqtisodiyot barqaror o'sishining garovidir: nazariya, tahlil va natijalar. "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 1-10 b., 4-son 2022-yil
7. F.O. Otaboev. Iqtisodiy o'sish va unga ta'sir etuvchi omillar. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-6-709>.
8. R.X. Zayniddinov. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or horijiy tajribalardan foydalanish yo'llari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy electron jurnali, 2020-yil, 5-son, 90-101 betlar.
9. Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ/АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 140-146.
10. I.Xudoyberdiyev., M.Karimov. 2023-yilning yanvar-sentyabr oylari yakuniga ko'ra, hududlar miqyosida investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi. 2023 y. MHTI instituti.
11. stat.uz





IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH DINAMIKASI

Eshqulova Dilorom Abduravupovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillar, barqaror rivojlanish uchun muammolar va inklyuziv o'sishni rag'batlantirish strategiyalari o'rganiladi. Unda infratuzilmaga sarmoya kiritish, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishda innovatsiyalarning ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada barqaror rivojlanish yo'lidagi to'siqlar sifatida daromadlar tengsizligi, atrof-muhit degradatsiyasi va siyosiy beqarorlik ta'kidlanadi. Inklyuziv o'sishni rag'batlantirish uchun ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari, moliyaviy inklyuzivlik va siyosatni barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtirish kabi strategiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, rivojlanish, infratuzilmaga investitsiyalar, inson kapitali, innovatsiyalar, daromadlar tengsizligi, atrof-muhit degradatsiyasi, siyosiy beqarorlik, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari.

ДИНАМИКА ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И РАЗВИТИЯ

Аннотация: В этой статье рассматриваются ключевые факторы экономического роста, проблемы устойчивого развития и стратегии содействия инклюзивному росту. В нем обсуждается важность инноваций в инвестициях в инфраструктуру, развитии человеческого капитала и экономическом росте. В статье также подчеркиваются неравенство доходов, деградация окружающей среды и политическая нестабильность как препятствия на пути устойчивого развития. Для содействия инклюзивному росту предлагаются такие стратегии, как системы социальной защиты, финансовая доступность и согласование политики с Целями устойчивого развития.

Ключевые слова: экономический рост, развитие, инвестиции в инфраструктуру, человеческий капитал, инновации, неравенство доходов, деградация окружающей среды, политическая нестабильность, системы социальной защиты.



DYNAMICS OF ECONOMIC GROWTH AND DEVELOPMENT

Abstract: This article examines the key drivers of economic growth, challenges for sustainable development, and strategies for promoting inclusive growth. It discusses the importance of innovation in infrastructure investment, human capital development and economic growth. The article also highlights income inequality, environmental degradation, and political instability as obstacles to sustainable development. Strategies such as social safety nets, financial inclusion, and policy alignment with the Sustainable Development Goals are proposed to promote inclusive growth.

Keywords: economic growth, development, infrastructure investment, human capital, innovation, income inequality, environmental degradation, political instability, social safety nets.

Iqtisodiy o'sish va rivojlanish butun dunyo bo'ylab jamiyatlar va iqtisodiyotlarning traektoriyasini shakllantiradigan asosiy tushunchalardir. Iqtisodiy o'sish dinamikasi deganda iqtisodiyotning vaqt o'tishi bilan kengayishiga turtki bo'lgan, hosildorlik, daromad va umumiy farovonlikning oshishiga olib keladigan omillarning murakkab o'zaro ta'siri tushuniladi. Boshqa tomondan, taraqqiyot qashshoqlikni kamaytirish, turmush darajasini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash kabi kengroq maqsadlar majmuasini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish dinamikasini tushunish institutsional sifat, inson kapitali, texnologik innovatsiyalar, savdo va boshqaruv kabi turli omillarni hisobga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Bu omillar iqtisodiy o'sish sur'ati va barqarorligini hamda uning jamiyat uchun yanada kengroq rivojlanish natijalariga aylanishini aniqlash uchun murakkab usullarda o'zaro ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, olimlar va siyosatchilar uzoq vaqtdan beri iqtisodiy o'sish va rivojlanishning harakatlantiruvchi omillari, shuningdek, hukumat siyosati, xalqaro savdo, tashqi yordam va global iqtisodiy kuchlarning iqtisodiy manzarani shakllantirishdagi roli haqida bahslashdilar. Ushbu dinamikani o'rganish orqali tadqiqotchilar inklyuziv va barqaror o'sishga yordam beradigan, tengsizlikni kamaytiradigan va shaxslar va jamoalar farovonligini oshiradigan strategiya va siyosatlarini aniqlashga intiladi.

Iqtisodiy o'sish va rivojlanish bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar bo'lib, ular iqtisodiyot va jamiyatlar traektoriyasini shakllantirishda hal



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3


qiluvchi rol o'ynaydi. Iqtisodiy o'sish deganda, odatda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati bilan o'lchanadigan vaqt o'tishi bilan iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning o'sishi tushuniladi. Boshqa tomondan, taraqqiyot hayot darajasini oshirish, qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni rag'batlantirish kabi kengroq maqsadlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy o'sish dinamikasiga ko'plab omillar, jumladan, texnologik taraqqiyot, inson kapitalining to'planishi, institutsional sifat, infratuzilmaning rivojlanishi va moliyadan foydalanish ta'sir ko'rsatadi. Masalan, texnologik innovatsiyalar mahsuldorlikni oshirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi, bu esa ishlab chiqarish darajasi va iqtisodiy o'sishga olib keladi. Ta'lim va malaka oshirishga investitsiyalar innovatsiyalar va samaradorlikni oshirishga yordam beradigan malakali ishchi kuchini shakllantirishga yordam beradi.

Qonun ustuvorligi, mulk huquqlarini himoya qilish va me'yoriy-huquqiy baza kabi institutsional sifat iqtisodiy o'sish uchun qulay muhitni yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kuchli institutlar noaniqlik va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, investitsiya va tadbirkorlikni rag'batlantiradi. Infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, transport tarmoqlari, energiya tizimlari va aloqa kanallari tovarlar va xizmatlar harakatini osonlashtirish, bozorlarni bog'lash va iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. Moliyadan foydalanish iqtisodiy o'sishning yana bir muhim omilidir, chunki u korxonalariga yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish, faoliyatni kengaytirish va ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Samarali, inklyuziv va yaxshi tartibga solinadigan moliyaviy tizimlar iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi va jamg'armalarni samarali investitsiyalarga yo'naltirishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish rivojlanish uchun zaruriy shart bo'lsa-da, bu yetarli emas. Rivojlanish, shuningdek, qashshoqlik, tengsizlik, tibbiy xizmatdan foydalanish, ta'lim imkoniyatlari va ekologik barqarorlik kabi kengroq ijtimoiy muammolarni hal qilishni talab qiladi. Iqtisodiy o'sishni jamiyatning barcha a'zolari farovonligini oshirishga aylantirish uchun inklyuziv o'sishni, ijtimoiy himoya dasturlarini va inson kapitaliga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi siyosat muhim ahamiyatga ega.





1-Rasm. Jahon iqtisodiyoti va O'zbekiston bilan hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish sur'atlari dinamikasi.

Iqtisodiy o'sish va rivojlanish dinamikasi iqtisodiyotning traektoriyasini aniqlash uchun o'zaro bog'liq bo'lgan turli xil omillar bilan shakllanadi. Iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bu texnologik taraqqiyot bo'lib, unumdorlik va samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Texnologik taraqqiyot korxonalariga bir xil darajadagi ma'lumotlar bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy mahsulot va o'sishning yuqori darajalariga olib keladi. Inson kapitalining to'planishi iqtisodiy o'sish va rivojlanishning yana bir muhim omilidir. Ta'lim, o'qitish va malaka oshirishga investitsiyalar innovatsiyalarni rag'batlantiradigan, o'zgaruvchan texnologiyalarga moslasha oladigan va yuqori samaradorlikka hissa qo'shadigan malakali ishchi kuchini shakllantirishga yordam beradi. Uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash va turmush darajasini oshirish uchun yaxshi ma'lumotli va malakali ishchi kuchi zarur.

Texnologik taraqqiyot va inson kapitalini to'plashdan tashqari, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishda institutsional sifat ham muhim rol o'ynaydi. Qonun ustuvorligi, mulk huquqlarini himoya qilish va me'yoriy-huquqiy baza kabi kuchli institutlar biznes faoliyati uchun barqaror va bashorat qilinadigan muhitni ta'minlaydi. Yaxshi ishlaydigan institutlar noaniqlik va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, investitsiyalar, tadbirkorlik va iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy o'sish va rivojlanishning yana bir muhim omilidir. Transport tarmoqlari, energiya tizimlari, aloqa kanallari va infratuzilmaning boshqa shakllariga investitsiyalar tovar va xizmatlar harakatini osonlashtirish, bozorlarni bog'lash va iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun zarurdir. Ishonchli va samarali infratuzilmaga kirish korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va iqtisodlarning rivojlanishi uchun juda muhimdir.





Moliyaviy imkoniyatlar ham iqtisodiy o'sish va rivojlanishning muhim omilidir. Samarali, inklyuziv va yaxshi tartibga solinadigan moliyaviy tizimlar jamg'armalarni safarbar qilish, kapitalni samarali investitsiyalarga taqsimlash va iqtisodiy operatsiyalarni osonlashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Kredit, sug'urta va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish korxonalariga yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish, faoliyatni kengaytirish va ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Iqtisodiy o'sish rivojlanish uchun muhim bo'lsa-da, bu o'z-o'zidan etarli emas. Rivojlanish, shuningdek, qashshoqlik, tengsizlik, tibbiy xizmatdan foydalanish, ta'lim imkoniyatlari va ekologik barqarorlik kabi kengroq ijtimoiy muammolarni hal qilishni talab qiladi. Iqtisodiy o'sishni jamiyatning barcha a'zolari farovonligini oshirishga aylantirish uchun inklyuziv o'sishni, ijtimoiy himoya dasturlarini va inson kapitaliga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi siyosat muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy o'sish va rivojlanish dinamikasi iqtisodiyot sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar va tahlillar mavzusi bo'ldi. Olimlar va siyosatchilar iqtisodiy o'sish va rivojlanishga hissa qo'shadigan turli omillarni, shuningdek, bu omillarning o'zaro ta'sirini o'rgandilar. Ushbu adabiyot sharhi iqtisodiy o'sish va rivojlanish dinamikasi bo'yicha asosiy tadqiqot natijalari va istiqbollari ko'rib chiqadi. Iqtisodiy o'sish bo'yicha adabiyotlarning markaziy mavzularidan biri - texnologik taraqqiyotning roli. 1950-yillarda Robert Solouning muhim ishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda texnologik innovatsiyalarning muhimligini ta'kidladi. Keyingi tadqiqotlar texnologik taraqqiyotning samaradorlik, investitsiyalar va umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qilish mexanizmlarini yanada o'rganib chiqdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar, ta'lim va infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar texnologik taraqqiyotni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Inson kapitalining to'planishi ham iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida maydonga chiqdi. Gari Bekker va Teodor Shults kabi iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda ta'lim, o'qitish va malaka oshirish muhimligini ta'kidladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inson kapitaliga investitsiyalar nafaqat shaxsiy daromadlarni oshiradi, balki ishchi kuchi sifatini oshirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ham hissa qo'shadi. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish dinamikasini shakllantiruvchi yana bir muhim omil institutsional sifatidir. Duglas Nort






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

va Daron Acemoglu kabi iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar korxonalar faoliyati uchun barqaror va bashorat qilinadigan muhitni ta'minlashda institutlarning rolini ta'kidladi. Mulk huquqlarini himoya qilish, qonun ustuvorligi va me'yoriy-huquqiy baza kabi kuchli institutlar tadbirkorlik, sarmoya va iqtisodiy faollikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yaxshi faoliyat ko'rsatayotgan institutlarga ega mamlakatlar iqtisodiy o'sish va rivojlanishning yuqori darajalarini boshdan kechirishadi.

Infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, iqtisodiy o'sish dinamikasini tushunish bo'yicha tadqiqotlarning markazida bo'ldi. Olimlar transport, energetika, aloqa va infratuzilmaning boshqa shakllariga investitsiyalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'rganib chiqdilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ishonchli va samarali infratuzilmaga kirish savdoni osonlashtirish, bozorlarni bog'lash va iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Infratuzilmaga investitsiyalar mahsuldorlikni, raqobatbardoshlikni va umumiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.



Iqtisodiy o'sish va rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil moliyadan foydalanish imkoniyatidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yaxshi rivojlangan moliyaviy tizimlar jamg'armalarni safarbar qilish, kapitalni samarali investitsiyalar uchun taqsimlash va iqtisodiy operatsiyalarni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kredit, sug'urta va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish korxonalariga yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish, faoliyatni kengaytirish va ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Tadqiqotlar moliyaviy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda moliyaviy inklyuzivlik va me'yoriy-huquqiy bazaning muhimligini ta'kidladi.





Ushbu omillarga qo'shimcha ravishda, iqtisodiy o'sish va rivojlanish bo'yicha tadqiqotlar qashshoqlik, tengsizlik, sog'liqni saqlash, ta'lim imkoniyatlari va ekologik barqarorlik kabi kengroq ijtimoiy muammolarni ham o'rganib chiqdi. Olimlar iqtisodiy o'sish jamiyatning barcha a'zolarining farovonligini oshirishga olib kelishini ta'minlash uchun inklyuziv o'sishni, ijtimoiy himoya dasturlarini va inson kapitaliga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi siyosat zarurligini ta'kidladilar.

Umuman olganda, iqtisodiy o'sish va rivojlanish dinamikasiga oid adabiyotlarda iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillarning murakkab o'zaro ta'siri yoritilgan. Ushbu dinamikani tushunish va barqaror va inklyuziv o'sishni ta'minlaydigan siyosatni amalga oshirish farovonlikni rag'batlantirish va jamiyat farovonligini oshirish uchun juda muhimdir. Yangi narsalarni o'rganish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Robinson, J. A. (2012). Nima uchun xalqlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi: hokimiyat, farovonlik va qashshoqlikning kelib chiqishi.
2. Barro, R. J. (2004). Iqtisodiy o'sish (2-nashr). MIT matbuoti.
3. Collier, P. (2007). Nima uchun mamlakatlar iqtisodiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi va bu borada nima qilish mumkin. Oksford universiteti matbuoti.
4. Easterly, W. (2006). Oq tanlining yuki: Nega G'arbning qolganlarga yordam berishga urinishlari shunchalik ko'p yomonlik va ozgina yaxshilik keltirdi?
5. Rodrik, D. (2008). Globallashuv, institutlar va iqtisodiy o'sish. Princeton universiteti matbuoti.
6. Sachs, J. D. (2005). Qashshoqlikning tugashi: bizning davrimiz uchun iqtisodiy imkoniyatlar.





DISCOVERING THE DEPTHS: THE SALT MINE AS A UNIQUE HEALING PLACE

Sarvar Abdurahimov Nasrilloevich

Teacher of the Faculty of Economics and Tourism of Termiz State University

Zamira Norsoatova Ziyadulla qizi

Student of the Faculty of Economics and Tourism of Termiz State University

ABSTRACT:

This article explores the therapeutic benefits and historical significance of salt mines as unique healing places. From ancient civilizations to modern wellness seekers, salt mines have been revered for their ability to promote respiratory health, relaxation, and overall well-being. Through halotherapy and immersive experiences, visitors to salt mines can escape the stresses of modern life and reconnect with themselves in the serene ambiance of the underground environment.

Keywords: salt mine, halotherapy, therapeutic benefits, wellness, healing, respiratory health, relaxation, history


АННОТАЦИЯ:

В данной статье исследуются терапевтические преимущества и историческое значение соляных шахт как уникальных лечебных мест. От древних цивилизаций до современных любителей оздоровления соляные шахты почитались за их способность способствовать здоровью органов дыхания, релаксации и общему благополучию. Благодаря галотерапии и иммерсивным впечатлениям посетители соляных шахт могут избежать стрессов современной жизни и воссоединиться с самим собой в безмятежной атмосфере подземной среды.

Ключевые слова: соляная шахта, галотерапия, терапевтические преимущества, оздоровительный эффект, исцеление, здоровье органов дыхания, релаксация, история.

CHURURLIKLARNI KASHF ETISH: TUZ KONI BEKOR SAVOLAYOTGAN MAYON SIFATIDA

XULOSA:





Uchinchidan, mintaqa sayyohlarga noyob va esda qolarli tajriba taqdim etishga e'tibor qaratishi kerak. Buni turli xildagi turistlar manfaatlariga mos keladigan maxsus tadbirlar va paketlarni taklif qilish orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, mintaqaga xos bo'lgan sifatli xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etishga e'tibor qaratishi kerak.

Nihoyat, mintaqa turistlarning xavfsizligini yaxshilashga e'tibor qaratishi kerak. Buni mahalliy politsiya va xavfsizlik kuchlarini yaxshiroq tayyorlash va resurslar bilan ta'minlash orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, mintaqada har qanday tibbiy favqulodda vaziyatlarda sayyohlarga yanada yaxshi tibbiy muassasalar va xizmatlar ko'rsatishga e'tibor qaratish lozim.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatining turizmni rivojlantirish salohiyati katta. Biroq, ushbu salohiyatni maksimal darajada oshirish uchun mintaqa infratuzilmasini yaxshilash, mintaqani targ'ib qilish, noyob tajribalarni taqdim etish, sayyohlar xavfsizligini yaxshilashga e'tibor qaratishi kerak.

Viloyatning hozirgi turizm infratuzilmasi, hududning madaniy merosini rivojlantirishning ahamiyati va hududning turizm takliflarini yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalarga sarmoya kiritish imkoniyatlarini tahlil qilish orqali hududning turizm salohiyatini oshirishning turli yo'llari borligi ko'rsatildi. Bundan tashqari, yagona turizm strategiyasini yaratish va mintaqaning tabiiy go'zalligi va madaniy diqqatga sazovor joylaridan foydalanish muhimligi keltirildi. Ushbu bayon etilgan strategiyalarni amalga oshirish orqali Surxondaryo viloyati butun dunyodan kelgan sayyohlar uchun mashhur manzilga aylanishi mumkin. Oxir oqibat, mintaqada turizmni rivojlantirish salohiyati iqtisodiy o'sishga va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashga olib kelishi mumkin.





O‘ZBEKISTON IQTISODIY-IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI KURSIDA METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li

Urganch davlat universiteti 4-bosqich talabasi


Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiasini tahlil qilishda qo‘llaniladigan usullarning ahamiyatini ta’kidlashdir. Tadqiqotda geografik axborot tizimlari, statistik tahlil, xaritalash usullari va boshqa metodologiyalardan foydalanish ko‘rib chiqiladi. Bu usullarni to‘g‘ri qo‘llash mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasini yaxshiroq tushunishga va kelajakda yanada samarali siyosiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy geografiasini chuqur o‘rganishga hissa qo‘shishdan iborat.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, metodik tamoil, innovatsiya, muzyorar metodi, geografik axborot tizimlari, statistik tahlil, xaritalash usullari.

Аннотация: Целью данного исследования является подчеркнуть важность методов, используемых при анализе экономической и социальной географии Узбекистана. В исследовании будет рассмотрено использование географических информационных систем, статистического анализа, методов картографии и других методологий. Правильное использование этих методов поможет лучше понять экономическую и социальную структуру страны и принимать более эффективные политические решения в будущем. Целью данного исследования является содействие углубленному изучению экономики и социальной географии Узбекистана.

Ключевые слова: экономическая и социальная география, методический принцип, инновация, метод ледокола, геоинформационные системы, статистический анализ, методы картографирования.

Abstract: The purpose of this study is to emphasize the importance of the methods used in the analysis of the economic and social geography of Uzbekistan. The research will consider the use of geographic information systems, statistical analysis, mapping methods and other methodologies. The correct use of these methods will help to better understand the economic and social structure of the country and make more





effective political decisions in the future. This study aims to contribute to the in-depth study of the economy and social geography of Uzbekistan.

Key words: economic and social geography, methodical principle, innovation, ice-breaker method, geographic information systems, statistical analysis, mapping methods.

Yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'kituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil ko'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovations" – kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi" [11]

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik-tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

bo‘lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o‘rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o‘rgangan.[13]

Har bir pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarni ilm olishiga xizmat qiladi. Quyida innovatsion pedagogik texnologiyalarni ba‘zilari bilan tanishib chiqamiz.


“Muzyorar metodi”-Metod o‘quvchilarni faollashtiruvchi, ma’lum faoliyatga jalb qiluvchi mashq bo‘lib, ularning o‘zaro tanishishlari va jamoada ishchanlik muhitini yaratish maqsadida qo‘llanadi. Uning asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga chorlashdir.

Ko‘pchilik notanish muhit (yangi jamoa, sinf, maktab, kurs)da o‘zini noqulay sezadi va shu sababli jamoa bilan qo‘shilib ketolmaydi. Chunki ular hali jamoa, unda qaror topgan muhitdan xabardor emas. Bu esa ularning jamoa a‘zolari bilan yaqindan munosabatda bo‘lishlari, muloqotni tashkil etishlari yo‘lidagi eng jiddiy to‘siq sanaladi. Bordi-yu, jamoaga yaqinda kelgan shaxs uning loaqal bir nafar a‘zosi bilan tanish bo‘lsa, bunday holatda uning yangi muhitga moslashishi oson kechadi.



1.3-rasm. “Muzyorar” metodini ta’lim jarayonini qo‘llash tartibi.

Shu bois o‘qituvchi (yoki boshlovchi) yangi sharoitda o‘quvchilarga o‘zlarida ishonch hissini yuzaga keltiradigan do‘stona muhitni, butun diqqatni jalb etadigan yoki ijodiy kayfiyatni ifodalay oladigan vaziyatni yaratib berishi kerak. “Muzyorar” metodi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ana shu maqsadda qo‘llaniladi. Metod o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba)lar o‘rtasidagi “muz”ni eritish, “devor”ni yo‘qotishga xizmat qiladi.


Izoh: O‘quvchilar ta‘riflarni yozma holda ifodalashlari lozim.

Izoh: Kichik guruhlar topshiriqni bajarish jarayonida mavzu yuzasidan material, dalil, fikrlarini tasdiqlovchi ko‘rgazmali-didaktik vosita, imkoni bo‘lsa, videofilm, maqola, ihtibos va boshqalarni tayyorlaydi.

“Skarabey” texnologiyasi. “Skarabey” (“Qo‘ng‘iz”) texnologiyasi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini, xotirani, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘quvchi texnologiyani qo‘llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko‘lamini aniqlash imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Texnologiya, shuningdek, turli g‘oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda ham samarali sanaladi.

Uning yordamida o‘quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga erishish mumkin: mustaqil ishlash; muloqatga erkin kirisha olish; xushfe‘llik, o‘zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish; o‘z-o‘zini baholash.

Undan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Ya’ni:



1.5-rasm. “Skarabey” texnologiyasi darsning muayyan bosqichlarida foydalanish.

Texnologiya o‘quvchi tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.





O'qituvchi o'quvchilarni texnologiyani qo'llash tartibi bilan tanishtirib, ularni guruhlariga ajratadi

Guruhlariga tarqatmali materiallar va ular asosida topshiriqlar beriladi

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10-15 daqiqa) belgilanadi

A'zolar guruh tarkibida individual ravishda tarqatmali materialda ko'rsatilgan vazifani bajaradi (bajarilgan ishning o'ng burchagiga guruhning raqami, chap burchagiga esa o'ziga tegishli bo'lgan biror belgini qo'yadi)

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatmali materiallar boshqa guruhlar bilan "Charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi

Har bir guruh tomonidan yangi material mazmuni o'rganiladi va o'zgartiriladi

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatmali materiallar yana bir bor boshqa guruhlar bilan "Charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi (guruhlar o'rtasida materiallarning o'zaro almashtirish ularning soniga ko'ra

Guruhlar (ularning har bir a'zosi) o'z yechimlarini bitta qutiga yig'adi

Materiallar so'ngi bor almashtirilgandan keyin har bir guruh (har bir o'quvchi) o'zi bajargan yechimni (guruh raqami va o'ziga tegishli belgi

Har bir guruh va uning a'zolari o'zlarining yechimlarini boshqa guruhlarining ishlari bilan taqqoslab, tahlil qiladi

O'qituvchi jamoa yordamida to'g'ri javoblarni aniqlaydi

1.6-rasm. "Charxpalak" texnologiyasini amalda osonlashtirish tartibi.

Tahlil asosida har bir guruh va o'quvchilarning faoliyati baholanadi (bir vaqtning o'zida o'qituvchilar ham o'zini-o'zi baholaydi)





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

“Charxpalak” texnologiyasi. Texnologiya o‘quvchilarda o‘rganilgan mavzularni yodga olish, ular yuzasidan mantiqiy fikrlash, savollarga mustaqil, to‘g‘ri javob berish, o‘z-o‘zini baholash malakalarini shakllantirish, o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqtda o‘quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini yaratadi. Uning maqsadi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil, erkin bayon qilish, o‘z-o‘zini baholash, individual, juftlik, guruh va jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, mavjud fikrlar orasidan muhimini tanlab olish ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishdan iborat. Texnologiyadan barcha turdagi o‘quv mashg‘ulotlarida, mashg‘ulotning boshi yoki oxirida, muayyan bo‘lim (bob) yakunida, o‘tilgan mavzuni takrorlash chog‘ida foydalanish mumkin. Shu bilan birga texnologiya o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, o‘rganilgan mavzularning o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash va baholashda ham samarali sanaladi.[3,12]

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodni qo‘llash tartibi bilan tanishtiradi

271

O‘rganiladigan mavzu yoki mavzular yuzasidan ma‘lum masala tanlanadi

O‘quvchilarga tanlangan masalaning mohiyati tushuntiriladi



1.7-rasm. “Yumaloqlangan qor” metodini amalga oshirish tartibi.

“Yumaloqlangan qor” metodi. Metod mavzuni muayyan qismlarga bo‘lgan holda o‘zlashtirish imkonini beradi, o‘quvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilar juftlik, guruh yoki jamoa bo‘lib ishlari mumkin.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash yuqoridagi tartibda amalga oshiriladi:

“Yumaloqlangan qor” metodidan muayyan bo‘lim yoki boblar o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish samaralidir.

O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan biri ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, dars o‘tishning yangi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

zamonaviy metodikasini yaratish, talabning ma'lum bir faoliyatga bo'lgan qiziqishini orttirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish hisoblanadi. Jumladan quyidagilar: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni nazarda tutadi. [1,12]

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat sinf mashg‘ulotlari, balki sinfdan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Pover point” dasturidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha o‘quvchilar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida nazoratlar o‘tkaziladi.[4,8]

Ilmiy ishimizning keyingi qismlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan kurs mavzulari misolida ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’kidlanganidek, “Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq atvorning andozalarini o‘zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Безруков А. Певоварова Г Занимательная география Москва «АСТ – ПРЕСС», 2001 г





2. Даринский А.В. Методика преподавание географии- Просвещение, Москва- 1975 г.
3. Крылов О.В. Интересный урок географии Москва, Просвещение, 1988 г
4. Maksimov N.A. Tabiiy geografiyadan metodik qo'llanma –Toshkent, O'qituvchi- 1991 y.
5. Матрусова И.С Методика обучения географии в средней школе Москва Просвещение 1985г
6. Мусаев П, Курбонниёзов Р Ўқувчиларда географиядан билим кўникма малакаларини аниқлашнинг шакл ва усллари. Тошкент.- 1993
7. Мусаев П, Мусаев Ж Ўзбекистоннинг икисодий ва ижтимоий географияси «Шарк». Тошкент.- 2014.
8. Мўминов О. Замонавий география дарсларига қўйиладиган талаблар Тошкент-“Ўқитувчи”- 1987.
- 9 Курбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. Урганч- 2001.
10. Курбонниёзов Р. Ўзбекитон географияси қизиқарли машқ ва масалалар Тошкент- «Ўқитувчи» -1997 й.
11. Farberman V. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. “Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari”. – Toshkent- 2002
12. Ishmuhamedov R va boshq. Ta'limda innovastion texnologiyalar. Toshkent- 2010.
13. Ishmuhamedov R. va boshq. Tarbiyada innovastion texnologiyalar. T.: 2008





“YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR

Abdiyeva Muhayyo Muxtarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi

muxayyoabdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada BMTning «Barqaror rivojlanish» konsepsiyasining mazmun-mohiyati, O‘zbekistonda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, “yashil” iqtisodiyot, “yashil” o‘sish, eko-innovatsiya, yangi rivojlanish modeli.

ФАКТОРЫ СОДЕЙСТВИЯ «ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ»

Аннотация: Сущность концепции «Устойчивого развития» ООН, углубление структурных изменений в Узбекистане, повышение его конкурентоспособности за счет модернизации и диверсификации ведущих отраслей национальной экономики, энергетики и ресурсов для сокращения потребления, использования широкого Освещены спектр энергосберегающих технологий для производства, цели и задачи внедрения, расширения использования возобновляемых источников энергии.

Ключевые слова: устойчивое развитие, «зеленая» экономика, «зеленый» рост, экоиновации, новая модель развития.

"GREEN ECONOMY" PROMOTING FACTORS

Abstract: The essence of the concept of "Sustainable development" of the UN, deepening structural changes in Uzbekistan, increasing its competitiveness due to the modernization and diversification of the leading sectors of the national economy, energy and resources to reduce consumption, use a wide range of energy-saving



technologies for production the goals and tasks of implementation, expanding the use of renewable energy sources are highlighted.

Key words: sustainable development, "green" economy, "green" growth, eco-innovation, new development model.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan «Barqaror rivojlanish» konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan. XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy oʻsishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu, oʻz navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha yoʻnalishlari: qishloq xoʻjaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurulish sohalari barchasi “yashil” tus olishi muhimligini anglatadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqida “2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasining” mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan toʻla hamohang ekanini taʼkidlab oʻtdi [1]. “Harakatlar strategiyasi”da moʻljallangan tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish boʻyicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalar belgilangan [2].

Oʻzbekiston Respublikasi 2015 yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030 yilga cha muljallangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalardan iborat barqaror taraqqiyot dasturini qoʻllab-quvvatlab, barqaror rivojlanishni uchta sohalari (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) boʻyicha kompleks ishlarni olib borishini maʼlum qildi [3].

Barqaror taraqqiyot 2030 dasturi yangi 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM) dan, yoki Global maqsadlardan iborat boʻlib, keyingi 15 yillik davrdagi umumjahon siyosati va sarmoyalar yoʻnalishlarini belgilab beruvchi dasturdir.

2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Xarakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi (Parij, 2015 yil 12 dekabr) majburiyatlarini bajarilishini





ta'minlash, iqtisodiyotning bazaviy tarmoklari energiya samaradorligini oshirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, "yashil" iqtisodiyotni ko'llab-kuvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlandi [4].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya


Barqaror taraqqiyot deganda doimiy miqdoriy o'sish kabi tom ma'nodagi barqarorlik emas, balki ekologik va ijtimoiy xususiyatlar inobatga olingan holda "nizosiz" rivojlanish nazarda tutiladi. "Barqaror" ma'nosini beruvchi "Sustainable" so'zini "doimiy" emas, balki "mustahkam" yoki "bardavom" deb tushunish lozim.

Oxirgi vaqtda xorijda inklyuziv barqaror o'sish konsepsiyasi (inclusive sustainable growth) ancha mashhur bo'ldi. Uning asosiy qoidalari, shu jumladan iqtisodiyot o'sishi sur'atlari va keng doiradagi ijtimoiy muammolar hal etilishi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligi, shu jumladan jamiyatda yaratilgan daromadlarni adolatli taqsimlash, bunda aholining nochor qatlamlariga alohida e'tibor qaratish to'g'risidagi xulosa dastlab XX asr 80-yillarida olimlar tomonidan ishlab chiqildi[5].

"Yashil" iqtisodiyot energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiyaning muqobil manbalariga, organik qishloq xo'jaligiga, ekodevelopmentga (atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatgan holda qurilishga), ilg'or logistikaga asoslanadi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotga tabiatga ziyon yetkazmay rivojlanish va aholining ekologik farovonligini saqlash imkonini beradi, tabiiy kapitalni saqlash va oshirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, zaharli moddalar va uglerod chiqarilishini kamaytiradi, bioxilmaxillikni kengaytiradi, shuningdek aholi daromadlari va bandligini oshiradi. Ham birlamchi, ham ikkilamchi resurslardan ehtiyotkor va oqilona foydalanish "yashil iqtisodiyot"ga xos, bunda an'anaviy iste'molga o'rgangan jamiyat mas'uliyat bilan iste'mol qiluvchi jamiyatga aylanadi. "Yashil iqtisodiyot" modeli inson faoliyati va tabiat hamkorligini normallashtiradi[6].

Tahlil va natijalar

Atrofdagi tabiiy muhitni monitoring qilish tizimini modernizatsiyalashga ustuvor ahamiyat berilmoqda, bu mavjud muammolarni kompleks hal qilish imkonini beradi. Qattiq maishiy chiqindilarni davlat-xususiy sheriklik asosida utilizatsiya qilish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etgan holda ularni kompleks boshqarish klasterlari yaratilgan.





Bu ko'p jihatdan quyidagilar bilan bog'liq. O'zbekistonning o'ziga xos iqlim va geografik xususiyatlari, uning noyob ekotizimlari va atrof muhit, energiya ishlatishga kamaytirishga, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan innovatsion siyosat ustuvorliklari;

energiya samaradorligini oshirish va energiyaning qayta tiklanuvchi manbalarini rivojlantirish, energiya tejovchi va kam uglerod sarflaydigan sanoatni rivojlantirish, ekosohani tiklashning muhim loyihalarini amalga oshirish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha milliy siyosat ishlab chiqish va joriy etish.

Ko'pchilik mamlakatlardagi hozirgi "jigar rang" iqtisodiyotning modeli mukammal emas va jamiyat farovonligi umumiy darajasini oshirishda ijobiy natijalarga qaramay, bo'lajak avlodlar uchun ancha salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda samarali, resurs tejovchi va ekologik havfsiz iqtisodiyotni rivojlantirish jahon va milliy iqtisodiyotlarning ajralmas qismiga aylanmoqda, bu milliy qonun hujjatlariga yangi ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza qilish standartlari joriy etilishini rag'batlantiradi, "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror taraqqiyotga o'tishga va sifat jihatidan yangi raqobatbardosh muhitni shakllantirishga ko'maklashadi.

"Yashil iqtisodiyot" – bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo'lishi kerak. Yashil iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta'sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo'lmaydi;
- resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- Yer yuzasida hamma narsa bir-biri bilan bog'liq.

Iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelidan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish – bu umumjahon trendi bo'lib, u nafaqat alohida milliy iqtisodiyotlarning, balki umuman butun jahon iqtisodiyotining barqarorligini belgilab beradi, "yashil iqtisodiyot"ni ilgari surish esa taraqqiyotning asosiy yo'lidir. 2009 yil iyunda 34 ta mamlakat Yashil iqtisodiyot deklaratsiyasini imzoladi va "ham inqirozdan chiqish uchun ko'rilyotgan chora-tadbirlar doirasida, ham uning doirasidan tashqarida yashil o'sish strategiyalarini joriy etish uchun sa'y-harakatlarni mustahkamlashini, "yashil" va "o'sish" tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liqligini tan olishini" ma'lum qildi.

"Yashil" o'sish iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishni anglatadi, bunda tabiiy aktivlar saqlanadi va resurslar va ekotizim xizmatlari uzluksiz taqdim





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

etiladi. Bizning farovonligimiz ularga bog‘liq. Buning uchun yashil o‘shish barqaror taraqqiyotni ta‘minlaydigan va yangi iqtisodiy imkoniyatlar paydo bo‘lishiga olib keladigan investitsiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirishi hamda ulardan keng foydalanishi kerak.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (Atrof-muxit bo‘yicha dastur – United Nations Environmental Programm – UNEP-YuNEP; Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya – ESKATO va hokazolar), Global “yashil” o‘shish instituti (Global Green Growth Institute – GGGI) kabi xalqaro tashkilotlar va ko‘plab boshqa tashkilotlar “Yashil” o‘shish strategiyasini targ‘ib qilishda faol rol o‘ynaydi.

Boshqacha aytganda, xalqaro hamjamiyat “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish yo‘llarini izlashga majbur. Bunday iqtisodiyot resurs tejovchi va ekologik zararsiz ishlab chiqarish tayangan holda insonlar farovonligini oshiradi va atrof muhit uchun havf-xatarni kamaytiradi.


Biroq “yashil iqtisodiyot” samaradorligini baholashda ishtirok etuvchi tashkilotlar va idoralar xilma-xilligi bir qator tarmoqlar va ustuvorliklarni o‘z ichiga oluvchi “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini ham, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi ham keng talqin qilinishiga olib keladi.


YuNEP (UNEP) “yashil iqtisodiyot”ni shunday iqtisodiyot deb ta‘riflaydiki, unda u uzoq muddatli istiqbolda insonlar farovonligini yaxshilaydi, ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi va bo‘lg‘usi avlodlar uchun ekologik havflar hamda taqchillikni jiddiy ravishda kamaytiradi.

“Yashil iqtisodiyot” atrof muhitni, bioxilmaxillikni va ekotizim xizmatlarni saqlash, “yashil” ish o‘rinlari tashkil etish imkoniyatini va qashshoqlik muammosi hal etilishini ta‘minlovchi barqaror taraqqiyot masalalarini qamrab oladi.

Yuqoridagi to‘siqlarni bartaraf etish uchun atrof-muhit siyosatini amalga oshirish vositalarini to‘g‘ri ishlab chiqish muhimdir. Soliq va emissiya ruxsatnomalarini sotish kabi bozor vositalarining aniq ustunligi uzoq vaqtlardan buyon yuqori dinamik samaradorlikka ega ekologik siyosat vositasi sifatida o‘zining yetakchi rolini egallab keladi. Ularning afzalliklari shundaki, ular xarajatlarni kamaytirishga doimiy rag‘batlantiradi.

XULOSA





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida O‘zbekistonning innovatsion, ekologik mo‘ljal olgan rivojlanish modelining shakllari va mexanizmlarini rivojlantirish quyidagilarga asoslanishini talab qiladi: tabiatning alohida elementlarini muhofaza qilishdan umuman ekologik tizimlarni muhofaza qilishga o‘tish; inson yashaydigan muhitning optimal parametrlarini kafolatlash; iqtisodiyot sohalarini “yashil iqtisodiyot” tamoyillari bo‘yicha rivojlantirish mexanizmlari bilan o‘zaro aloqalarni uyg‘unlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи <http://www.pressservice.uz/uz/lists/view/1063>

2. Rustamovich, S. Z. Specific Aspects of Implications of Foreign Investments on the Integration of the National Economy into the Global Economy. International Journal of Research, 6 (3), 2019. 451-458.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси.//Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь. № 19 (7521). 1-2 бетлар.

4. Узбекистан поддерживает цели устойчивого развития ООН до 2030 года. <http://www.trend.az/casia/uzbekistan/2438516.html>


5. 2019-2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иктисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4477-сон қарори.//Lex.Uz.

6. Перелет Р. А. Направления стратегии “зеленого роста”. //http://rospromeco.com/expertное-mnenie/28- analytic/expertное-mnenie/94-mnenie-7

7. Глобальный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЕП, 2009 www.unep.org/greeneconomy/portals/30/docs/GGNDpolicy-brief_Russian.pdf

8. Lyaskovskaya E.A. [Working forces quality problems at realizing modern development concepts]. Vestnik Bashkirskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta [Vestnik Bashkir State Agrarian University], 2017, no. 4 (44), pp. 137-145. (in Russ.)

9. Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshev G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

with reindustrialization model. Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics], 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.)

10. Navstrechu zelenoy ekonomike. Puti k ustoychivomu razvitiyu i iskoreneniyu bednosti obobshchayushchiy doklad dlya predstaviteley vlastnykh struktur [Towards a Green Economy. Ways to Sustainable Development and Poverty Alleviation Is a General Report for Representatives of Power Structures]. Available at: http://old.ecocongress.info/5_congr/docs/doklad.pdf (accessed: 30.11. 2017).



INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA TANA A'ZOLARI NOMLARI QATNASHGAN IBORALARNING O'ZARO TAHLILI

Sharipova Sarvinoz

SamDCHTI ingliz tili o'qituvchisi

Ziyadullayeva Sitora

SamDCHTI 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tilidagi iboralarda inson tana a'zolarining qatnashishi va ularning ma'nolari o'zaro tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologizm, ibora, obrazli ifoda, iboralar qatlami, frazeologik birlik, frazeologik qo'shilma, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma.

ВЗАИМНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗОВ С НАЗВАНИЯМИ ЧАСТЕЙ ТЕЛА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье представлена информация об уникальных аспектах фразеологизмов английского и узбекского языков. Также было проанализировано участие частей тела человека и их значения в английских и узбекских выражениях.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, словосочетание, образное выражение, фразеологический пласт, фразеологизм, фразеологический состав, фразеологическое целое, фразеологическое сочетание.

MUTUAL ANALYSIS OF PHRASES INVOLVING THE NAMES OF BODY PARTS IN ENGLISH AND UZBEKI

Abstract: This article provides information about the unique aspects of phraseological units in English and Uzbek. Also, the participation of human body parts and their meanings in English and Uzbek expressions were analyzed.

Key words: Phraseology, phraseologism, phrase, figurative expression, layer of phrases, phraseological unit, phraseological compound, phraseological whole, phraseological combination.





Ma'nosi bir so'zga teng bo'lgan so'zlar birikmasi yoki gaplarga, ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'lgan, yaxlit ma'no anglatuvchi turg'un til birligiga frazeologizm yoki ibora deyiladi.

Iboralar ma'nodoshlari bo'lgan so'zlarga qaraganda kuchli darajada ma'no ifodalaydi va ularning obrazlilikini yorqinroq aks ettiradi. Frazeologizmlar kundalik hayotda bo'lib o'tadigan turli xil voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, insonlarning turli-tuman bo'lgan harakat-holatlariga baho berish, ko'p yillik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq tomonidan yaratilgan aniq, ravshan bo'lgan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari hisoblanadi.

Frazeologik birlik - tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor xolda kiritiladigan lug'aviy birlik. Turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi. Masalan, "tomdan tarasha tushganday", "oyog'ini qo'liga olmoq", "sichqonning ini ming tanga" va boshqalar. Frazeologik birliklarning odatda uch xil turi ko'rsatiladi:


1) Frazeologik qo'shilma. Tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nosi saqlanadigan, biri ikkinchisining bog'li ma'nosini reallashtiruvchi nutqiy matn vazifasini o'taydigan sintagma. Masalan, "qo'l ko'tarmoq", "ishtaxasi ochilmoq" kabi;

2) Frazeologik butunlik. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlash mumkin bo'lgan frazeologik birliklar. Masalan, "misi chiqdi", "xamir uchidan patir" kabilar;

3) Frazeologik chatishma. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmaydigan, hatto unga zid ma'no ifodalaydigan frazeologik birliklar. Masalan, "oyog'ini qo'liga olmoq" (juda tez yurmoq, yugurmoq) kabi[1].

Frazeologiya iboralar haqidagi bo'limdir va bu tushunchani 1928-yilda E.D.Polivanov quyidagicha qo'llagan: "Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo'lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni "frazeologiya" degan termini qo'llashni lozim topdim"[2].

Ushbu sohaning rivojlanishida V.Vinogradov, A.Yefimov, A.Shaxmatov, Sh.Raxmatullayev, N.Shanskiy, Y.Pinxasov, M.Husanov, I.Qo'chqortoyev, B.Yo'ldoshev singari olimlar xizmat qildilar. Ular orasidan Sh.Raxmatullayev o'zbek frazeologiyasini ilmiy asosda tadqiq qilgan. Olimning ushbu sohaga bag'ishlangan quyidagicha tadqiqot ishlari mavjud:





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

“O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (T.1978), “O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati” (T.1964), “O‘zbek frazeologiyasining ba‘zi masalalari” (T.1966), “Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка” (M.1952), “Hozirgi zamon o‘zbek tili” (T.1957) va h.z.

Har bir xalqning o‘ziga xos iboralar bazasi bo‘lib, iboralar qatlami o‘sha xalqning urf-odatlarini, turmushini, xarakterlarini, dunyoqarashlarini, o‘zida aks ettiradi. Ularning asosiy mazmunini yoritishda va bo‘yoqdorligini oshirishda turli xil narsalarni, inson ta’na a’zolarini, hayvon nomlarini obyekt sifatida olib, ularni ko‘chma ma’noda ifodalash tariqasida aytilmoqchi bo‘lgan ma’noni yanada ta’sirli chiqishiga ko‘maklashadi. Masalan, inson tana a’zolari ishtirok etgan iboralar hozirga qadar N.F.Aliferenko, A.M.Chepasov, L.P.Gashayeva, V.A.Lebedinskaya, Y.R.Ratushnaya singari olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Inson ta’na a’zolarining qo‘llanilishini o‘zbek va ingliz tili uchun xosligi haqida M.I.Gadoyeva va F.I.Karimovalar o‘zlarining fikrlarini quyidagicha izohlashgan: “Frazeologizmlar tarkibida inson tana a’zolarining qo‘llanilishi ham ingliz tili, ham o‘zbek tili uchun xosdir. Masalan, inson ta’na a’zosi hisoblanmish “bosh” so‘zini misol tariqasida olsak, ingliz tilidagi “head in the clouds” iborasi o‘zbek tilidagi “boshi ko‘kka yetmoq” iborasiga teng bo‘lib, “cheksiz quvonch, shodlik” ma’nolarini ifodalaydi”[3].

O‘zbek va ingliz tillarining ikkisida ham inson tana a’zolari qatnashgan frazeologizmlar mavjud bo‘lib, ular ma’no jihatidan bir-biriga muvofiq keladi.

Masalan:

“Beat one’s brains out” iborasida “brain - miya” so‘zi qatnashgan bo‘lib, u o‘zbek tilida “miyasini qotirmoq” deb tarjima qilinadi. Uning mazmuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “diqqat bilan o‘ylamoq” degan ma’noni anglatadi. Masalan, I’ve been beating my brains out all week trying to finish this essay. Ushbu misolda butun hafta davomida inshoni tugatishga qattiq kirishganini “beat one’s brains out” iborasi orqali ifoda etilmoqda.

“To vote with one’s feet”. Ushbu iborada “feet - oyoq” so‘zi ishtirok etgan va u o‘zbek tilida “oyoqqa turmoq” degan tarjimaga ega hisoblanadi. Uning ma’nosi esa “o‘z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq” hisoblanadi. Masalan, It





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

seems thousands of people are already voting with their feet, and leaving the country in the hope of a better life.

Ushbu misolda minglab odamlarning yaxshi hayot umida mamlakatni tark etishga kirishganlarini “to vote with one’s feet” iborasi orqali ifoda etilmoqda.

“To plug one’s mouth” iborasida “mouth - og‘iz” so‘zi qatnashgan bo‘lib, u o‘zbek tilida “og‘ziga talqon solmoq” degan iboraga tengdir. Uning mazmuni esa “mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik” hisoblanadi. Masalan, The teachers told us to plug our mouths shut during the entire presentation, or you can’t tell peter anything.

Ushbu misolda esa o‘quvchilarning butun taqdimot davomida gapirmasdan turishliklari kerakligini “to plug one’s mouth” iborasi orqali ifoda etilmoqda.


“Bite one’s tongue”. Ushbu iborada “tongue - til” so‘zi ishtirok etgan va uning o‘zbek tilida “tilini tishlamoq” degan tarjimaga ega hisoblanadi. Uning ma‘nosi esa “o‘zini gapirmaslikka majbur qilmoq, nojoiz gap gapirib qo‘yishdan saqlanish” hisoblanadi. Masalan, I had to bite my tongue and accept his explanation. Ushbu misolda gapirmasdan uning tushuntirishini qabul qilishi kerakligini “bite one’s tongue” iborasi orqali ifoda etilmoqda.

“One’s head is buzzing”. Bu iborada “head - bosh” so‘zi qatnashgan bo‘lib, u o‘zbek tilida “boshi shishmoq” degan iboraga tengdir. Uning mazmuni esa “o‘ylayverib gangimoq” hisoblanadi. Masalan, I had so many questions – my head was buzzing. Ushbu misolda savollari ko‘pligidan boshi gangib qolgani “one’s head is buzzing” iborasi orqali ifoda etilmoqda.

“Stick one’s nose in”. Ushbu iborada “nose - burun” so‘zi ishtirok etgan va uning o‘zbek tilida “burun suqmoq” degan tarjimaga ega hisoblanadi. Uning ma‘nosi esa “aralashmoq” hisoblanadi. Masalan, I was doing just fine before he came and his nose in. Ushbu misolda u kelishidan oldin ishlari yaxshi ketayotganini u kelgach ishlariga aralashib ketgani “stick one’s nose in” iborasi orqali ifoda etilmoqda.

“Be up to (one) neck in (something)”. Bu iborada “neck - bo‘yin” so‘zi qatnashgan bo‘lib, u o‘zbek tilida “bo‘yniga tushmoq” degan iboraga tengdir. Uning mazmuni esa “yuklamoq” hisoblanadi. Masalan, She’s up to her neck in work. Ushbu misolda ish unga yuklatilganligi “be up to one’s neck in” iborasi orqali ifoda etilgan.

“Get stars in one’s eyes”. Ushbu iborada “eye - ko‘z” so‘zi ishtirok etgan va uning o‘zbek tilida “ko‘zini shira bosmoq” degan tarjimaga ega hisoblanadi. Uning





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ma'nosi esa "takabburlanmoq, tanib tanimaganga olmoq" hisoblanadi. Masalan, I know she got starts in her eyes when she started up her business. Ushbu misolda u biznesini boshlagan vaqtlaridagi uning takabburlanganligini bilishi haqida aytib o'tgani "get stars in one's eyes" iborasi orqali ifoda etilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, iboralar muayyan tushunchani ko'chma ma'noda ifodalab, frazeologik birliklarda bo'yoqdorlik, mazmunning yanada go'zallashishi, obrazlilik kabi xususiyatlar bo'rttirishiga o'z xissasini qo'shadi. Asosan, insonlar o'z nutqlarida ko'p ishlatiladigan elementlardan biri bu inson tana a'zolari qatnashgan frazeologizmlar bo'lib, ularni o'z nutqimizda to'g'ri qo'llay bilishimiz nutqimizning yanada jozibador bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.
https://.sg.docworkspace.com/d/sIPzXpc_4AcLmiLEG
2. Azimovna, R. F. (2024). Youth Entrepreneurship and its Development Measures. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(1), 340-343.
3. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. Science and innovation, 3(B1), 29-34.
4. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
5. Umarxo'jaev M.E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. – Andijon:ADTPI, 2010.-150b.
6. Gadoyeva M.I. Mehmonova Yulduz. Ingliz va o'zbek tillarida noaniqlik ma'nosining sifatlar orqali ifodalanishi.
https://sg.docworkspace.com/d/sIDLXpc_4AYb1iLEG
7. Omanbaevna, O. M. (2020). MYTHS AND MODERN UZBEK STORIES (some commentary on the story of Nazar Eshankul's" The tune of a flute" myth-story). ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(12), 49-53.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

9. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 5-12.

10. Sharipova, S., & Xalimova, F. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF TEACHING A LANGUAGE IN THE CLASSROOM AND THEIR SOLUTIONS. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 133-135. <https://doi.org/10.2024/41yemx68>





**ESHQOBIL SHUKUR “BOBO SO‘Z IZIDAN” ASARIDA KELITIRILGAN
SO‘ZLARNING MAHMUD
QOSHG‘ARIY VA NAVOIY ASARLARIDA UCHRASHI.**

Hamidov Abdumalik

Termiz davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti dekani

Rajabova Sabohat

Termiz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Eshqobil Shukur “Bobo so‘z izidan” asarida keltirilgan so‘zlarning Mahmud Qoshg‘ariy va Navoiy asarlarida uchrashini va hozirda o'sha so'zlardan qay tarzda foydalanilishi tahlil qilinadi. O'zbek tilida so'zlarning asarlarda va kundalik so'z boyligimizda ishlatilishi ham anchayin muhim hisoblanadi. Shu sababli yozuvchining ushbu asarini keng o'rgansa arziydi. Bu bilan nutqimizda ulardan to'g'ri foydalana olish imkoniyatimiz oshadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Muhokamat ul lug'atayn", Mahmud Qoshg'ariy, "Devonu lug'otit turk", ibora, maqol, so'zlar.


**МАХМУД О СЛОВАХ, ЦИТИРОВАННЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «БОБО
СОЗ ИЗИДАН» ЭШКАБИЛЯ ШУКУРА
ВСТРЕТИЛИСЬ В РАБОТАХ КАШАГАРИ И НАВОИ.**

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется встреча слов, упомянутых в произведении Эшкабиля Шукура «Баба Соз Изидан», в произведениях Махмуда Кашгари и Навои и то, как эти слова используются в настоящее время. Очень важно также использование слов узбекского языка в произведениях и в нашем повседневном словаре. Поэтому стоит изучить это произведение писателя. Это повысит нашу способность правильно использовать их в речи.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Мухокамат ул лугатайн», Махмуд Кашгари, «Девону луготит тюрк», фраза, пословица, слова.

**MAHMOUD OF THE WORDS QUOTED IN THE WORK OF "BOBO SOZ
IZIDAN" BY ESHQABIL SHUKUR
MET IN THE WORKS OF KASHAGARI AND NAVOI.**





ABSTRACT

This article analyzes the meeting of the words mentioned in the work of Eshkabil Shukur "Baba Soz Izidan" in the works of Mahmud Kashgari and Navoi and how those words are used now. The use of words in the Uzbek language in works and in our everyday vocabulary is also very important. Therefore, it is worth studying this work of the writer. This will increase our ability to use them correctly in our speech.

Key words: Alisher Navoi, "Muhokamat ul lug'atayn", Mahmud Kashgari, "Devonu lug'otit turk", phrase, proverb, words.


KIRISH.

Eshqobil Shukur "Bobo so'z izidan" asari tamomila lingvistik usulda yozilgan hisoblanadi. Unda dialektal so'zlarni ham, tarixiy so'zlarni ham, chetdan o'zlashgan va yasama so'zlarni ham uchratishimiz mumkin. Yana Eshqobil Shukur o'zining ushbu asarida jami 418 ta so'zni keltirib o'tgan. Bu so'zlarni izohlashda yozuvchi izohli lug'at, etimologik lug'at, Mahmud Qoshg'ariy, Navoiy va boshqa adiblarning asarlaridan foydalangan. Yozuvchi har bir so'zning kelib chiqishini astoydil bilishga uringani ko'rinib turadi. Kitobda har bir so'z sarlavha qilib berilgan va o'sha so'z haqida so'z yuritilgan. So'zlarni o'rganilishida folklorshunoslikka ham e'tibor qaratilgan ya'ni urf-odatlar, o'yinlar, mavsumiy qo'shiqlarning kelib chiqishi ham tushuntirib o'tilgan.

Asosiy qism

Eshqobil Shukur "Bobo so'z izidan" asarida kelgan bir so'z diqqatimni tortdi bu 'beshik kerti' degan so'zdir. 'Beshik kerti' so'zini eshitganman, bu bir udum hisoblanadi. Unga yaqin-yaqindan beri amal qilib kelishadi. Bu udumning ma'nosi shuki, qiz bola chaqaloqlida kimgadir unashtirish degani, ba'zi joylarda bu udum "qulog'ini tishlatdi" deb ham ataladi. Endi qaraydigan bo'lsak, "beshik kerti" so'zidagi "beshik" bu hammamizga tanish, lekin "kerti" nima degani ekan?! Mahmud Qoshg'ariy izohlashiga ko'ra "kertik so'zi" "belgi" degan mazmunda keladi. "Kertik" esa "kesilgan", "o'yiqlik" deb ta'riflangan. Bunday olib qarasaq bu ibora, bu udum "beshigida belgili qildi" degan ma'noni englatar ekan.

Biror joyga qo'yilgan nomlar ham odamni o'ziga tortadi, ma'nosi nima ekan, nega bunaqa nom qo'yilgan ekan degan qiziqish paydo qiladi. Bunday joy nomlaridan biri Toshkent viloyatidagi "So'qoq" deb ataladigan so'lim maskandir. "So'qoq" so'zini mahalliy aholi "suvi ko'k" ma'noda izohlaydi. Lekin qadimda "so'qoq" so'zi "oq kiyik"





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

degan ma'noni bildirgan. Mahmud Qoshg'ariy "soqaqlig' tağ" (kiyikli tog') degan iborni ham keltirib o'tgan.

Tilimizda ishlatiladigan bir so'z bor bu "kuyov" so'zidir. Bu so'z ham Mahmud Qoshg'ariyning asarlarida kelgan. "Kuyov" so'zi Mahmud Qoshg'ariyning asarida "kuzagu" shaklida kelgan. "Kuyov" so'zining ma'nosi "chiroyli" degani deb aytib o'tilgan. Chunki "kuyov" so'zida ko'rk va navqironlik bordir.

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, quyosh.

Ushbu misra G'afur G'ulomning "sog'inish" she'ridan keltirilgan. "Sog'inish" bu so'z ham uzoq tarixdan beri ishlatilib kelinadi. Mahmud Qoshg'ariy ham uning mazmunini shunday sharhlagan: Bu mazmun juda qiziq va ajoyib! Bunda "Men uni sog'indim" deyayotgan odamning kechinmalaridan ko'ra sog'inilgan odamning siyosi oldinda turadi. Darhaqiqat, bu so'z hozir ham birov uchun kuyinish, birov uchun qayg'urish va intilish mazmunini anglatadi.

Yana bir so'zga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'z "dangal" idir. Rostan ham bittagina so'z ko'p kechinmalarni ifoda eta oladi. Biz hozirda "dangal" so'zini lo'nda, bir so'zli, mard ma'nolarida tushunamiz. Xo'sh, "dangal" so'zi qanday paydo bo'lgan? Uning dunyoga kelishiga asos nima? Qadimda bu so'zning asl ma'nosi shunday bo'lgan: arpa va bug'doylar o'rilgach, ularning dastma-dasta qilib bog'langan bog'i "dangal" deyilgan. Bu Mahmud Qoshg'ariyning izohidir. Qarangki, odam ham o'zini eplay olmay har tarafga hasday sochilib yotsa, bir butun holga kelolmasa, u hech qachon dangal bo'lolmaydi. "Dangal odam" iborasi asosan odamning qat'iyatini va mustahkam sifatlarini ifodalash uchun qo'llaniladi.

Nutqimizda qo'llab kelayotgan "tirik" so'zi haqida ham to'xtalib o'tmoqchiman. Tirik" nimasi bilan tirik? Biz har kuni ko'p va takroriy ishlatadiganimiz "tirik" so'zi har doim tirik va tetik. Bu so'zdan harakat va mehnat nafasi kelib turadi. Mahmud Qoshg'ariy izohlashiga ko'ra "tir" so'zi asli "yasha" degan ma'noni anglatadi. Demak, "tirik" so'zi ham aynan shu "tir" so'zidan kelib chiqqan. O'z-o'zindan ayonki, tirik yashashi bilan tirik.

Ko'p so'zlarni orzu qilganimizda, hissiyotga berilganimizda so'zlaymiz. Shunday so'zlardan biri bu "quloch och" biz orzularimizga erishish uchun unga "quloch





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

och"ishimiz haqida ko'p aytamiz. Aslida bu so'z qanday paydo bo'lganini hozir aytib o'taman. Mahmud Qoshg'ariy "quloch" so'zini "qo'l va och"dan kelib chiqqan deya izohlagan. Yana boshqa olimlar turli tahminlarni ilgari suradilar. Lekin Qoshg'ariy fikri asosli quriladi. Chunki quloch odamning ikki qo'li ikki yonga yoyilganda, qo'li keng ochilganda hosil bo'ldi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati" da bu so'zni "qo'l" va "uch" otlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, ikki qo'l uchi orasidagi o'lchov ma'nosini ifodalaydi. Bu faraz ham mulohazaga yo'l ochib beradigan faraz.

Yana bir so'zdan biri bu "yozi" so'zidir. Biz faslga nisbatlab bu so'zni ishlatamiz. Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida shunday misralar bor.

So'kso'k kibikim chu bo'ldi suda,

Yotqay yozi uzra to'da-to'da.

Mazmuni: bu suyaklar cho'llardagi chirigan saksovullardek to'da-to'da bo'lib yotar edi. Bundan ko'rinadiki Navoiy ham "yozi" so'zini cho'l ma'nosida qo'llayapti.

Eshqobil Shukur "Bobo so'z izidan" kitobida yana bir "qaymoq-quymoq-suymox" nomli sarlavha bilan bu so'zlarni izohlab bergan. Mahmud Qoshg'ariy "Devon" ida "qaymoq" so'zi "quyuqlandi" so'zidan kelib chiqqan deb izohlanadi. Qadimda "yoğ"ning" moy" so'zidan tashqari "qay" shakli ham bo'lgan ekan. Demak, "qaymoq" "yog'landi", "yog'li bo'ldi" ma'nolarini ifoda etadi. Bu o'rinda "quyuqlandi" so'zi ham tub ildizga yaqin keladi. Endi "quymoq" so'ziga keladigan bo'lsak, bu so'zning paydo bo'lishiga "quyish, quymoq" fe'li asos bo'lgan bo'lishi ehtimolga yaqin. Lekin quymoq pishirishda ham suyuq tuxum quyuqlanadi. Xakas tilida ham "suymox" so'zi bor. Ma'lumki, turkiy tillarda "sok", "sharbat" ma'nosida ifodalangan so'zni kam uchratamiz. "Suymox" so'zi shu "sharbat" ma'nosini ifoda etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining ushbu kitobini har bir o'zini o'zbekman degan inson olib o'qishi kerak. Chunki unda ozmi-ko'pmi milliyligimiz, so'zlarimizning asrlar osha yashaganligi, qaysi tildan qay holda tilimizda o'rnashganligi, urf-odat, udumlarimiz, tilimizda ishlatib kelinayotgan ibora, maqollar aslida qay ko'rinishda bo'lgan, ularning ma'nolari qanday, nega bu so'z shu shaklga kelganligi aniq izohlar bilan, tushuntirishlar bilan juda yaqqol ta'riflab berilgan. Bu kitobni o'qish oson, anglash osondir. Adabiy tilning shakllanishi, baland maqomi, sheva xazinasidagi so'zlarni iste'molga olib kirishi va esdan chiqqan tub so'zlarning qayta qo'llanishida adiblarning benazir badiiy tafakkuri vosita bo'ladi. Xalq ichidan olingan jonli so'zlar



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ularning ijod xumdonida toblanadi, pishadi, qayralib sayqal topadi. Shu zaylda xalqning tuganmas xazinasiga, muomala-munosabatlarida ma'naviy mulkiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.wordunscramble>
2. <https://cyberleninka>
3. <https://www.iberdrola.com>

ESHQOBIL SHUKUR "BOBO SO'Z IZIDAN" ASARIDA SO'ZLARNING LUG'ATLARDAN FOYDALANIB TAHLIL QILINISH TADQIQI.

Hamidov Abdumalik

Termiz davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti dekani

Rajabova Sabohat

Termiz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Eshqobil Shukur "Bobo so'z izidan" asarida so'zlarning lug'atlardan foydalanib tahlil qilinishi haqida yozilgan bo'lib, undagi so'zlar turli tillar va etimologik, izohli lug'atlardan foydalanib izohlangan. Bu bilan, biz uchun tushunarsiz, hozirda tilimizda eskirgan, ishlatilmayotgan va yoki o'z ma'nosini yo'qotib boshqacha tushuniladigan so'zlarning ma'nolarini oson anglab olishimizga aynan shu maqola anchagina yordam beradi.

Kalit so'zlar: izohli lug'at, etimologik lug'at, so'zlar, ma'nolar, til.

ЭШКАБИЛЬ ШУКУР ИЗУЧЕНИЕ АНАЛИЗА СЛОВ С ПРИМЕНЕНИЕМ СЛОВАРЕЙ В РАБОТЕ «БОБО СОЗИЗДАН»

АННОТАЦИЯ

Данная статья написана об анализе слов с помощью словарей в произведении Эшкабила Шукура «Баба соз изиздан», в котором слова объясняются с использованием разных языков и этимологических, толковых словарей. При этом данная статья поможет нам легко разобраться в значениях слов, которые нам непонятны, устарели, не используются в нашем языке или утратили свое значение и понимаются по-другому.

Ключевые слова: толковый словарь, этимологический словарь, слова, значения, язык.

ESHQABIL SHUKUR STUDY OF ANALYSIS OF WORDS USING DICTIONARIES IN THE WORK "BOBO SOZIZYDAN"

ABSTRACT

This article is written about the analysis of words using dictionaries in the work of Eshqabil Shukur "Baba soz izidan", in which the words are explained using different languages and etymological, explanatory dictionaries. With this, this article will help



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

us to easily understand the meanings of words that are incomprehensible to us, are now obsolete, are not used in our language, or have lost their meaning and are understood in a different way.

Key words: explanatory dictionary, etymological dictionary, words, meanings, language.

KIRISH.

Bir kecha-kunduzda nechta soʻz ishlatamiz? Shu soʻzlarimizning har birining asl mazmunini bilamizmi? Agar ishlatayotgan soʻzlarimiz maʼnosini toʻliq anglaganimizda edi, naqadar oʻzimizni, oʻzligimizni anglagan, tilga – elga – bizni ulgʻaytgan shu zaminga sadoqatimiz, mehrimiz yanada ortgan boʻlur edi. Zotan, Soʻzdan uzoqlashgan odam oʻzidan uzoqlashadi. Oʻzidan olislab ketayotgan odamning maʼnaviyati ham, oʻzi ham zavolga moyildir. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi, taniqli shoir Eshqobil Shukurning "Bobo Soʻz izidan" kitobi bevosita soʻzga, soʻzki, xalqimiz tarixiga tomirdosh boʻlgan, turkiy tillar oilasida xazinasini, jozibasini, rang-u harorati, qoʻyingki, sharafi baland asl oʻzbek soʻzlariga boʻlgan katta muhabbati tufayli, ularni asrab qolishdek ezgu niyat samarasi oʻlaroq maydonga keldi. Hayot ummonida suzib borayotgan Til kemasining har bir yoʻlovchisi shu ulugʻ ulov taqdiriga javobgar. Shu maʼnoda, "Bobo Soʻz izidan" kitobi maʼnaviy hayotimiz uchun bugun eng dolzarb asarlardan bittasi, desak, mubolagʻa emas. Shoirning soʻzlar tarixiga qilgan sayohatida unga yoʻldosh boʻlish hammaga ham nasib etadi degan umiddaman.

Asosiy qism

"Bobo soʻz izidan" asarida kelgan "bulduruq" soʻziga eʼtibor qaratsak, bu soʻzga "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" da quyidagicha izoh berilgan:

bulduruq

ot

1. Ayoqli, sovuq kunlari yoki tuman paytlarida nam havo zarralarining muzlashi natijasida hosil boʻladigan mayda qattiq qor; qirov.

Tushdan keyin osmon yuzini sargʻish tuman qoplab, mayda bulduruq yogʻa boshladi.

Mirmuhsin, Chiniqish

Koʻprik ustidagi qayragʻoch novdalarini bulduruq oʻrab, tanasigacha oppoq qilib qoʻygan.





S. Ahmad, Ufq

Ertalabki tuman tarqalib, daraxt shoxlariga yopishgan bulduruq zarralari gavharday yaltiray boshladi.

A. Muxtor, Chinor

2. ko‘chma ma'noda

sohning oqi; oqargan soch.

Bir vaqt yuragimni sevgiga maskan etgan qora sochga qo‘nmish bulduruq.

S. Zunnunova

BULDURUQ so‘zi qatnashgan jumlar:

Bulduruq — bog‘lamoq

Bulduruq zarralari bilan qoplanmoq.

Yo‘lakda bulduruq bog‘lagan oppoq akatsiya tagida kelishgangina bir qiz bilan Akbarali turardi.

A. Muxtor, Chinor

qamishlar bulduruq bog‘lab, oppoq bo‘lib qolgan ekan.

Sh. Xolmirzayev, So‘nmas o‘t

"Nima bo'lganda ham, "bulduruq" ajoyib so'z!", — deb yozadi Eshqobil Shukur.

"Lagan" so'zi hammamizga tanish so'zdir. "Lagan-lagan osh", "lagandagi oshni paqqos tushirdi" shu kabi gaplarni ko'p aytamiz. Ammo, bu so'zning ma'nosi nima ekan deb o'ylantirgan Eshqobil Shukurni. Shundan so'ng u "O'zbek tilining etimologik lug'ati" ga yuzlangan. Lug'atda shunday izohlangan:

LAGAN — quyuyq ovqat solinadigan katta yassi idish.

Anvar o‘rtaga dasturxon yozib, ikki lagan manti chiqarib qo'ydi (Abdulla Qodiriy).

Qadimgi turkiy tilda 'yog‘ochni o‘yib yasalgan idish' ma’nosini anglatgan lag‘un so‘zi mavjud bo‘lib, hozirgi o‘zbek tiliga ma’nosi o‘zgarib yetib kelgan; tovush jihatidan esa dastlab g‘ undoshi g undoshiga almashgan, shundan keyin birinchi bo‘g‘indagi a unlisi ä unlisiga, so‘ngra ikkinchi bo‘g‘indagi u unlisi ham ä unlisiga almashgan: lag‘un > lagun > lägun > lägän.

Eshqobil Shukur yana bir so'z "danak" — bu so'zga ham to'xtalib o'tishni lozim topgan. "Danagidan mag'zi shirin" deb ko'pincha momo-bobolar nabirasiga nisbatan ishlatishadi. Xo'sh, bu so'zning ma'nosi "O'zbek tilining etimologik lug'ati" dan qarab ko'ramiz. DANAK — ot so'z turkumi, tojik tilida donak tovush tarkibiga ega bo‘lib,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

asli don otidan -ak qo‘shimchasi bilan hosil qilingan; o‘zbek tiliga o tovushini a tovushiga almashtirib olingan. Bu ot har ikki tilda "o‘simlik mevasining ichidagi qattik po‘choq va mag‘izdan iborat urug‘i" ma’nosini anglatadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, so‘zlarning kelib chiqishini lug‘atlardan foydalanib, aniq bilib olishimiz mumkin. Bu haqida Eshqobil Shukurning ushbu kitobida anchayin bilimga ega bo‘ldik. So‘zlar ko‘p, hech qursa tilimizda ishlatishga odatlangan maqol, matal, iboradagi so‘zlarning tub ma’nolarini bilib olish zarar qilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Eshqobil Shukur "Bobo so'z izidan" kitobi.
- 2.O'zbek tilining imlo lug'ati.
- 3.O'zbek tilining izohli lug'ati.
- 4.O'zbek tilining etimologik lug'ati.





GLOBAL IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK-MOLIYA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Abdurasulov Ravshanbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank xizmatlari uning tadbirkorligini, daromadlilikini ta'minlashga va iqtisodiyotning talablarini qondirishga yo'naltirilgan an'anaviy sohasi ekanligidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, shu jumladan moliya-bank xizmatlari doirasida ularni rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muammolar aniqlangan va ushbu muammolarga yechim sifatida takliflar ishlab chiqilgan.

PROSPECTS OF DIGITALIZATION OF BANKING AND FINANCIAL SERVICES IN A GLOBAL ECONOMY

Annotation. Based on the fact that banking services are a traditional area focused on ensuring its entrepreneurship, profitability and meeting the demands of the economy, this article identifies a number of problems related to the development of the banking system of the Republic of Uzbekistan, including financial and banking services, and developed proposals as a solution to these problems.

ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БАНКОВСКИХ И ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В ГЛОБАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Абстрактный. В данной статье рассматривается банковская система Республики Узбекистан, в том числе ее развитие в рамках финансово-банковских услуг, в условиях экономической глобализации, исходя из того, что банковские услуги являются традиционным сектором, направленным на обеспечение предпринимательства, прибыльности и удовлетворения потребностей экономики выявлен ряд проблем и разработаны предложения по решению этих проблем.

Kalit so'zlar. Bank tizimi, bank xizmatlari, raqamli banking, pul, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy xizmatlar, kredit.





Keywords. Banking system, banking services, digital banking, money, digitalization, digital economy, financial services, credit.


Ключевые слова. Банковская система, банковские услуги, цифровой банкинг, деньги, цифровизация, цифровая экономика, финансовые услуги, кредит.

1.KIRISH.

Iqtisodiyotni globalashtirish sharoitida moliya-bank tizimini tubdan isloh qilish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va xizmatlar bozori ko'lamini kengaytirib borish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23-martda qabul qilingan «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida "Bank xizmatlari ommabopligining oshirilishini va bank xizmatlari iste'molchilari huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalaridan biri ekanligi belgilab qo'yildi. Endilikda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tuzilmasida bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, moliyaviy ochiqlikni hamda aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish asosiy vazifalari bo'lgan Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati tashkil etildi.

2.Tahlil va natijalar.

Iqtisodiyotning raqamli modernizatsiyasi hozirgi kunda juda ham ommaviy masalalardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi sharoitida alohida davlatlar iqtisodiyotining integratsiyasi va to'lov tizimlarining rivojlanishi, xususan, naqdsiz to'lov shakllari, banklarning raqamli xizmatlari turlarini rivojlantirish yo'nalishi kuzatilmoqda. Bank tizimiga elektron axborot texnologiyalarining kirib kelishi esa bu yo'nalishdagi serxarajat ishlarni yangicha tashkil etish, takomillashtirishga sharoit yaratdi. Moliyaviy sektorda ro'y berayotgan turli xil muammolar va ularning salbiy oqibatlarini yengib o'tish uchun milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotni keng ko'lamda qo'llashga erishish asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Raqamli banking usullarini qo'llash, iqtisodiy





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

havfsizlikni ta'minlash va mobil tizimlar rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratish moliyaviy bozorlar va banklar rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada asosiy e'tibor qaratadigan masalalar raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit tashkilotining havfsizligini ta'minlash hamda raqamli bankingning rivojlanish muammolari hisoblanadi. Kredit tashkilotining iqtisodiy xavfsizligi bankning ichki va tashqi salbiy havflardan himoya qilish uchun qo'llaniladigan tashkiliy, huquqiy, dasturiy-texnik vositalar va usullar jamlanmasi hisoblanadi. Lekin zamonaviy kredit tashkilotining iqtisodiy havfsizligini ta'minlash uchun kerak bo'lgan asosiy faktorlar majmuiga IT-infratuzilmaning himoyasini ta'minlash, ma'lumotlarning butunligi va firibgarliklarga qarshi kurashishni kiritishimiz mumkin.

Raqamli banking - banklarni va ularning barcha faoliyatlarini, dasturlarini va funktsiyalarini to'liq raqamlashtirishni anglatadi. Bu nafaqat bank xizmatlari va mahsulotlarini raqamlashtirishga, balki mijozlar ko'rgan interfeysga, shuningdek, ichki jarayonlarni avtomatlashtirishga ham tegishli. Raqamli banking bank va uning mijozlari muloqotining yangi rivojlanish bosqichi bolib, u moliyaviy xizmatlar sektoridagi innovatsiyalarni hamda bu sohadagi raqamli, information va texnologik strategiyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu haqda ilk bora Microsoft Money deb nomlangan internet banking texnologiyasi yaratilgan paytda gapirilgan edi. Digital Bank Report doirasida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar doirasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, jahon miqyosidagi 70% moliyaviy muassasalar raqamli bankingni o'zlarining strategik prioritetlaridan biri deb hisoblaganlar. Raqamli banking bo'yicha zamonaviy ishlanmalarni tahlil qilgan holda bu sohadagi eng asosiy yo'nalishlarni ko'rsatishimiz mumkin:

-Pul mablag'larini legallashtirishning (noqonuniy) oldini olishga mo'jallangan jarayonlarni avtomatlashtirish;

-Virtual xodimlar tomonidan amalga oshirilayotgan amallarning havfsizlik qoidalariga rioya qilinishini boshqarish;

- Bankomatlarga o'rnatilgan kompyuterlashgan ko'rish tizimlaridan foydalanish;

- Mijozning ishonchliligi reytingini avtomatik ravishda aniqlash texnologiyasini tadbiiq qilish.

Bank xizmatlari inson raqamli hayotining deyarli barcha sohalarida ham mavjud. Bu sohalariga misol qilib, mobil qurilmalarni, ijtimoiy saytlarni, elektron to'lovlarni va






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

pul o'tkazmalarini, internet-narsalarni, pul depozitlarini va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Hozirgi davrda bank va mijozning o'zaro muloqoti butunlay yangi – interaktiv tusga kirib, raqamli fikrlash tushunchasi ham paydo bo'ldi. The Millennial Disruption Index ning ma'ruzasida ham bu holat tasdiqlanadi: 68% respondentlar besh yildan so'ng pullar bilan ishlash butunlay boshqacha bo'lishiga ishonadilar; 33% respondentlar besh yil davomida ularga bankka boorish kerak bo'lamydi deb hisoblaydilar; 70% respondentlar esa besh yildan so'ng mahsulot va hizmatlarga bo'lgan to'lov usuli to'liq o'zgaradi deb ishonadilar; Salkam 50% respondentlar, banklarning ishlash prinstipi tubdan o'zgaradi deb hisoblaydilar. Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda raqamli bankingning quyidagi aniqlanuvini keltirishimiz mumkin. Raqamli banking – dasturiy ta'minotlar to'plami bo'lib, u foydalanuvchilar uchun qulay interfeys ta'minlab beradi va barchaga bank hizmatlari va mahsulotlaridan onlayn rejimida foydalanishga imkon beradi. Banklarning raqamli transformatsiya qilinishi natijasida yangi to'lov usullarining paydo bo'lishi va mijozlarning bank bilan boshqacha muloqot usullari yuzaga kelishi mumkin. Bank biznesidagi bunday yangiliklar kredit tashkilotlarining faoliyatida ham, ularning iqtisodiy havfsizligini ta'minlashda ham bir qancha katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Raqamli banking sharoitlarida iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash uchun, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

1. Dasturiy mahsulotlarni doimiy ravishda ishlab chiqarish va yangilash;
2. Markazlashgan ma'lumotlar bazasini yaratish;
3. Kredit tashkilotlarning iqtisodiy havfsiligini ta'minlash uchun qonuniy va normativ-xuquqiy asoslarni mukammallashtirish;

Iqtisodiyotni rivojlantirish doimo yangi texnologiyalar asosida amalga oshadi va shuning uchun ham zamonaviy ilmiy-texnik inqilob sharoitlarida bank sektori bu borada ilg'orlardan biri bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu boradagi katta moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish uchun raqamli banking kontekstida kredit tashkilotlarining samarali havfsizlik tizimini yaratish talab etiladi. Yuqorilardan kelib chiqqan holda, raqamli iqtisodiyot sharoitlarida banklarning havfsiz va to'xtovsiz ishlashini ta'minlash bo'yicha quyidagi tadbirlarni hulosa sifatida keltirishimiz mumkin:


1. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitlarida kredit tashkilotlarining iqtisodiy havfsizlik darajasini oshirish eng birinchi navbatdagi ishlardan biridir;






2. Raqamli banking bank iqtisodiy havfsizligi tizimida zaruriy elementlardan biri bo'lib qoladi;

3. Raqamli banking – moliyaviy sektorning rivojlanish yo'nalishi bo'lib, zamonaviy analitika vositasida turli hildagi chakana bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasiga olib keladi, turli darajadagi kredit tashkilotlari orasidagi hamkorlikni rivojlantiradi va eng yangi ilg'or texnologiyalar va raqamli innovatsiyalarning bank sektoriga kirib kelishiga sabab bo'ladi.



1-diagramma. Bank sektorining raqamli transformatsiyasini amalga oshirishning uch xil yondoshuvi

Moliyaviy sektorning rivojlanishi nuqtai-nazaridan raqamli transformatsiya yangi raqamlashtirilgan ish muhitini yaratish natijasida moliyaviy faoliyat yuritishni mukammallashtirishdir. Bank jarayonlarini raqamlashtirish uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida professional masalalarni hal qila oladigan malakali kadrlar va yangi mansablar talab qilinadi. Bu mansablar qatoriga raqamli texnologiyalar bo'yicha direktor va innovatsion rivojlanish bo'yicha direktor lavozimlarini kiritish mumkin. Mutahassislarning fikricha, bank sektorining raqamli transformatsiyasini amalga oshirish uchun uch xil yondoshuvdan foydalanish mumkin.(1-diagramma). Dunyo bo'ylab 26% banklar foydalanadigan yondoshuv raqamli texnologiyalarni to'liq raqamli transformatsiya sifatida emas, balki alohida





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

loyiha sifatida tadbiiq qilishni ko'zda tutadi – bu brinchi yondoshuvdir. Bu holda raqamli transformatsiya uzoq muddatli rejalashtirish asosida va pilot loyihalarni amalga oshirgan holatda bosqichma-bosqich tadbiiq qilinadi. Ikkinchi yondoshuv raqamli iqtisodiyotning talablarini hisobga olgan holda yaratilgan kompaniya filialini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Raqamli transformatsiya usuli ancha ommabop hisoblanadi va u 42% banklar tomonidan ishlatiladi. Bu yondoshuvning afzalliklari uzoq muddatli perspektivada mijozlarning talablariga moslashganlik, tashkilot ichida turli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar (dasturchilar, information texnologiya mutaxassislari, analitiklar va marketologlar)ni o'z ichiga olgan komandalar tashkil qilish hisoblanadi. Bular natijasida tashkiliy tuzilmaning yuqori darajadagi moslashuvchanligiga erishiladi hamda yangi faoliyat yo'nalishlarini testlashtirish imkoniyati yaratiladi. Raqamli transformatsiyaga bo'lgan uchinchi yondoshuv raqamli texnologiyalarni tashkilotning asosiy boyligi deb hisoblashga asoslangan. Bu usul boshqa yondoshuvlar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin, ammo u bankdagi barcha ichki va tashqi jarayonlarning to'liq raqamli transformatsiyasi strategiyasi asosida amalga oshiriladi. Hozigri vaqtda ushbu usul vositasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish 32% banklar tomonidan amalga oshiriladi. Hozirgi davrda raqamli transformatsiya jarayoni banklarning raqobatbardoshligini saqlab turish uchun kerakli bo'lgan muhim tadbir hisoblanadi va bugungi kunda bank operatsiyalarning uchdan bir qismi raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshirilayapti. Bunday holat raqamli innovatsion texnologiyalarning afzalliklarini tushuna boshlagan jamiyatning talablari tufayli ham yuzaga kelayapti. Shuni ham aytish lozimki, raqamli transformatsiya jarayoni konkret bankning xususiyatlar va talablarini hisobga olgan holdagi aniq strategiyaga asoslangan bo'lishi kerak. Shundagina amalga oshirilgan raqamli strategiya bank sektorining samaradorligini oshirish va moliya-kredit tashkilotlarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga imkon beradi.

3.Xulosa va takliflar.

Ma'lumki jahonning aksariyat rivojlangan banklari mijozlarga uzluksiz xizmat ko'rsatishga harakat qiladilar, bunday xizmat ko'rsatishni «Doyche bank» (Germaniya), «ABN AMRO Bank» (Gollandiya), «Sosete Jeneral» (Fransiya) i «Sitibank» [AQSH] banklarida ko'rish mumkin. Bu banklarda bank xizmatlari strategiyasi asosan past tariflarda yangi mijozlar, korrespondent-banklarni jalb etish, zamonaviy to'lov tizimlaridan foydalana olish imkoniyatlariga asoslanadi va mijozlarga xizmat





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

ko'rsatish kuniga 24 soat davomida haftasiga 7 kun olib boriladi. Xizmatlar mijozlarning ko'proq o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tamoyiliga asoslanadi, xizmatlarning doimiy ravishda mobilligini ta'minlaydi va mijozlarni jalb etish strategiyasi hisoblanadi. Bugungi kunda moliaviy masalalar bo'yicha ko'pgina texnologiyalar naqd pul olish bankomatlari dasturidan ancha murakkabdir, shuning uchun banklar oddiy interfeyslarni va tushunarli ko'rsatmalarni yaratish haqida o'ylashlari kerak va mijozlarning yangi raqamli bank xizmatlariga ko'nikma hosil qilishlari uchun turli xildagi qo'llanmalarni ishlab chiqish bank uchun maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur tadqiqot natijasida tijorat banklarining xizmat bozori va banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlari, samaradorligi va sifatini chuqur tahlil qilib chiqqan holda, quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi va takliflar ishlab chiqildi:


1.O'zbekiston Respublikasi banklararo bozori bank kapitali, bank depoziti va kreditlar bo'yicha bozor konsentratsiyasi koeffitsientining haqiqatdagi darajasidan yuqori ekanligi sog'lom banklararo raqobatning to'liq shakllanmaganligidan dalolat beradi.

2.Respublikamizda banklararo raqobatni shakllantirish, yirik banklarning moliya bozoridagi monopol mavqeiga barham berish imkonini beradigan alohida qonunning mavjud emasligi sog'lom raqobat muhitni shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda.

3.Respublikamizning ayrim yirik tijorat banklarida kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'ining beqaror bo'lganligi, ayrim davriy oraliqlarda pasayish sur'atiga ega bo'lganligi, bank aktivlari va kreditlarining daromadlilik darajasiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23 mart 2018 yildagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh/M/Mirziyoevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz" T-: «O'zbekiston», 2016. -56 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2021-y., 06/21/6325/0972-son

4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 y ill 2 sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish vabarqarorligini oshirishga doir choratadbirlar to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz.

6. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е изд. Пер. с англ. - М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. - 880 с.

7. Куликов А.Г. Деньги, кредит, банки: Учебник. - М.: КНОРУС, 2009.- 656 с.

8. Nurillaev, J. (2024, April). The Role of Cluster Education and Science in The Stable Development of Society. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 4, pp. 21-23).

9. Лаврушин О.И. Деньги. Кредит. Банки. Учебник под. ред. - М Кнорус, 2014.-320 с.

10. Аббасов А.М., Мамедов З.Ф., Алиев С.А. Цифровизация банковского сектора: новые вызовы и перспективы. Экономика и управление. 2019;(6):81-89.


11. Nurillaev, J. Y. (2024). Theoretical and methodological foundations of financing karakul farming in a market economy.

12. Борисенко, В. С. Специфика взаимодействия банков и предприятий в условиях цифровой экономики / В. С. Борисенко // Инновационные технологии в машиностроении, образовании и экономике. – 2018. - № 1-2 (7) . – С. 420-424

13. Nurillayev, J. Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.

14. Yarashevich, P. N. J. (2023). Factors for Choosing a Marketing Strategy in Tourism Development.

15. Dr. Deniza Aliyeva, Dr. Sherzod Aktamov. "The integration of innovative technologies and digital services into the banking sector of the Republic of Uzbekistan". Management Development Institute of Singapore in Tashkent, 2019. 81 pages.





BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ART PEDAGOGIKASI VOSITASIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabasi
Umirova Mohinur Mirzo qizi

ANNOTATSIYA . Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ART pedagogikasi vositasida kreativligini oshirish xususida fikr yuritiladi .

Kalit so'zlar : texnologiya , erkin fikrlash , g'oya , san'at , tafakkur , muammo , qobiliyat , ijodkorlik , ixtiro , yangilik , fikr , tarbiya , rivojlanish , tushuncha .

ENHANCING THE CREATIVITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH ART PEDAGOGY

ABSTRACT. This article discusses how to improve the creativity of elementary school students through ART pedagogy .

Key words : technology , free thinking , idea , art , thinking , problem , ability , creativity , invention , innovation , thought , education , development concept .


ПОВЫШЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННУЮ ПЕДАГОГИКУ

АННОТАЦИЯ . В данной статье рассматривается как улучшить творческие способности учащихся младших классов с помощью ART – педагогики .

Ключевые слова : технология , свободное мышление , идея , искусство , проблема , использование , творчество , изобретение , новаторство , мысль .

KIRISH

Yurtimizda olib borilayotgan keng islohotlarning tub zamirida o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga uyg'un holda tarbiyalash , asosiy o'rinni egallaydi . Texnika taraqqiyoti rivojlanayotgan bir paytda , yoshlarni fikrlash qobiliyatini yuksak darajaga olib chiqish va boshqa muhim hislatlarni ularda singdirish eng zarur targ'ibot hisoblanadi . Bolani yoshligidanoq vatanga , jamiyatga





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3


mehr – muhabbatli qilib tarbiyalash , yurtning ravnaqi yo'lida tinimsiz izlanishda bo'lishga chorlash muhim vazifa hisoblanadi . Yoshlarni zamon talablariga mos va xos tarzda tarbiyalab borish orqali , yurtning kelajagini yanada porloq etishga erirish mumkin . Xalqimizda bir ajoyib naql bor “ Bola boshidan ma'lum ” deb bejizga aytishmagan . Qaysiki davlatning o'sib kelayotgan yoshlari har sohada zukko , bilimdon , aqilli bo'lsa , jamiyatdagi har bir sohada rivojlanish va o'sish bo'ladi . Axir bejiz aytilmaganda , yurt kelajagi yoshlar qo'lida deb . Mamlakatimiz miqiyosida yoshlar siyosatiga oid qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda . Turli sohalar va turli yo'nalishlar bo'yicha keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda . Yoshlarga yaratilib berilayotgan imkoniyatlarning chegarasi yo'q . Shu jumladan ta'lim sohasida ham ko'plab yangilanishlar , targ'ibot – tashviqot ishlari olib borilmoqda . Chunki qaysiki davlatda ta'lim sifati yuqori bo'lsa , u davlatda barcha sohalarda ko'plab yutuqlarga erishish mumkin . Ta'lim tizimimizni isloh qilish bo'yicha qator islohotlar , qonun va qarorlar qabul qilinib kelinmoqda . Bugungi kunga kelib , zamon talabi asosida maktabgacha ta'lim muassasalari , umumiy o'rta ta'lim muassasalari va yana bir qancha ta'lim muassasalari yangidan rekonstruksiya qilinmoqda . Yoshlarni jahon andozalariga javob bera oladigan qilib tarbiyalash muhim hisoblanadi . Ta'lim tizimimizda olib borilayotgan islohotlar va yangiliklar kundan kunga ortib bormoqda .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Taqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi , Ta'lim to'g'risidagi qonun mavzuga doir adabiyotlar va yana bir qancha qo'llanmalardan foydalanildi .

MUHOKAMA

Bugungi kunda ilgari surilayotgan g'oyalardan biri , bu yoshlarni kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat . Dastavval kreativlik tushunchasiga izoh beradigan bo'lsak , kreativlik (lot. “ create ” - yaratish , “ creative ” – yaratuvchi , ijodkor) – shaxsning yangi va takrorlanmas g'oya va fikrlarni ishlab chiqarishga tayyorgarlikni tavsiflovchi ijodiy qobiliyat demakdir . Har bir insonda , kreativ fikrlash qobiliyati turlicha rivojlanadi . Kreativ fikrlash bu – bir – biriga o'xshamagan yangi va turlicha g'oyalarni aks ettirishdan iborat . Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish turli yo'nalishlar va vositalar orqali amalga oshiriladi .





Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ART texnologiyalari vositasida kreativligini oshirish , o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi . Eng birinchi navbatda ART texnologiyalari tushunchasiga izoh beramiz . Art (inglizcha so'zdan olingan bo'lib , “ san'at ”) , texnologiya (“ texne ” – san'at , “ logos ” o'rganish) kabi ma'nolarni anglatadi . Bundan ko'rinib turibdiki , ART texnologiyalari san'at vositasida bolani kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat . San'at bolaning psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda , uning fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi . Aytish joizki , har bir davlat ijodkor shaxsni tarbiyalash muhimligini tushunib yetdi . Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini ART texnologiyalari vositasida ularni kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga erishish mumkin . Chunki san'atning barcha sohalarida bola o'zi erkin fikrlaydi va ijod qiladi . Erkin va ijodiy fikrlash natijasida shaxsda kreativ fikrlash nazariyasi vujudga keladi . Misol tariqasida oladigan bo'lsak , birgina tasviriy san'at orqali bolani tafakkur qilishga ijodga , go'zallikni his etishga o'rgatish mumkin . Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki , tasviriy san'at mashg'ulotlari bolaga estetik tarbiya berish bilan bir qatorda , insonning eng muhim jihatlarini , ya'ni o'z –o'zini idrok eta olish , atrofni umumiy qilib aytganda butun borliqni sinchkovlik bilan kuzatish , tafakkur –tasavvurni rivojlantirishda asosiy omil vazifasini o'taydi . Kishini sog'lom va ijobiy fikrlaydigan qilib tarbiyalaydi . Tasviriy san'at orqali bolani ko'rish qobiliyati ham takomillashib boradi . Shu bilan bir qatorda , tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarni e'tiborli , zehqli faoliyat ko'rsatishga undaydi .

San'at sohasining barcha yo'nalishlari orqali o'quvchilarni kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga erishish mumkin . O'quvchilar kreativ fikrlash orqali , yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlardan o'ziga xos va takrorlanmas g'oya va fikrlar orqali , ularni oson hal etishga erishish mumkin . Kreativlik shaxsni hayotga moslashishi emas , uni o'zgartirishdir . ART pedagogikasi yoshlarda ko'plab ijobiy sifatlarni shakllantiradi . Eng birinchi navbatda , bolani erkin va ijodiy fikrlarini sayqallaydi . Bilamizki , san'atning barcha turlarida o'quvchilar o'zlarining ijodiy bilimlarini o'ziga xos fikrlarini namoyon etadilar . Ya'ni san'at mashg'ulotlarida bola o'zini erkin his qiladi . Hech qanday to'siq va qarshiliklarsiz erkin ijod qiladi . Turli bir –biriga o'xshamaydigan fikrlar uning tasavvurida va ongida gavdalanadi . Ijodiy fikrlash natijasida o'ziga xos va yangidan yangi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3


g'oyalar paydo bo'ladi . San'at shaxsning tafakkur va tasavvuriga ta'sir etish bilan bir qatorda , inson axloqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi . Shu kabi xususiyatlari bilan bir qatorda , bolada mehnatsevarlik , irodalilik kabi fazilatlarini ham shakllantiradi . Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlarni san'atning barcha turlari bilan o'zaro integratsiyalashtirilgan holda olib borilsa , bolada ham fanga bo'lgan qiziqish ham san'atga bo'lgan muhabbat shakllanishi bilan bir qatorda , o'zaro kreativ fikrlash qobiliyati shakllanadi .

XULOSA

Umumiy qilib aytganda , san'at orqali bolani ruhiyatiga , estetik tarbiyasiga ta'sir o'tkazish oson amalga oshirish mumkin . San'at bolaning psixologiyasiga ijobiy ta'sir etadi . O'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishga xizmat qiladi . ART pedagogikasining barcha tarmoqlari bolada yangi fikrlarni yuzaga chiqaruvchi , kreativligini rivojlantiruvchi samarali vosita hisoblanadi . Barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish , uni yuksak salohiyatli , keng mushohada yuritadigan qilib tarbiyalash , bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir . Jamiyat rivojlanishi va taraqqiy etishi , insonlar ongida paydo bo'ladigan kreativ fikrlar yig'indisi ularoq rivojlanib taraqqiy etib boradi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. A. Mavlonova , N. H. Rahmonqulova , K.O. Matnazarova , M. K. Shirinov, S. Hafizov “ Umumiy pedagogika ” Toshkent -2018 .
2. B. X. Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ” Toshkent -2017
3. K .R. Suvanova “ San'at bilan yashash va ruhiy barqarorlikka erishish ” Samarqand -2023 uslubiy qo'llanma
4. R. Mavlonova , O . To'rayeva , K. Xoliqberdiyev “ Pedagogika” Toshkent -2011 darslik .
5. I. Karimov “ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ” asari
6. Ziyonet tarmoqlari .





GLOBALLASHUV SHAROITIDA ISLOM DINI VA UNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G'oyibov Maqsudjon Homidjon o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi mutaxassisligi MM4-PP23 guruh magistranti


Annotatsiya: Zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini shakllantirishda dinning, xususan, islomning o'rni katta ahamiyatga ega bo'lgan mavzudir. Dunyo tobora o'zaro bog'langan, rang-barang va tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, islomiy qadriyatlar va ta'limotlar yosh avlodning ta'lim tajribasi va dunyoqarashiga qanday ta'sir qilishini tushunish juda muhimdir. Ushbu maqolada biz islom dinining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ularning globallashuv davridagi musulmon yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: islom dini, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ta'lim, yosh avlod, globallashuv, zamonaviy ta'lim.

ИСЛАМ РЕЛИГИЯ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В условиях современной глобализации роль религии, особенно ислама, в формировании социально-психологического развития молодежи является темой огромной важности. Поскольку мир становится все более взаимосвязанным, разнообразным и быстро меняющимся, важно понимать, как исламские ценности и учения влияют на образовательный опыт и мировоззрение молодого поколения. В этой статье мы изучим социально-психологические особенности ислама и их влияние на образование мусульманской молодежи в эпоху глобализации.

Ключевые слова: исламская религия, социально-психологические особенности, образование, молодое поколение, глобализация, современное образование.



ISLAM RELIGION AND ITS SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Abstract: In the conditions of modern globalization, the role of religion, especially Islam, in shaping the social and psychological development of young people is a topic of great importance. As the world becomes increasingly interconnected, diverse and fast-paced, it is important to understand how Islamic values and teachings influence the educational experience and outlook of the younger generation. In this article, we will study the socio-psychological features of Islam and their impact on the education of Muslim youth in the age of globalization.

Key words: Islamic religion, socio-psychological features, education, young generation, globalization, modern education.

Islom asosiy dunyo dini sifatida butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarning hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uning ta'limotlari o'z izdoshlarining xulq-atvori va e'tiqodlarini boshqaradigan axloqiy, axloqiy va ma'naviy tamoyillarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Globallashuv davrida o'sib ulg'ayayotgan yosh musulmonlar uchun bu ta'limotlar ularning o'ziga xosligi, qadriyatlar va atrofdagi dunyoga munosabatini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. Islom dinining yosh avlod tarbiyasiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan biri uning jamiyatga, hamjihatlikka, ijtimoiy mas'uliyatga e'tibor qaratishidir. Islom ta'limotlari imonlilar o'rtasida rahm-shafqat, xayr-ehson va o'zaro yordam muhimligini ta'kidlab, tegishlilik va jamoaviy mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. Ta'lim kontekstida bu qadriyatlar kuchli ijtimoiy ong va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishga intilish hissini uyg'otishi mumkin. Qolaversa, Islom ilm, ilm va aqliy qiziqishni yuksak qadrlaydi. Qur'on ilm talab qilish va dunyoni Allohga yaqinlashish vositasi sifatida tushunish muhimligini ta'kidlaydi. Yosh musulmonlar uchun ta'limga bo'lgan bunday e'tibor umr bo'yi o'rganishga, tanqidiy fikrlashga va shaxsiy rivojlanishga yordam berishi mumkin. Axborotdan foydalanish va ta'lim olish imkoniyatlari har qachongidan ham kengaygan globallashuv davrida bu yosh musulmonlarga o'z jamiyatlari va butun dunyoga mazmunli hissa qo'shish imkonini beradi. Islom dinining yosh avlod tarbiyasini shakllantiradigan yana bir ijtimoiy-psixologik xususiyati uning axloqiy fazilatlar va odob-axloqiga e'tibor qaratishidir. Islom ta'limoti axloqiy xulq-atvorning keng qamrovli asosini ta'minlab,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

insonlarni halollik, adolat, to'g'rilik va mehr-shafqat kabi masalalarda yo'naltiradi. Ta'lim nuqtai nazaridan, bu qadriyatlar yosh musulmonlarga zamonaviy dunyoning murakkabliklarida halollik va axloqiy ravshanlik bilan harakat qilishlariga yordam beradi va ularga shaxsiy va kasbiy hayotlarida axloqiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Individual axloqdan tashqari, Islom o'z izdoshlari orasida kuchli o'ziga xoslik va tegishlilik hissini ham targ'ib qiladi. Yosh musulmonlar uchun bu o'zlikni anglash kuch-quvvat, ishonch va globallashuvning qiyinchiliklari va bosimlariga chidamlilik manbai bo'lishi mumkin. Yosh musulmonlar o'zlarining e'tiqodlari va madaniy merosiga asoslanib, tez o'zgarib borayotgan dunyoning murakkabliklarida harakat qilishlariga yordam beradigan o'z qadr-qimmatini va maqsad tuyg'usini rivojlantirishlari mumkin. Bundan tashqari, Islom tana, aql va ruhni o'z ichiga olgan shaxsiy rivojlanishga yaxlit yondashuvni targ'ib qiladi. Islom ta'limoti yosh musulmonlarni hayotlarining barcha jabhalarida, jismoniy sog'lik va farovonlikdan tortib, hissiy va ruhiy o'sishgacha muvozanat va mo'tadillikni rivojlantirishga undaydi. Ta'lim kontekstida ushbu yaxlit yondashuv yosh musulmonlar orasida har tomonlama barkamollik va o'z-o'zini anglash tuyg'usini rivojlantirishi mumkin, bu ularning tobora globallashib borayotgan dunyoda rivojlanishga qodir bo'lgan ishonchli, bardoshli kattalar bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Islom ta'limotlarida markaziy o'rinni tavhid tushunchasi, ya'ni Allohning yagonaligiga e'tiqod tashkil etadi, u islom tavhidining asosiy tamoyili bo'lib xizmat qiladi. Ushbu monoteistik e'tiqod tizimi butun mavjudotning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi va birlik, rahm-shafqat va hamdardlik muhimligini ta'kidlaydi. Yosh musulmonlar uchun tavhidga bo'lgan e'tiqod atrofdagi olam bilan o'zaro bog'liqlik tuyg'usini uyg'otadi, chuqur maqsad tuyg'usini uyg'otadi va ularning xatti-harakatlari va qarorlarini boshqarish uchun kuchli axloqiy kompasni tarbiyalaydi. Qolaversa, Ummat yoki musulmonlarning jahon hamjamiyati tushunchasi globallashuv sharoitida yosh musulmonlarning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ummat tushunchasi geografik chegaralar va madaniy farqlardan oshib, turli millatga mansub shaxslarni umumiy e'tiqod ostida birlashtiradi. Kengroq jamoaga mansublik hissi birdamlik, o'zaro yordam va ijtimoiy adolat va tenglik uchun umumiy sadoqat hissini uyg'otadi. Madaniy xilma-xillik va plyuralizm bilan ajralib turadigan globallashgan dunyoda Ummat tushunchasi yosh musulmonlarga mazmunli aloqalar o'rnatish, jamoalar o'rtasida ko'prik qurish va global jamiyatga ijobiy hissa qo'shishda





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

yordam beruvchi birlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Biroq, globallashtirish sharoitida yosh musulmonlar uchun o'ziga xoslikni shakllantirish jarayoni o'z muammolaridan holi emas. G'arblashuv, dunyoviylik va iste'molchilikning ta'siri yosh shaxslarga qarama-qarshi madaniy xabarlar va ijtimoiy bosimlarni taqdim etadi, bu ko'pincha ularning islomiy o'ziga xosligini shubha ostiga qo'yishi mumkin. Media va raqamli texnologiyalarning keng tarqalgan tabiati ijtimoiylashuv jarayonini yanada murakkablashtirib, yosh musulmonlarni diniy ta'limotlariga zid bo'lishi mumkin bo'lgan son-sanoqsiz e'tiqodlar, mafkuralar va qadriyatlar tizimiga duchor qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, globallashtirish sharoitida yosh avlod ta'lim-tarbiyasi va kamolotini shakllantirishda islom dinining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muhim o'rin tutadi. Jamiyat, bilim, axloq, o'zlikni va yaxlit shaxsiy rivojlanishni ta'kidlab, Islom yosh musulmonlarga zamonaviy dunyoning qiyinchiliklari va imkoniyatlarini boshqarish uchun mustahkam poydevor beradi. Pedagoglar, siyosatchilar va ota-onalar sifatida islom ta'limotlarining o'zaro bog'liqligi va rang-barangligi ortib borayotgan global jamiyatda yoshlarning ta'lim va farovonligiga qo'shgan noyob hissasini tan olish va hurmat qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Faxriddinov, M. A. (2022). ISLOM DINI TARIXI VA MANBASHUNOSLIK HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR. IJTIMOIIY FANLARDI INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(8), 4-7.
2. Mustafayev, U. U., Mustafayeva, S. U., & Haydarov, O. E. (2022). TURMUSHDAGI ISLUM: NAMOYON BO 'LISHI VA MOHIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 914-921.
3. Namozovich, J. R. A. (2023). ISLUM DININING MARKAZIIY OSIYOGA KIRIB KELISHI VA MINTAQAXOLISINING ISLUM DININI QABUL QILISH JARAYONLARI, SABABLARI, VA OMILLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 992-998.



DEFINING AND NON-DEFINING RELATIVE CLAUSES IN BRITISH ENGLISH GRAMMAR


Intizor Allabergenova Kadamovna

English teacher at the state institution "School of creativity named after Muhammad Reza Ogahi in the system of the agency of specialized educational institutions under the Ministry of Pre-school and School Education of the Republic of Uzbekistan"

Abstract: This article covers the expression of determiners and relative clauses in British English and its context opinion about the place, syntactic and semantic features and their types held. Determinants and their specific characteristics are analyzed. Analyzes tried to prove it based on several examples. A definite article the types of sentences and their participation in the sentence were observed. Linguist different controversial views of scientists about determiners in English have been studied, compared and summarized.

Key words: , Defining , predicate, non-defining, predicativity, secondary particle, British English grammar, quality, determining clauses.

To the grammatical structure or word order of a sentence as each person speaks rather, he pays attention to the short and succinct statement he wants to make. But the order of clauses is important in expressing an idea. Necessary if not, change the parts of the sentence to the meaning of the sentence have a positive or negative effect, as a result, some additional meanings appear in the sentence may appear or spelling, stylistic errors may occur. As the name suggests, non-defining relative clauses tell us more about someone or something, but the information in these clauses does not help us to define what we are talking about. Take for example the sentence: Gorillas, which are large and originate in Africa, can sometimes be found in zoos. In this sentence we are talking about all gorillas, not just some of them. The information in the non-defining relative clause tells us something more about gorillas in general. It does not define a small group of gorillas or an individual gorilla. If the non-defining relative clause were removed from the sentence, the sentence would still be grammatically correct and the meaning would not have changed, although we would have less detail. Non-defining relative clauses are composed of a relative pronoun, a verb, and optional other elements such





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

as the subject or object of the verb. Commas or parentheses are always used to separate non-defining relative clauses from the rest of the sentence.

We use defining relative clauses to give essential information about someone or something – information that we need in order to understand what or who is being referred to. A defining relative clause usually comes immediately after the noun it describes. We usually use a relative pronoun (e.g. *who*, *that*, *which*, *whose* and *whom*) to introduce a defining relative clause (In the examples, the relative clause is in bold, and the person or thing being referred to is underlined.):


*They're the people **who want to buy our house**.*

*Here are some cells **which have been affected**.*

*They should give the money to somebody **who they think needs the treatment most**.*

English linguists K. N. Kachalova and E. E. Izrayelovichs determine is described as follows: "Opredelenie nazvyvaetsya vtorostepenny chlen predlozheniya, kotoryy oboznachaet priznak predemenda. Opredelenie otnositsya k suschestvitelnomu. Znachitelno reje ono otnositsya k mestoimeniyamsushchestvitelnym" . According to these scholars, the determiner is a noun, indicating the sign of the thing comes connected. But this definition does not fully describe the determinant. Because determiner can indicate not only a thing, but also a person, for example: a funny man Another of the English linguists V. Kaushanskaya to the determiner gives the following definition: "The attribute is a secondary part of the sentence which qualifies a noun, a pronoun, or any other part of speech that has a nominal character. It may be expressed by any part of speech. [17, 252 English grammar writing]. We considered that the scientist was able to fully describe the determiner through this definition. In fact, the determiner can identify nouns and pronouns and any word group is represented by Presently, in many literatures, defining clauses are used is considered as a type of determiner, and the determiner is not only a noun, but also a pronoun it is recognized that it also clarifies the sentences.

CONCLUSION: As a conclusion, after studying a number of literatures, the definition is as follows we gave: The determiner is a syntactic unit and a second-order clause. This syntax What? what kind of? (how?), whose? (whose?), which? (which?),





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

how much? (how much?), how many? (how many?) like questions will be answered. Independent words in the sentence, their functional forms, phrases and adverbs (adjective, adjective, adjective phrase, number, pronoun, infinitive, gerund) and primary and secondary clauses and sentences can explain. Determinant explains, the main part - with a definite noun sometimes with pronouns (one, some, any, every, no) is expressed.

REFERENCES

1. А. И. Смирницкий, Синтаксис английского язык, Москва, 1957
2. Б.А. Ильиш , “Строй современного английского языка” – Ленинград, 1971
3. В. Л. Каушанская, и др. “Грамматика английского языка” – Ленинград, 1971
4. К.Н.Качалова, Израилович Е. Е. “Практическая грамматика английского языка” – Bishkek, 2008
5. О.В. Александрова, Современный английский язык, Морфология и синтаксис, Москва, 2007





**PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY
TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI**

**PROFESSION OF THE FUTURE TEACHER OF PEDAGOGICAL
PRACTICE
ROLE IN PREPARATORY ACTIVITY**

**ПРОФЕССИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ
РОЛЬ В ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich 307-guruh talabalari
Boboqulova Umida va Boboniyozova Manzura

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik faoliyatida pedagogik amaliyot qanday o'rin tutishi hamda ularda kasbiy ko'nikma va malakani tarkib toptirishning mazmuni, mohiyati, shakl va metodlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, pedagogik amaliyot, kasbiy ko'nikma va malaka, pedagoglik faoliyati.

ANNOTATION

This article talks about the role of pedagogical practice in the professional training of future pedagogues, as well as the content, essence, form and methods of developing professional skills and qualifications.

Key words: professional training, pedagogical practice, professional skills and qualifications, pedagogical activities.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о роли педагогической практики в профессиональной подготовке будущих педагогов, а также о содержании, сущности, форме и методах формирования профессиональных навыков и квалификации.





Ключевые слова: профессиональная подготовка, педагогическая практика, профессиональные навыки и квалификация, педагогическая деятельность.


KIRISH

Bugungi kunda rivojlanyotgan O‘zbekistonda ta’lim sohasiga juda kata e’tibor qaratilib kelinmoqda. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning yangi tahriri ta’lim tizimiga juda katta o‘zgarishlar kiritdi. Mazkur qonunning 35-moddasida “O‘quv rejasida, qoida tariqasida, ta’lim jarayonining jadvali, o‘qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o‘quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta’tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o‘rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi”.

Ta’lim oluvchilarning amaliyotni o‘tash tartibi va uni tashkil etish ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi deyilgan. Ta’lim oluvchilar kasbiy ko‘nikmalarni mukammal egallashi uchun o‘quv rejalari va muayyan fanlarning o‘quv dasturlarida o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini o‘tashlari shart.

AADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Amaliyotlar bakalavr ta’lim jarayoninig majburiy qismi bo‘lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bakalavrlar tayyorlashda ko‘plab amaliyot turlari o‘tkaziladi. Shulardan biri pedagogik amaliyotdir. Pedagogik amaliyot bo‘lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash tizimining asosiy va muhim bo‘g‘inidir. Pedagogik amaliyot talabaning nazariy ta’limi va bo‘lajak mustaqil faoliyatini bog‘laydigan hamda kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi jarayon bo‘lib, dastlabki tajriba maktabi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot – bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘quvpedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot namunaviy va ishchi o‘quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyotning mazmuni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo‘ladi. Pedagogik amaliyot o‘quv mashg‘ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi. Pedagogik amaliyotning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik faoliyat mas'uliyatini his etish va o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatini o'rganishdan iboratdir. Pedagogik amaliyot vazifalari:

- Talabalarda o'qituvchi kasbiga qiziqishni tarbiyalash;
- Pedagogik faoliyat haqida bir butun tushunchani shakllantirish;
- Pedagogik ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- Pedagogik faoliyat bo'yicha tajribani yaratish.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchining o'qituvchilik faoliyatiga qo'yayotgan ilk qadami hisoblanadi. Pedagogik amaliyot – kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik maxoratni oshirishga qaratiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi pedagogik amaliyot bilan birgalikda kechadi. Pedagogik amaliyotning eng muhim vazifalaridan biri bu bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir. Pedagogik amaliyotning samaradorligi quyidagilarda ko'rinadi:

Kasbiy tayyorgarlik – zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmay, balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi, kasbiy sifatlarning qaror topishi hamda kasbiy moslashish darajasi bilan izohlanadi. Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi. Pedagogik amaliyot talabalarda tanlangan mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo'lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi belgilanadi.





MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kasbiy tayyorgarlik mutaxassisning butun faoliyati davomida ma'naviy axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini ifodalaydi. Keltirilgan mazkur vazifalarning amaldagi ijrosi pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yiladigan masalalardan eng muhimi, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvlarni talab etadi:

- mehnat bozori talablari hamda ilm-fan, texnika, texnologiyalar, iqtisodiyotning eng so'ngi yutuqlari asosida uzviy ravishda takomillashtirilib turiladigan kasbiy ta'lim dasturlarini yaratish;

- uzluksiz ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish orasidagi o'zaro mustahkam integratsiyani yo'lga qo'yish;

- ta'lim muassasalarini zamonaviy moddiy-texnik baza va o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash;

- oliy ta'lim tizimiga yuqori malakali o'qituvchi, metodist va muhandispedagoglarni jalb etish;

- bo'lajak o'qituvchilarning bilish faolligi, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularda faol kasbiy motivatsiyani qaror toptirish;

- oliy ta'lim muassasalari o'quv amaliyotiga innovatsion o'qitish texnologiyalarini keng tatbiq etish zaruriy omillardan hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi. Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish – DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy – axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik jarayonidir. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik amaliyoti mobaynida ularga kerak bo'ladigan asosiy narsa bu – kasbiy bilimdir.

Kasbiy bilim – aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan axborotlar va o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlar birlashmasidir. Kasbiy ko'nikma va malakalar – amaliy faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan, shaxsning o'zlashtirilgan kasbiy bilimlarini anglangan ish harakatlariga aylanishidagi






avtomatlashgan usuldir. Oʻrta maktab oʻqituvchisining ixtisoslashgan tavsifnomasi – professiogrammasini yaratishda N.V. Kuzmina, Z.F. Esarova, M.G. Davletshin, M. Abdullajonova, T. Hamroqulov va boshqalar quyidagi kasbiy malakalarni farqlaydilar:

1. Gnostik malakalar.
2. Konstruktiv malakalar.
3. Kommunikativlik.
4. Tashkilotchilik malakalari

Gnostik (yunoncha “gnosis” – “bilish”) malakalar tarbiyachining bilim sohasiga taalluqli boʻlib, bolalarning individual-psixologik taraqqiyot darajasini aniqlay bilish, oʻzining tajribasi va pedagogik faoliyatiga reflektiv yondashish, ilgʻor tajribalarni oʻrganish, novatorlik, pedagogik-psixologik adabiyotlardan foydalana bilish, empatiya va pedagogik ziyraklik doirasidagi malakalarni mujassam etadi. Konstruktivlik (loyihalash qobiliyatiga egalik) – bu tarbiyachining pedagogik jarayonni metodik jihatdan toʻgʻri loyihalashtirishi va tashkil etishi koʻzda tutiladi. Bunda taʼlim jarayoni natijalarini prognoz qilish, oʻquv-tarbiya jarayonini maqsadli loyihalash, oʻquvchilarning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqib taʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni toʻgʻri belgilash va darsning texnologik tuzilmasini aniq belgilash, amalga oshirish bilan bogʻliq malakalar nazarda tutiladi. Kommunikativlik – bu tarbiyachi-pedagogning alohida xususiyati boʻlib, unda oʻquvchilar va hamkasblari bilan oʻzaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi. Bunda tarbiyachining bolalarni oʻziga jalb etishni bilishi, oʻquvchilar va ota-onalar bilan muloqotni tashkil etishi, boshqarishi va nazorat qilishi, ular bilan pedagogik-psixologik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq oʻzaro aloqa bogʻlashga, shaxslararo munosabatlarni faollashtirishga qaratilgan malakalardir. Oʻquvchilar bilan muloqotda pedagogik tayyorgarlikning muvaffaqiyatli boʻlishi koʻp jihatdan oʻqituvchining kommunikativ koʻnikma va malakalarni uzluksiz ravishda egallab borishi, uni qoʻllay olish layoqatiga bogʻliq. Tashkilotchilik – tarbiyachining oʻquvchilar jamoasini uyushtira bilishi, jamoani jiplashtira olishi, oʻquvchilarning bilish faolligini faollashtira olishi, shaxsiy tajribasi va ilgʻor pedagogik gʻoyalarni dars jarayoniga tatbiq eta olishi bilan tavsiflanadi. Pedagogik amaliyot ishlarini tizimli yoʻlga qoʻyish va uning uslubiy taʼminotini yaratish kasbiy moslashtirish jarayonidagi muhim tashkiliy-metodik shart-sharoitlardan biri boʻlib hisoblanadi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

kasbiy ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llash uchun ham eng qulay fursat pedagogik amaliyot hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Ta’lim to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil.
2. O‘zbekiston uzluksiz ta’limining davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti 2021-yil 16-iyul.
3. B.Xadjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Toshkent “IQTISODIYOT DUNYOSI” 2018.
4. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. B– 18-32.
5. Tolipov O’. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Monografiya. – T.: Fan, 2004.b – 73-80.
6. Xusnidinova Gulnoza Zoxidjon qizining Magistrlik dissertatsiyasi «Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogikshart-sharoitlari ».
7. Baydjanov, B. (2021). Protection from the threat of harmful information that negatively affects the physical and mental development of students as a pedagogical problem. “Innovative technologies in sports and physical education of the younger generation”. Collection of materials of the international online conference.
<https://doi.org/10.47100/v1i1.71>
8. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.
9. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE PSYCHOLOGY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 394-396).
10. SAIDKULOVICH, S. B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization.
International

Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.

11. Siddikov, B. S. (2020). THE IMPORTANCE OF SPORTS AND RECREATION

ACTIVITIES FOR A HARMONIOUSLY DEVELOPED GENERATION.



ЎЎК.635.664.5

**ПОМИДОР КЎЧАТИНИ ЯНГИ ЛОЙХА АСОСИДА БАРПО ЭТИЛГАН
ИССИҚХОНАДА ПЕНОПЛАСТ КАСЕТАЛАРДА ТАЙЁРЛАШ.**

Абдиев Зафарали Тоштемирович (PhD) қ.х.ф.б.ф.д.

Тошкент давлат аграр университети “Сабзавотчилик ва иссиқхона хўжалигини ташкил этиш” кафедраси катта ўқитувчи.

Боймуродов Алишер Абдурасулович

Тошкент давлат аграр университети мустақил докторанти

**ПОДГОТОВКА РАСТЕНИЙ ТОМАТОВ В КАССЕТАХ ПЕНОПЛАСТ В
ВСТРОЕННОМ ТЕПЛЕ НА ОСНОВЕ НОВОГО ПРОЕКТА.**

Абдиев Зафарали Тоштемирович (PhD) қ.х.ф.б.ф.д.

Ташкентский государственный аграрный университет является старшим преподавателем кафедры «Организация овощеводства и тепличного хозяйства».

Алишер Абдурасулович Боймуродов

Независимый докторант Ташкентского государственного аграрного университета

**PREPARATION OF TOMATO SEEDLINGS IN PENOPLAST CASSETTES
IN THE GREENHOUSE BUILT ON THE BASIS OF A NEW PROJECT.**

Abdiev Zafarali Toshtemirovich (PhD) q.x.f.b.f.d.

Tashkent State Agrarian University is a senior lecturer at the Department of "Organization of Vegetables and Greenhouse Farming".

Boymurodov Alisher Abdurasulovich

Independent doctoral student of Tashkent State Agrarian University

Аннотасия: Замонавий янгиланган технологияларни қўллаган холда гидропоникали иссиқхоналарда помидор кўчатларини пенопласт касеталарда етиштириш агротехникасини такомиллаштириш ёритиб берилган.

Калит сўзлар: пенопласт касеталар, дурагай уруғлар, навлар, микро ўғитлар, макро ўғитлар, микроиклим, субстрат, полиэтилин, фойиз, қўшимча, кўчат, иссиқхона.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Аннотация: Объяснено совершенствование агротехники выращивания рассады томатов в пенопластовых кассетах в гидропонных теплицах с использованием современных обновленных технологий.

Ключевые слова: пенопластовые кассеты, гибридные семена, сорта, микроудобрения, макроудобрения, микроклимат, субстрат, полиэтилен, интерес, подкормка, рассада, теплица.


Abstract: Improvement of agrotechnics of growing tomato seedlings in foam plastic cassettes in hydroponic greenhouses with the use of modern updated technologies is explained.

Keywords: styrofoam cassettes, hybrid seeds, varieties, micro fertilizers, macro fertilizers, microclimate, substrate, polyethylene, interest, supplement, seedling, greenhouse.

Кириш. Хозирда юртимизда 37-миллион ахолисини мавсумдан ташқари вақтларда янги узилган хар хил сабзавот махсулотларига бўлган талабини кондириш, ерлардан унумли фойдаланиш ва етиштиришни янги технологияларини қўллаган холда помидордан юқори хосил ва сифатли махсулот олишда гидропоникали иссиқхоналарда кучатларини етиштириш технологиясини такомиллаштиришни куллаш. Бу тажрибалар Тошкент Давлат Аграр Университетининг илмий тадқиқот ва ўқув тажриба станцияси худудида 5000 м² бўлган намунавий иссиқхона куриб фойдаланишга топширилган бўлиб, бу намунавий гидропоникали иссиқхонага памидор кўчатини етиштириш ва экиш учун илмий тадқиқот ишларини олиб бордик. Бу кўчатларни тайёрлашда чет эл уруғ нав ва дурагайлардан фойдаландик. Тажрибада Ламия Ф1, Торри Ф1, Рафита Ф1, Дафнис Ф1 дурагайлари синаб кўрилди (1, 2, 3, 4).

Илмий тадқиқот методикаси. Гидропоника усулида памидор етиштириладиган мамлакатлардан (Европа мамлакатларда ва Япония, Корея) ҳозирги пайтда помидорнинг Труст, Куест, Матсх, Блитз, Геронимо, Традиро, Амбиаҳса, Пофито навлари ва гибридлири экилиб келинмоқда. Помидорнинг бу нав ва гибридлири гидропоника шароитида етиштирилган, синовлардан ўтган ва экиш учун тавсия қилинган (5, 6).

Ўзбекистон шароитида гидропоникали иссиқхоналар учун кўчатларни тайёрлаш хар йили Тошкент давлат аграр университетида илмий тадқиқот ва ўқув тажриба





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

станцияси гидропоника иссиқхонасида помидор кўчатларини тайёрлаш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилди.

Илмий тадқиқот натижалари. Илмий тадқиқотларда қабул қилинган оддий иссиқхоналарда кўчат тайёрлаш ва махсус жиҳозларда гидропоникада озика эритмаси иштирокида кўчат тайёрлаш усуллари ўрганилди.

Оддий усулда кўчат тайёрлашда 48 уяли касеталардан ва тупроқ, қум, чириган гўнг 1:1:2 нисбатдаги субстратдан фойдаланилди.

Иккинчи усулда эса махсус материаллардан тайёрланган 240 уяли касеталардан ва ҳар бир уяга жойлаштирган прилит тола тиҳинларидан фойдаланилди. Шу вариантда уруғларни униб чиқиши ва кўчат етилишини таъминлаш мақсадида ишчи озика эритмаларидан қўлланилди. Тажрибада Рофита, Торри (Голландия) ва Ламия (Исроил) нав ва гибридлари ўрганилди.

Уруғлар ишлаб чиқарувчи фирмалар томонидан махсус пакетларга касаллик ва зараркунандаларга қарши ишлов берилган ҳолда келтирилган ва Ўзбекистон Республикаси Реестрига киритилган навлар танланган.

Тажриба учун олинган помидор уруғлари барча вариантларда 2-август куни экилди.

Тажриба ўтқазилган оддий иссиқхоналарда кўчат етиштириш давомида суткалик ўртача ҳарорат 33-35 С⁰, ҳаво намлиги 28-35%, намунавий иссиқхонада эса 23-26,5 С⁰ ни ва 44-55% ни ташкил этди.

Уруғларни униб чиқиши учун тажрибанинг 1-вариантида касеталар устидан субстрат тўлиқ намланганга қадар махсус пуркагич ёрдамида озукали сув сепиб борилди ва қора поэтилин плёнка билан ўраб қўйилди.

Тажрибанинг 2-4 вариантларда эса уруғдан экишдан олдин касеталар уясидаги тиқинларни тўлиқ намлаш учун махсус тайёрланган озика эритмасида бўктирилди ва уруғ экилиб усти вермикулит (1,5-2г) билан мулчланди, унинг устига қоғоз ёпилиб, махсус пуркагич ёрдамида сув пуркалиб (ҳар бир косетага 0,7-1,0л), қора полетилин плёнка билан ёпиб қўйилди. Тажрибадан олинган илмий маълумотлар 1-жадвалда келтирилган.






1-жадвал

Танлаб олинган помидор уруғини униб чиқиш тезлиги ва кўчат тайёр бўлиш муддати

Вариант	Навлар	Униб чиқиш тезлиги, %, сутка			Кўчатни етилиши(кун)	Кўчатни узунлиги см
		50	85	100		
1 (Назорат оддий усулда)	Дафнис Φ_1	7	10	12	30	16
2 тажриба	Пик-парадаез Φ_1	3	4	6	13	16
3 тажриба	Лесли Φ_1	4	5	8	16	20
4 тажриба	Торри	4	5	7	14	18

Ушбу жадвал маълумотларини кўрсатишича оддий усулда помидор кўчатини тўлиқ униб чиқиши учун 12 кун, кўчатни тайёр бўлиши учун эса 30 Янги технологияда уруғни тўлиқ униб чиқиши учун помидорни Дафнис Φ_1 дурагайда 6 кун, Пик-парадаез Φ_1 дурагайи 8 кунни ташкил қилди, Торри дурагайларидада эса 7 кун униб чиқиши кузатилди. кун зарур бўлди.





Эртаки ҳосил (ЭКМФ₀₅ – 0,3; Sx% - 3,3); Умумий ҳосил (ЭКМФ₀₅ – 0,7; Sx% - 3,6); Товарбон ҳосил (ЭКМФ₀₅ – 0,3; Sx% - 1,6);

Юқорида келтирилаган дурагайлари ва кўчатлари 13-16 кунда 16-20см ўсиб, экишга тайёр бўлди.

Хулоса. Олинган тажриба натижаларига асосланиб хулоса қилиш мумкин гидропоникали иссиқхона усулида сабзавот етиштиришга ихтисослашган намунавий иссиқхоналарда помидор кўчатларини 13-16 кунда тайёр бўлиши ёки оддий усулда тайёрлашга нисбатан 14-17 кун олдин етилишини таъминлаш мумкинлигини олиб борилган тажрибаларда синаб курдик ва шу илмий ишларга асосланган холда пенопласт касеталарга тайёрланган помидор кўчатларини етилиши, оддий усулда тайёрланган кўчатларга нисбатан ҳар хил иқлим шароитларига бардошли эканлиги аниқланди. Пенопласт касеталарга тайёрланган



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

помидор кўчатлари кассаликларга ва хашоратларга чидамлилиги билан ҳам ажралиб турди.


Гидропоника иссиқхонасида помидорни Φ_1 дурагайлари меваларининг сифат Кўрсаткичлари ва биокимёвий таркиби (2016-2018 йй.)

Дурагайлар	Мева вазни, г	Дегустатсион баҳоси, балл	Курук модда, %	Қанд, %	Аскорбин кислотаси, мг/%	Нитрат, мг/кг
2016 йил						
Рофита Φ_1 (ст)	171	9,7	6,08	4,20	22,40	46
Дафнис Φ_1	180	9,8	7,20	4,30	21,80	44
Торри Φ_1	178	9,8	6,40	3,95	18,70	50
Лесли Φ_1	161	9,7	6,18	3,30	19,60	43
Ламия Φ_1	147	9,8	7,10	4,10	20,10	48
Пинк Парадаес Φ_1	178	9,8	6,30	4,25	18,08	35
Жалила Φ_1	152	9,7	6,50	3,87	17,60	42
ЭКМ Φ_{05}	7,2	-	-	-	-	-
Сх, %	4,3	-	-	-	-	-
2017 йил						
Рофита Φ_1 (ст)	168	9,5	6,06	4,18	22,30	43
Дафнис Φ_1	178	9,6	7,18	4,27	21,75	40
Торри Φ_1	176	9,5	6,36	3,90	18,68	47
Лесли Φ_1	159	9,4	6,16	3,26	19,57	41
Ламия Φ_1	145	9,5	7,07	4,07	20,06	45



Пинк Парадаес Ф ₁	176	9,6	6,27	4,20	18,03	30
Жалила Ф ₁	150	9,5	6,48	3,80	17,54	38
ЭКМФ ₀₅	7,8	-	-	-	-	-
Сх, %	4,7	-	-	-	-	-
2018 йил						
Рофита Ф ₁ (ст)	174	9,9	6,10	4,22	22,50	49
Дафнис Ф ₁	182	10	7,22	4,33	21,85	48
Торри Ф ₁	180	10,1	6,44	4,0	18,72	53
Лесли Ф ₁	163	10	6,20	3,34	19,63	45
Ламия Ф ₁	149	10,1	7,13	4,13	20,14	51
Пинк Парадаес Ф ₁	180	10	6,33	4,30	18,13	40
Жалила Ф ₁	154	9,9	6,52	3,94	17,66	46
ЭКМФ ₀₅	4,6	-	-	-	-	-
Сх, %	2,7	-	-	-	-	-

Ҳозирги кунда бозор талаби ширин ва мазали маҳсулотни хоҳлайди, шундай экан меванинг таркибидаги қанд миқдорини кўплиги мева сифатига ижобий таъсир этади. Қанд миқдори бўйича дурагайлар 3,30-4,30 % ни ташкил этиб, энг юқори кўрсаткич Дафнис Ф₁ ва Пинк Парадаес Ф₁ дурагайларида 4,25-4,30 % ни, энг кам кўрсаткич Лесли Ф₁ ва Жалила Ф₁ дурагайларида кузатилди.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Аскорбин кислотаси ҳам дурагайларни муҳим хусусиятларидан бўлиб, тажрибада унинг миқдори 17,60-22,40 мг/% ни ташкил қилди. Стандарт Рофита Φ_1 дурагайи энг юқори кўрсаткични кўрсатди ва қолган барча дурагайлар аскорбин кислотасининг миқдори бўйича ундан кам бўлди.

Адабиётлар рўйхати

1. Дементьев А.В. Капельное орошение томатов в условиях Волго-Донского междуречья.-М.: 2004 г.
2. Духовный В.А. Капельное орошения-перспективы и препятствия. Т.:САНИИРИ. 1995 г.
3. Зуев В.И., Абдуллаев А.Г. Овощеводство защищенного грунта. Ташкент.Ўқитувчи,1982 г. 439 стр.
4. Зуев В.И., Атаходжаев А.А., ва бош. Чучук қалампир химояланган ер сабзавотчилиги. Тошкент 2014. 254-255 б.
5. Зуев В.И., Атаходжаев А.А. ва бош: “Химояланган ерларда кўчат ва кам тарқалган сабзавотларни етиштириш” Химояланган ерларда кўчат ва сабзавотларни етиштириш. Тошкент 2010. НОСҲИР. 215 б.
6. С.А.Юнусов,З.Т.Абдиев “Иссиқхоналарда сабзавот кўчатчилиги”. Тошкент. “Шафоат Нур Файз” 2020 йил. 287 б.



Raqamlashtirishni ijtimoiy hayotga ijobiy va salbiy ta'siri masalasi.

Вопрос о положительном и отрицательном влиянии цифровизации на общественную жизнь.

The question of the positive and negative effects of digitization on social life.

Sh.Rashidov nomidagi SamDU

mustaqil izlanuvchisi

D.X.Shukurova

Rezyume

Ushbu maqola raqamli jamiyat va raqamli ta'lim jarayonlarining ijtimoiy hayotga ta'siri masalasi yoritilgan. Falsafa va pedagogika sohalarida raqamli ta'lim keng ilmiy-nazariy tadqiq etilmoqda. Raqamli jamiyatda ko'plab sohalarning raqamlashuvi kechayotgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, raqamli ta'lim, raqamli jamiyat, kompyuter, virtual olam, tadqiqot.

Резюме

В данной статье рассматривается влияние цифрового общества и цифровых образовательных процессов на социальную жизнь. Цифровое образование широко изучается в области философии и педагогики. Подчеркнуто, что в цифровом обществе происходит цифровизация многих сфер.

Ключевые слова: цифровизация, цифровое образование, цифровое общество, компьютер, виртуальный мир, исследования.

Resume

This article covers the impact of digital society and digital educational processes on social life. Digital education is widely studied in the fields of philosophy and pedagogy. It is highlighted that many areas are being digitized in the digital society.

Key words: digitization, digital education, digital society, computer, virtual world, research.

Jamiyatni raqamlashtirish obyektiv ravishda aniqlangan axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Raqamli texnologiya zamonaviy kompyuterlarning rivojlanishi va World Wide Web paydo bo'lishi bilan paydo bo'ldi. Raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi texnologiya





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

tarixidagi muhim bosqich bo'lib, insoniyat jamiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Kompyuter olimi Mark Vayzer (1991) bashorat qilganidek, insoniyat hamma joyda tarqalgan hisoblash davriga qadam qo'yadi, bunda raqamli texnologiyalar odamlar hayoti bilan chambarchas bog'liq[1]. Negroponte (1995) barcha ommaviy axborot vositalari tez raqamlashtirilishini va kompyuterlar yuz va nutqni aniqlashni amalga oshirishi va foydalanuvchilar bilan aqlli muloqot qilishini ta'kidladi. O'sha paytda ilmiy fantastikadek ko'ringan bu bashoratlar o'tgan o'ttiz yil ichida birin-ketin amalga oshdi va tasvirlangan manzaralar odamlarning kundalik hayotida odatiy holga aylandi.

Raqamli jamiyatning tabiati va uning o'z-o'zini identifikatsiya qilish, amalga oshirish, kundalik hayot, guruhga a'zolik, ijtimoiy institutlar va ijtimoiy tengsizlik, jamiyatshunoslarni qiziqtirgan barcha an'anaviy savollarga ta'sirini o'rganishning qimmatli usullari bo'lib qolmoqda. Raqamli qurilmalar va platformalardan ma'lumotlarni yaratish va yozib olish uchun ijtimoiy tadqiqotlar uchun foydalanishning turli usullari mavjud. Hatto eski uslubdagi tadqiqot usullari ham raqamlashtirilgan. Ijtimoiy so'rovlar ko'pincha kompyuterlarda to'ldiriladi va ma'lumotlar avtomatik ravishda ma'lumotlar bazasiga kiritiladi va qog'oz so'rovlar oxir-oqibat tahlil qilish uchun kompyuterlashtirilgan tizimga kiritilganda raqamlashtiriladi. Onlayn so'rovlar endi akademik va tijorat ijtimoiy tadqiqotchilari tomonidan tobora ko'proq foydalanilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan insoniyat jamiyati raqamli jamiyatning mutlaqo yangi davriga kirdi. 2021 yil oxiriga kelib, mobil tarmoq qamrovi dunyo aholisining 95 foiziga yetdi, 88 foizi 4G mobil tarmoqlari bilan qamrab olingan (2022)[2]. Odamlar noutbuklar, planshetlar, smartfonlar va aqlli soatlar kabi raqamli qurilmalardan ma'lumotlarga kirish, muloqot qilish, iste'mol qilish, ko'ngil ochish va ilovalar orqali jamoat hayotida ishtirok etish uchun keng foydalanadilar. Raqamli texnologiya nafaqat ijtimoiy hayotning asosiy qiyofasini qayta tikladi, balki tub ijtimoiy o'zgarishlarni ham keltirib chiqardi. Dirk Helbing fikricha, biz smartfonlarimizga qaram bo'lsakda, atrofimizdagi dunyo jimgina o'zgarimoqda raqamli texnologiyalar nafaqat inson nutqi va institutlarini yaratadi, balki butun dunyoni qayta shakllantiradi. Xitoylik olimlar ham xuddi shunday fikrda. Tszesi Tsyu ta'kidlaganidek, raqamli jamiyat tarmoq o'zaro bog'lanishi orqali asl mehnat taqsimoti va tashkiliy tuzilmaga kirib boradi, shaxsni raqamli tarmoqning asosiy qaramiga aylantiradi va shaxs mustaqil birlik sifatida yangi ijtimoiy shaklni shakllantiradi. Shaxslar va jamiyat





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy farqlanishning asosiy mantig'i va ijtimoiy faoliyatning asosiy tamoyillari ham chuqur o'zgarishlarga uchraydi[3].

Bundan tashqari, axborot portlashi va axborot qaramlarining birgalikda mavjudligi, kiberfazoning inklyuzivligi va nutqning qutblanishi, shuningdek, semirish tuzilmalarining birgalikda mavjudligi va bo'shliqlarning kengayishi ham ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Raqamli texnologiyalar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlar va raqamli jamiyatdagi yangi muammolar sharoitida chuqur ilmiy izlanishlar o'tkazish zarurati raqamli ta'limni paydo bo'lisiga olib keldi. Raqamli ta'limni quyidagicha ta'riflaydi: raqamli ta'lim - raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashni o'rganish uchun ilmiy nazariyalar va metodologik usullaridan foydalanadi, raqamli texnologiyalarning inson xulq-atvori va jamiyat faoliyatiga ta'siriga e'tibor qaratadi va raqamli texnologiyalar va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmlarini o'rganadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu ta'rif asosan raqamli ta'limning hozirgi rivojlanishiga asoslanad [4]i. Raqamli ta'lim raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va qo'llanilishini va ular bilan bog'liq ijtimoiy o'zgarishlarni pedogogik nuqtai nazardan o'rganadi. Biroq, raqamli ta'lim hali boshlang'ich bosqichida va ko'plab asosiy masalalarni hal qilishi kerak, bu butun dunyo bo'ylab faylasuflar, pedagoglar uchun ajoyib tadqiqot imkoniyatini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, raqamli texnologiyalarni qo'llash milliy chegaralarni kesib o'tgan bo'lsa-da, raqamli ta'lim bo'yicha tadqiqotlar xalqaro muloqotni davom ettirgan holda, hali ham muayyan ijtimoiy va madaniy muhitlarga e'tibor qaratish kerak. Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish va qo'llash, raqamli jamiyatda tegishli tadqiqotlar uchun noyob imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar ro'xati:

1.Anderson, Ken, Dawn Nafus, Tye Rattenbury, and Ryan Aipperspach. 2009. Numbers Have Qualities Too: Experiences with Ethno-Mining. *Ethnographic Praxis in Industry Conference Proceedings 2009*: 123–140

2.Aseeri, Sahar, Sebastian Marin, Richard N. Landers, Victoria Interrante, and Evan S. Rosenberg. 2020. Embodied Realistic Avatar System with Body Motions and Facial Expressions for Communication in Virtual Reality Applications. In *2020 IEEE Conference on Virtual Reality and 3D User Interfaces Abstracts and Workshops (VRW)*, 580–581.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

3. Berry, Rachel A., Rachel F. Rodgers, and Jenna Campagna. 2021. Outperforming iBodies: A Conceptual Framework Integrating Body Performance Self-Tracking Technologies with Body Image and Eating Concerns. *Sex Roles* 85: 1–12.

4. Грязнова Е.В. Виртуальная реальность: анализ смысловых элементов понятия // *Философские науки*. 2005. №2. -С. 125-143;



**Patent trolling atamasi huquqiy tavsifi, muammoli vaziyatlar va yechimlari.****Juraboyeva Mahbuba Asqarbek qizi****Toshkent davlat yuridik universiteti****Xususiy huquq fakulteti talabasi****@juraboyevamahbubagmail.com**

Annotatsiya: ushbu maqolada patent trolling atamasi tavsifi, patent trollari qanday faoliyat bilan shug'ullanishlari, ularning nishoni nimalar bo'lishi, qaysi davlatlarda keng tarqalganligi va ularga qarshi qanday choralar qo'llash mumkinligi haqida fikr yuritiladi.


Kalit so'zlar: patent huquqi, trolling, yuridik shaxs, himoya qilish, ixtiro, litsenziya, royalti, sud xarajatlari, asossiz da'vo.

Patent trolling legal definition, problems and solutions.**Juraboyeva Mahbuba Askarbek kizi****Tashkent State Law University****Student of private law faculty****@juraboyevamahbubagmail.com**

Abstract: this article describes the term patent trolling, what activities patent trolls are engaged in, what their targets are, in which countries they are common, and what measures can be taken against them.

Keywords: patent law, trolling, legal entity, protection, invention, license, royalty, court costs, groundless claim.

Правовое определение патентного троллинга, проблемы и пути решения





Джурабоева дочь Махбубы Аскарбека

Ташкентский государственный юридический университет

Студент факультета частного права

@juraboyevamahbubagmail.com

Аннотация: в данной статье рассмотрено понятие «патентный троллинг», какой деятельностью занимаются патентные тролли, каковы их цели, в каких странах они распространены и какие меры против них можно принять.

Ключевые слова: патентное право, троллинг, юридическое лицо, охрана, изобретение, лицензия, роялти, судебные издержки, необоснованный иск.

Kirish

Patent huquqi ixtironi himoya qilishga, texnologik taraqqiyotni rag'batlantirishga va ixtirochi yoki patent egasining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Butunjahon Intelektual Mulk Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "Patentlar jismoniy shaxslarga ularning ijodi uchun e'tirof etish va ixtirochilari uchun moddiy mukofot olish imkoniyatini taklif qilish orqali ularni rag'batlantirish va himoya qilishni ta'minlaydi." [1] Ammo patentlardan g'arazli niyatlarda foydalanuvchilar ham yo'q emas. Ulardan biri "patent trollaridir." Patent trollingi deganda, patent olishda intellektual mulkni ishlab chiqarish va undan foydalanish bilan shug'ullanmaydigan, lekin patentlangan texnologiyadan foydalanadigan kompaniyalarga nisbatan o'z huquqlarini buzganlik uchun da'vo qo'zg'atadigan jismoniy yoki yuridik shaxslarning faoliyati tushuniladi. Patent trollarining biznes modellari ma'lum bir tuzilishga amal qiladi, eng keng tarqalgani trollardir. Ular o'z nomidan patentlarni sotib oladi va chiqaradi, keyin ma'lum bir texnologiya bozorida trollar tomonidan ularning nomidan berilgan patentlar paydo bo'lguncha kutiladi, ularga muhtoj bo'lgan bozor o'yinchilariga, ma'lum ishlab chiqaruvchilarga qarshi patentlardan foydalana boshlaydi, ilgari patent bilan himoyalangan texnologiyadan foydalanganlik uchun yuqori qiymatda royalti to'lashni talab qiladi. Shubhasiz, trollarning qiziqishi patentga bo'lgan eksklyuziv huquqlarni olish bilan cheklanadi va patentlangan texnologiyaning o'zini jiddiy tushunishga taalluqli emas.





Patent trollarining pul ishlash usullari:

- ✚ Patent texnologiyasidan foydalanishi mumkin bo'lgan har qanday kompaniyaga litsenziya berish;
- ✚ Korxonalarni sudga berish va patentni buzganlik uchun sudga berish;
- ✚ Shaxs yoki biznes litsenziya to'lovlarini to'lashi yoki kelishuvga erishishi uchun ommaviy axborot vositalarida o'z nishonining obro'siga putur etkazish.

Muhokama va tahlil

Xorijiy davlatlarning doktrinalarida patent trollarining tasnifi ajratib ko'rsatiladi. Ular tanlagan xulq-atvor strategiyasiga qarab ikki guruhga bo'lishadi: birinchi guruhdagi troll huquqbuzar kompaniyani u bilan litsenziya shartnomasi tuzishga taklif qiladi. Ikkinchi guruhning troli mualliflik huquqi egasi sifatida huquqlarni buzganlik uchun sudga da'vo qo'zg'atadi. Ushbu turlarni, shunga ko'ra, trollning harakatlariga qarab turlarga bo'lish mumkin. Patent trollarining harakatlari maqsadga muvofiqmi yoki ular suiiste'mollikmi? Litsenziya shartnomasini tuzishni talab qiladigan shaxsning maqsadga muvofiq harakatlari, agar bunday shaxsning huquqi ishlab chiqaruvchi kompaniya tomonidan allaqachon buzilgan bo'lsa, tan olinadi. Agar texnologiya hali qo'llanilmagan bo'lsa-da, lekin kompaniya uni belgilangan standartlar bo'yicha amalga oshirishga majbur bo'lsa, patent troli undan royalti "to'plashi" mumkin. Shu tarzda ishlaydigan troll "litsenziya tovlamachi" deb ataladi. Ikkinchisida ishlaydigan troll mualliflik huquqi egasi sifatida patentlangan obyekt ishlab chiqarishga kiritilguncha va standartlashtirilguncha kutadi va shundan keyingina troll o'z huquqlarini buzganlik uchun da'vo arizasini beradi. Patent mavjudligini yashirmaydigan va hatto undan foydalanadigan shaxsning harakatlari ham maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. O'z patentini ataylab yashirgan va keyin ortiqcha royalti to'lashni talab qiladigan patent troli sudda "ortiqcha royalti tovlamachilar" deb ataladi.

RPX korporatsiyasi hisobotiga ko'ra, 2015-yilda trollar AQShdagi barcha patent da'volarining 69,4 foizini (5219 tadan 3621 tasini) qo'zg'atgan. Yevropada 3 ta trollar faoliyati kuchayganiga guvoh bo'lgan. 2018-yilda Darts-IP, 2007-yildan 2017-yilgacha





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Yevropada trollar bilan bog'liq munozaralar har yili dahshatli sur'atda - 19 foizga oshgani haqida hisobot e'lon qildi.[2]

Patent trollari AQShda ko'proq tarqalgan, chunki patent trollari AQSh patent va sud tizimlaridagi mavjud tuzilmaviy muammolardan foydalanishlari mumkin. Patent trollari Yevropada kamroq tarqalgan, chunki ko'plab Yevropa mamlakatlari patent da'volarida sud ishlarida yutqazganlar, har ikki tomonning sud xarajatlarini to'lashlarini talab qiladi. Bu ko'pchilik asossiz da'volarni samarali ravishda bartaraf etdi. B. Sautier ta'kidlaganidek, patent trolligi Qo'shma Shtatlarda qonun bilan belgilangan huquqlarni amalga oshirishning keng chegaralari, sud jarayoni va advokat to'lovlarining yuqori narxi tufayli paydo bo'lgan.[3] 2013-yilda Amerika Intellektual Mulk Huquqlari Assotsiatsiyasi bitta ishni sudda ko'rib chiqish 650 mingdan 5 million AQSh dollarigacha turadi, deb hisoblagan edi. Shu munosabat bilan patent egasi litsenziya shartnomasini tuzish va ma'lum miqdorda to'lash imkoniyatiga ega. Masalan, sud jarayoni tahdidi ostida FindTheBest.comdan patent egasiga 50 ming AQSh dollari to'lash talab qilingan. Kompaniya rad etdi va patentni sudda bekor qilish uchun 200 ming dollar sarflagan. [4] Biroq 2014-yilda AQSh Oliy sudi shuni ko'rsatadiki, patent bo'yicha beparvo da'vo qo'zg'atilganda, da'vo rad etilsa, da'vogar javobgarning advokatlik to'lovlarini to'lash xavfini o'z zimmasiga oladi. [5] Ushbu qoida trollar tomonidan patent da'volarini berishni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Bunday harakatlarni qonun himoya qilishi kerakmi? Ular qonun va qonun talablariga mos keladimi-yo'qligini aniqlash kerak. Patent trollari tomonidan da'vo qilingan patentning buzilishi to'g'risidagi da'volar noqulay da'voning bir turi bo'lib, da'voning muhim ahamiyati yoki muvaffaqiyat qozonishi uchun emas, balki sudlanuvchi sud jarayoni bilan bog'liq katta xarajatlarni sarflamaslik uchun da'voni bekor qilish uchun pul to'laydi. Patent trollarining maqomini belgilashda faoliyatning tabiatiga ham, patentlangan obyektga bo'lgan huquqni amalga oshirish chegaralariga ham e'tibor qaratish lozim. Patent trollarining faoliyati faqat mablag' olish bilan bog'liq bo'lganligi sababli, u innovatsiyalarni joriy etishga va umuman texnik rivojlanishga obyektiv ravishda to'sqinlik qiladi, bu intellektual qonunchilik maqsadlariga zid keladi. Binobarin, jamoat manfaatlari va innovatsion kompaniyalar manfaatlarining buzilishi bilan bog'liq holda, patent trollarining faoliyati qonunni suiiste'mol qilish deb aytishimiz mumkin. Shaxsga tegishli bo'lgan rasmiy subyektiv huquq o'zboshimchalik






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

bilan va cheksiz amalga oshirilishi mumkin emas; huquq egasi muayyan ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, o'ziga u bilan aloqada bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini hisobga oladigan tarzda huquqlarni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi va agar huquqni amalga oshirish rasmiy ravishda qonun hujjatlariga zid bo'lmasa, lekin vijdonlilik tamoyiliga zid bo'lsa, u cheklanishi mumkin. [6] Shunday qilib, patent trollarining faoliyati qonunni suiiste'mol qilish deb tan olinishi mumkin, chunki ular intellektual huquqning maqsadlari va uning tamoyillariga mos kelmaydi.

Ushbu muammoni bartaraf etishga yordam beradigan tegishli vositani AQSh Fuqarolik protsessual qoidalariga qarash kerak. Ushbu moddaning 11-qoidasi patent-trolling biznes modelidan kelib chiqadigan ba'zi noyob qiyinchiliklarga qarshi kurashish uchun maxsus amalga oshirishni taklif qiladi. [7] 11-qoidaga asoslangan yechim nafaqat yangi qonunchilikka nisbatan afzalroq, balki bir-birini to'ldiruvchi hamdir, chunki u hech qanday qonunchilik harakatisiz darhol mavjud, patentni buzish bo'yicha noto'g'ri da'volar orqali patent da'vosining samarasizliklaridan foydalanadigan rivojlanayotgan xatti-harakatlarni boshqarish uchun yetarlicha moslashuvchan, va an'anaviy patent trolli, NPE, PAE yoki hatto tijoriy faol tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan patent-trolling xatti-harakatlarining o'zgarishini oldini olish uchun yetarlicha kuchli. Keng ma'noda, ushbu yondashuv patent nazoratiga moyil bo'lgan da'vogarlarini kashfiyot xarajatlari ko'payishidan oldin aniqlaydi va sud jarayonidan tezroq chiqishni ta'minlaydi. Taklif etilayotgan so'rov barcha NPElarga bir xil munosabatda bo'ladi va obyektiv ko'rsatkichlarni subyektning da'vo harakati ortidagi niyatni aniqlash uchun ishonchli vosita sifatida tahlil qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 11-qoidaning oldindan qo'llanilishi eng oson aniqlanishi mumkin bo'lgan patent buzilishi bo'yicha noqulay da'volarni tugatish uchun arzonroq qochish yo'lini taqdim etadi.

Hozirgi patent tizimida mavjud bo'lgan yuqorida ko'rsatilgan muammolar turlari haqiqiydir. Ular innovatsiyalar va yangi ish o'rinlari yaratish uchun to'siqdir. Biroq, ularni tuzatish trollning keng qamrovli ta'rifini talab qilmaydi. 2011-yilgi Amerika ixtirolari to'g'risidagi qonun tizimdan improvident tarzda berilgan patentlarni olib tashlash uchun bir necha tezroq va arzonroq protseduralarni taqdim etishda oldinga muhim qadam tashladi. Bularga quyidagilar kiradi:





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

1. Inter Partes tekshiruvi, bu uchinchi shaxsga berilgan patentga nisbatan oldingi texnika darajasi asosida e'tiroz bildirish imkonini beradi;
2. Patent berilgandan keyin birinchi to'qqiz oy ichida har qanday qonuniy asoslar bo'yicha har qanday birinchi taqdim etilgan patentga e'tiroz bildirish imkonini beruvchi grantdan keyingi ko'rib chiqish;
3. Yaqinda kuchga kirgan, texnik bo'lmagan moliyaviy xizmat yoki mahsulot patenti uchun har qanday asosda e'tiroz bildirishga imkon beruvchi o'tish davri, yopiq biznes usullari tartibi.

Ushbu protseduralar yangi bo'lsa-da va ularning patent tizimiga to'liq ta'sirini baholash uchun biroz vaqt kerak bo'lsa-da, ular USPTO tomonidan hech qachon berilmagan patentlarga e'tiroz bildirishning nisbatan arzon usulidir va shu bilan ulardan beparvo da'voda foydalanishni cheklaydi.


Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, patent trollari xavfli o'yinchilar hisoblanadi. Ular faqat o'z manfaatlari yo'lida patentlarni sotib, keyin boshqa korxonalarining ustidan da'vo qo'zg'atib, ulardan yuqori miqdordagi to'lov undirish uchun harakat qilishadi. Shuning uchun ham patent trollari bilan kurashish uchun quyidagi usullardan foydalanish samarali deb o'ylayman:

- + dushmanga o'zi foydalangan usul bilan zarba berish, qarshi da'volar berish, adolatsiz harakatlar haqida shikoyat qilish, berilgan himoya hujjatlarini bekor qilishni talab qilish;
- + uning qanday huquqlari buzilganligi to'g'risida dalillarni, da'voni asoslashni va hokazolarni talab qilish;
- + protsessual rollar va xarajatlarni taqsimlash, boshqa manfaatdor tomonlar bilan birlashish.

Shuningdek, ularni davlatga ziyon keltiruvchi parazitlar deb ham atash mumkin. Ularga qarshi kurashda o'zlarining usullaridan foydalanish samarali deb o'ylayman. Bu ko'pgina davlatlarda ham o'z tasdig'ini topgan usuldir.


Foydalanilgan manbalar:





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

1. <https://www.avocats-mathias.com/propriete-intellectuelle/patent-trolls-what-are-they-what-are-the-risks-for-ip-rights>.
2. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0267364920301229>
3. <https://www.avocats-mathias.com/propriete-intellectuelle/patent-trolls-what-are-they-what-are-the-risks-for-ip-rights>
4. Lumen View Tech LLC v. Findthebest.com. Inc., 13 Civ. 3599 (S.D.N.Y. Nov.22, 2013) [electronic resource] // URL: <https://casetext.com/case/lumen-view-tech-llc-v-findthebestcom-1> (просмотрено: 3 сентября 2020 г.)
5. Octane Fitness, LLC v. ICON Health & Fitness, Inc., 572 U.S. 545 (2014) [electronic resource] // URL: <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/572/545/> (просмотрено: 5 сентября 2020 г.)
6. ¹18 Esser J., Schmidt E. Schuldrecht. Bd I: Allgemeiner Teil. Karlsruhe, 1975. S.45
7. <https://scholarlycommons.law.northwestern.edu/njtip/vol12/iss4/2/>





VITAMIN B12 BOLALARDA VA KATTALARDA YETISHMOVCHILIGI SABABLARI, KLINIKASI, ASORATLARI VA DAVOLASH TAKTIKASI

Xursandova Feruza Sattorovna

Anatomiya va klinik anatomiya kafedrasisi assistenti, +998915794528

Annotatsiya: Vitaminlar tana hujayralarining yangilanishi, o'sishi va rivojlanishi va energiya ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan organik birikmalardir. Inson organizmida sintez qilib bo'lmaydigan, sintez qilinsa ham yetarli bo'lmagan vitaminlar tashqi oziq-ovqat yoki qo'shimchalar bilan to'ldirilishi kerak. Organizmdagi uch muhim funktsiya — asab sog'lig'ini saqlash, qon aylanishi va DNK sintezi — B12 vitaminida mavjud. Agarda ushbu vitamin yetishmasa, odam kuchli holsizlik va charchoqni his qiladi.

Kalit so'zlar: Vitamin B 12, kobalamin, Kasl faktori, *nitrokobalamin*, xavfli anemiya, dori mahsulotlari.


ПРИЧИНЫ, КЛИНИКА, ОСЛОЖНЕНИЯ И ТАКТИКА ЛЕЧЕНИЯ НЕДОСТАТКА ВИТАМИНА В12 У ДЕТЕЙ И ВЗРОСЛЫХ

Аннотация: Витамины – это органические соединения, необходимые для регенерации, роста и развития клеток организма и производства энергии. Витамины, которые не могут синтезироваться в организме человека или даже если синтезируются в недостаточном количестве, необходимо дополнять внешней пищей или добавками. Витамин В12 выполняет три важные функции в организме: здоровье нервов, кровообращение и синтез ДНК. Если этого витамина не хватает, человек будет чувствовать слабость и усталость.

Ключевые слова: витамин В 12, кобаламин, фактор Касла, нитрокобаламин, пернициозная анемия, лекарственные средства.

CAUSES, CLINICS, COMPLICATIONS AND TREATMENT TACTICS OF VITAMIN B12 DEFICIENCY IN CHILDREN AND ADULTS

Abstract: Vitamins are organic compounds necessary for the regeneration, growth and development of body cells and energy production. Vitamins that cannot be synthesized in the human body, or even if synthesized, are insufficient, must be





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

supplemented with external food or supplements. Vitamin B12 has three important functions in the body - nerve health, blood circulation and DNA synthesis. If this vitamin is lacking, a person will feel weak and tired.

Key words: Vitamin B 12, cobalamin, Kasl factor, nitrocobalamin, pernicious anemia, medicinal products.

Vitaminlarga bo'lgan ehtiyoj insonning yoshi, jinsi, jismoniy faolligi, surunkali kasalliklarning bor-yo'qligi, moddalar almashinuvining darajasiga bog'liq. Vitamin yetishmasligi organizm qarishini tezlashtiradi. Hozirgi kunda inson organizmida eng katta ahamiyatga ega bo'lgan birikmalardan biri bu vitaminlar hisoblanadi. Vitaminlar organizmda turli jarayonlarda ishtirok etib, muhim hayotiy jarayonlarni boshqaradi. Jumladan vitamin B12 bu DNK molekulasini sintezida ishtirok etadi. Bundan tashqari qon aylanishini ham normallashtirib turadi. Vitaminlar yog'da eriydigan va suvda eriydigan turlarga bo'linadi. Suvda eriydigan vitaminlar orasida eng ko'zga ko'ringan vitaminlar guruhi B vitaminlari hisoblanadi. Jami 8 ta B guruhi vitaminlari mavjud: tiamin (B1), riboflovin (B2), niatsin (B3), pantotenik kislota (B5), piridoksin (B6), biotin (B7), kobalamin (B12) va foliy kislotasi.

B₁₂ [vitamini-kobalaminlar](#) deb ataladigan biologik faol moddalar guruhi bo'lib, tarkibida [kobalt](#) atomini(III) o'z ichiga olgan va xelat birikmalari bo'lgan korrinoidlarga tegishlidir^{[1][2]}. Ilmiy adabiyotlarda, vitamin B₁₂ odatda inson organizmida [koenzim](#) shakllaridan biriga erkin aylanadigan siyanokobalamini bildiradi^[3]. Siyanokobalamin shaklida B₁₂ vitaminining asosiy miqdori inson tanasiga kiradi. Vitamin B₁₂ ning sinonimi bo'lmasa-da, bir qator boshqa birikmalar ham B₁₂ — vitamin falligiga egadirlar. Vitamin B₁₂, shuningdek tashqi deb ataladi. Tabiatda bu vitaminni ishlab chiqaruvchilari [bakteriyalar](#) va [arxeyalardir](#), lekin u o'simliklarda sintez qilinmaydi

B 12 vitamin tanadagi ko'plab mexanizmlarda ishtirok etadi:

- U qondagi qizil qon hujayralarini ishlab chiqarishda, DNK va miyelin sintezida foliy kislotasi bilan ishlaydi.
- Nerv hujayralarini o'rab turgan miyelin qobig'ining sintezida ishtirok etadigan B12 vitamini signalini uzatish tezligini oshiradi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

• U organizm tomonidan sintez qilingan aminokislotalar va B₁₂ vitaminining reabsorbtsiyasida(so'rilishi) ishtirok etadi. Sink va magniy kabi minerallarning funktsiyalarida samarali ishtirok etadi.

Kobalaminlar sinfiga kiradi:

siyanokobalamin (Co-a-[a-(5,6-dimetil-benzimidazolil)]-(Co-b-siyano)kobamid; CN-Cbl; S₆₃ H₈₉ O₁₄ N₁₄ PCo), unda CN kobalt bilan bog'lanadi. - guruh, tirik organizmlardan sun'iy ajratish natijasida sintez qilingan yoki hosil bo'lgan eng barqaror birikma, tabiiy sharoitda uchramaydi; *gidroksokobalamin* (yoki *oksikobalamin* yoki *vitamin B_{12a}* : Ko-a-[a-(5,6-dimetil-benzimidazolil)]-(Co-b-gidrokso)kobamid; OH-Cbl; C₆₂ H₉₀ O₁₅ N₁₃ PCo) unda CN - OH - guruhi bilan almashtiriladi, hayvon organizmlarida mavjud bo'lgan B₁₂ vitaminining tabiiy faol shakli kislotali muhitda akvakobalaminga teskari ravishda aylanadi; *aquakobalamin* (yoki *vitamin B_{12b}* : Co-a-[a-(5,6-dimetil-benzimidazolil)]-(Co-b-aqua)kobamid; aq-Cbl; C₆₂ H₉₁ O₁₅ N₁₃ PCo) ishlab chiqariladi. mikroorganizmlar tomonidan ishqoriy muhitda teskari ravishda gidroksokobalaminga aylanadi; *nitrokobalamin* (yoki *vitamin B_{12c}*), unda CN - ONO - guruhi bilan almashtiriladi;

B₁₂ vitaminining koenzim shakllari: *metilkobalamin* va *kobamamid* >; *dikakobinamid*.

Siyanokobalamin geksaperxloratning mumkin bo'lgan shakllanishidir. B_{12c} vitamini azot kislotasi ta'sirida B_{12b} vitaminidan hosil bo'ladi, shuningdek *Streptomyces griseus* tomonidan sintezlanadi. Kobalaminning barcha hosilalari vitamin B₁₂ ning biologik faolligini namoyish etadi. CN⁻ bilan o'zaro ta'sirlashganda hosilalar siyanokobalaminga aylanadi. Siyanokobalamindan kislotali muhitda biologik past faollikdagi siyano-13-epikobalamin (*neovitamin B₁₂*) hosil bo'ladi, unda korrinning „C“ halqasidagi (metil guruhi bilan) propionamid guruhi boshqa tomonda fazoda joylashgan.. Siyanokobalamin molekulasining bir elektronli qisqarishi bilan kristall holatda barqaror, ikki valentli kobalt atomiga ega vitamin B_{12t} hosil bo'ladi, ikki elektronli qaytarilish bilan suvli eritmalarda va ta'sir ostida barqaror bo'lgan B_{12s} vitamini olinadi, havo kislorodi eritmaning pH darajasiga qarab vitamin B_{12a} / B_{12b} ga aylanadi. Siyanokobalaminning etiketli radioizotop molekulalarini olish uchun mikroorganizmlarni etishtirish jarayonida radioaktiv izotop <sup





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Co qo‘shiladi yoki oksikobalaminga C izotopi bilan gidrosiyon kislotasi qo‘shiladi .

B₁₂ avitaminozida xavfli makrotsitar megaloblastik anemiya; orqa miya yonbosh va orqa ustunlari (funikular mieloza) va periferik asablarning distrofik shikastlanishlari; oshqozon-ichak traktida atrofik jarayonlar (glossit, me‘da shirasi kislotaligining keskin kamayishi bilan kechadigan gastrit) rivojlanadi. Shuningdek, B₁₂ vitamini tanqisligida nafas yetishmovchiligi, surunkali charchoq, depressiya, bezovtalik, ovqat hazm qilish tizimining buzilishi, bosh aylanishi, uyquchanlik, jigar shishishi, ko‘z kasalliklari, gallyutsinatsiyalar, bosh og‘rig‘i, til infeksiyasi, muvozanat muammosi, xotira yo‘qolishi, asabiy buzilishlar, yurak xuruji, kamqonlik, quloqlarda shovqin, ich qotishi va vazn yo‘qotish kabi holatlarga ham olib kelishi mumkin.

Agarda inson o‘zida B₁₂ tanqisligini gumon qilsa, quyidagilarga e‘tibor qaratishi lozim:

- oyoq va qo‘l barmoqlarining uvushib qolishi yoki sanchishi;
- muvozanat saqlashdagi muammolar;
- anemiya (kamqonlik);
- tilning shishishi va yallig‘lanishi;
- diqqatning buzilishi va xotira yomonlashuvi;
- holsizlik;
- ozib ketish.

B₁₂ tanqisligini yuzaga keltiradigan ikkita asosiy omil mavjud — xavfli anemiya va ovqat ratsionida vitamin yetishmasligi.

Odatda vitamin B₁₂ yetishmovchiligi siyanokobalamin preparatining mushak ichiga in‘ektsiyalari bilan davolanadi. So‘nggi paytlarda yetarli miqdorda og‘iz orqali oziq-ovqat qo‘shimchalari yetishmovchilikni qoplash uchun yetarli darajada samarali ekanligi ko‘rsatdi. Inson tanasi tomonidan B₁₂ vitaminining kunlik iste‘moli taxminan 2—5 mkg ni tashkil qiladi. Agar siz kuniga 1000-2000 mkg miqdorida vitamin bersangiz, u yonbosh ichak patologiyasida va Castlening ichki omili yetishmovchiligi bilan so‘riladi. Castlening ichki omilining yetishmovchiligini aniqlash uchun maxsus diagnostika texnikasi ishlab chiqilgan- bu Schilling testi, lekin uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan reagent hali ham juda qimmat va kam uchraydi.

Oddiy sog‘lom odamda qondagi B₁₂ miqdori taxminan 150 pg / ml ni tashkil qiladi. Agar bu miqdor 80 pg/ml dan pastga tushsa, B₁₂ yetishmovchiligi qayd etilishi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

mumkin. Har kuni 2,4 mkg B12 vitaminini ovqat bilan birga olish tavsiya etiladi. B12 yetishmovchiligi odatda malabsorbtsiya(ovqat hazm qilish tizimida muayyan ozuqa moddalarini iste'mol qilish qobiliyatidan mahrum bo'lish) buzilishi, noto'g'ri va muvozanatsiz ovqatlanish, omeprazol, glyfor, metmorfin kabi dorilarni qo'llash oshqozon operatsiyalaridan keyin kuzatiladi. Agar yetishmovchilik bo'lsa, B12 ga boy oziq-ovqatlarni iste'mol qilish tavsiya etiladi. B12 vitamini faqat hayvonlardan olingan oziq-ovqatlarda mavjud. Quyudagi mahsulotlar, ya'ni asosan kundalik mahsulotlarimiz B-12 ga boy mahsulotlar hisoblanadi: Molyuskalar, qo'y jigari, baliq, dengiz qisqichbaqasi, dukkakli o'simliklar, don mahsulotlari (g'alla), go'sht va sut mahsulotlari, pishloq hamda tuxumda ko'p uchraydi. Sut va sut mahsulotlari: Sut, yogurt, kefir yoki pishloq kabi sut mahsulotlari tarkibida protein, vitaminlar va minerallarning yuqori miqdori mavjud. 240 ml sut B-12 ga bo'lgan kunlik ehtiyojimizning 18% ni qondiradi. Yog'li yogurt ham B-12ning muhim manbai hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sut va sut mahsulotlarida B-12 biftek, baliq yoki tuxumdan ko'ra ko'proq olinadi. Sabzavotlar: Yasmiq, lavlagi, brokkoli, ismaloq, loviya, no'xat, yashil loviya, petrushkada B-12 vitamini mavjud. Qo'ziqorin: B12 vitamini nafaqat go'sht mahsulotlarida, balki unga eng yaqin bo'lgan qo'ziqorinlarda ham mavjud. Organimdagi B-12 tanqisligini qo'ziqorin iste'mol qilgan holda ham yo'q qilish mumkin. Tuxum: Tovuq, g'oz va o'rdak tuxumlari. Ikkita katta tuxum bizning kundalik B-12ga bo'lgan ehtiyojining 22% va B-2ga bo'lgan ehtiyojimizning 28% ni qondiradi. Jigar va byurak: Mol go'shti, qo'y go'shti, ayniqsa qo'zichoq jigari B-12 vitaminiga boy. Ular eng to'yimli ovqatlar qatoriga kiradi. Qo'zi jigari va buyragi ayniqsa B-12 ga juda boy hisoblanadi.

B12 vitamini yetishmovchiligining diagnostikasi. Ovqatdan so'ng B12 vitamini qonga turli yo'llar bilan so'riladi: birinchidan, vitamin oshqozonga oziq-ovqat bilan kiradi, u yerda "ichki omil" deb ataladigan omil bilan bog'lanadi; birgalikda ular ingichka ichakda so'riladi va qonga o'tadi. Bundan tashqari, vitaminning bir qismi "ichki omil" ishtirokisiz ichak devorlaridan qonga so'rilishi mumkin. Qondagi B12 vitaminining umumiy miqdoridan faqat 20% faol shakl bo'lib, bu modda holotranskobalamin (qisqacha HoloTC) deb ataladi. Agar bemor holati og'ir darajada bo'lsa yoki B12 vitamini yetishmovchiligi belgilari mavjud bo'lsa, ikki bosqichli maxsus qon testini o'tkazish kerak. Birinchi bosqichda holotranskobalamin tarkibi tekshiriladi, ikkinchi bosqichda metabolizmida B12 vitamini (metilmalon kislotasi va





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

gomosistein) ishtirok etadigan moddalarning kontsentratsiyasi tekshiriladi. B12 yetishmovchiligi bilan bu moddalarning kontsentratsiyasi oshadi. Ushbu testlarga asoslanib, B12 vitamini yetishmovchiligini aniqlash mumkin va uni imkon qadar tezroq davolash kerak. Organizmda ushbu vitamin yetishmasligini tashxislash juda qiyin bo'lishi mumkin, ammo o'ziga xos jihatlarini bildiruvchi umumiy belgilardan aniqlash mumkin bo'ladi. Birinchidan, terining rangi B12 tanqisligi bo'lgan odamlarda u juda rangpar yoki sarg'aygan zaif tusda bo'ladi. Bu teri holati qizil qon tanachalarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lib, ularning parchalanishiga va bilirubinning ko'payishiga olib keladi. Bilirubin jigarda ishlab chiqariladi va parchalangan qon hujayralarining mahsulidir. Tanadagi bu moddaning katta miqdori teriga va ko'z oqlariga sarg'ish rang beradi. B12 vitaminining yana bir xususiyati asab tolalarini himoya qilishdir. Shuning uchun, yetishmovchilik mavjud bo'lganda, asab tizimining ishi buziladi. Bu paresteziya shaklida namoyon bo'ladi - sezuvchanlik buzilishi, birdaniga paydo bo'ladigan tanada chumoli yurganday his bo'lishi, qizish, sanchiq hislari paydo bo'ladi. Doimiy holsizlik va charchoq ham B12 yetishmovchiligining muhim belgisidir. Dastlabki sabablar eritrotsitlar yetishmovchiligibo'ladi, chunki ular kislorodni hujayralarga olib boradi. Ularning yetishmovchiligi bilan gipoksiya rivojlanadi: odam doimiy uyquchanlik, nafas qisilishi va bosh aylanishini his qiladi. Glossit - bu B12 yetishmovchiligining yana bir noxush oqibatidir. Bu holat tilda og'riq, uning tuzilishi va rangi o'zgarishi bilan kechadi. Bundan tashqari, tilda shish yoki karashlanish paydo bo'lishi mumkin. Kamdan kam hollarda, B12 yetishmovchiligi ko'z asab tizimiga ham zarar yetkazishi mumkin, bu esa ko'rishning xiralashishiga olib keladi. Ushbu ko'rish qobiliyatining tez pasayishi optik neyropatiya deb ataladi. Ko'zdan miyaga impulslarning uzatilishining buzilishi ko'zning kuchli hira tortishiga sabab bo'ladi. Kamdan-kam hollarda, B12 yetishmovchiligi isitma ko'tarilishiga, qizishga olib kelishi mumkin. Diyetolog mutaxassisning fikriga ko'ra, B12 vitamini yetishmovchiligida tanada yoqimsiz hid bo'lishi, ishtahani yo'qotish, bel og'rig'i va muntazam bosh og'rig'i kuzatiladi. B12 vitamini tanamiz uchun juda muhim bo'lishiga qaramay, uni me'yorida iste'mol qilish kerak. Sog'lom katta yoshli insonlar uchun tavsiya etilgan sutkalik miqdor 3 mikrogramni tashkil qiladi. Bolalar organizmi B12 vitaminini biroz kamroq talab qiladi, homilador va emizikli ayollar esa kuniga 3,5-4 mkg qabul qilishi zarur. **B12 yetishmovchiligini davolashda yetishmovchilik** sababini aniqlash kerak. Agar yetishmovchilikning sababi, masalan,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

B12 mahsulotining yetishmasligi bo'lsa, bu vegan(vegetariyan) dietalarida juda keng tarqalgan. **B12 vitamini tabletkalari** yoki til osti tabletkalari tavsiya etiladi. Ammo, agar bemorda B12 vitaminining so'rilishida yetishmovchilik bo'lsa, tabletkalarni qo'llash davolanishga hissa qo'shmaydi. So'rilish bilan bog'liq muammolar tufayli yetishmovchilik bo'lsa, B12 vitamini qo'shimchasi in'ektsiya yo'li bilan amalga oshirilishi kerak. B12 vitamini mikroorganizmlar tomonidan sintezlanadi va deyarli faqat hayvon mahsulotlarida - ayniqsa, jigarda mavjud. Boshqa mahsulotlar: go'sht, baliq, tuxum va sut kabi boshqa hayvon mahsulotlari, shuningdek, sut mahsulotlari ham bu vitamining boy hisoblanadi. Vegetarianlarga etishmovchilikni qoplash uchun parhez qo'shimchalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Biroq, B12 vitaminining tasdiqlangan yetishmovchiligini davolash uchun optimal davolash rejimini belgilaydigan shifokor bilan maslahatlashish kerak. B12 vitaminining kam so'rilsa albatta buning sababni aniqlash kerak. Bu oshqozonda "ichki omil" sintezining buzilishi yoki 2-toifa diabet bilan og'rikan ko'plab odamlar qabul qiladigan metformin kabi dorilarning nojo'ya ta'siri tufayli vitaminlarning so'rilishining pasayishi bo'lishi mumkin. B12 vitaminining kam so'rilishi ham, B12 vitaminining yetishmasligida uning yuqori dozalarini qabul qilish orqali ham bartaraf etish mumkin. Agar ovqat hazm qilish tizimida qonga qaraganda sezilarli darajada ko'proq B12 vitamini bo'lsa, B12 vitaminining bir qismi tabiiy ravishda ichak orqali so'riladi. Shunday qilib, B12 vitamini yetishmovchiligi, uning so'rilishi buzilgan bo'lsa ham, asta-sekin davolanishi mumkin.

Xulosa: Hozirgi kunda vitaminlarning xossalari o'rganilib, ulardan turli kasalliklarni davolashda foydalanilib kelinyapti. Bu borada vitamin B12 va uning analoglari juda kata ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Vitamin B12 organizmda asosan 3 ta jarayonda ishtirok etadi. Qon aylanishida, asablar tinchlanishida va DNK sintezida ishtirok etadi. Agar organizmda B12 yetishmasa kuchli holsizlik va charchoq kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Berezovskiy V. M. Ximiya vitaminov. / Izd. 2-e pererab. i dop. // M.: Pishcheyaya promishlennost, 1973 — 632 s., ill. (Str.577-620). UDK 577.16.*





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

2. „Minot, George Richards (1885-1950), physician and pathologist“ (en). *American National Biography*. Qaraldi: 2022-yil 19-mart.
3. *Pod red. Stolyarovoy V. A. Noviy spravochnik ximika i texnologa. Chast 2: Siryo i produkti promishlennosti organicheskix i neorganicheskix veshchestv // SPb.: ANO NPO „Professional“, 2005, 2007 — 1142 s. (S. 1014-1019). ISBN 5-98371-028-1*
4. Докучаева Е. А. „Витамины“, *Общая биохимия*. Минск: ИВЦ Минфина, 2017. ISBN 978-985-7142-97-2





TOLALARDA MAKROMOLEKULALARNING ORIENTATSIYA FAKTORINI QO'SH NURNI SINISHI USULDA ANIQLASH.

Kosimov Asroriddin Sadiyevich

Termiz davlat universiteti fizika-matematika fakulteti umumiy kafedrasida professori.

Nazirov Jonibek Mamayusupovich

Termiz davlat universiteti fizika-matematika fakulteti umumiy fizika kafedrasida o'qituvchisi.

Amirqulov Jasurjon Shodiqul o'g'li

Termiz davlat universiteti fizika-matematika fakulteti fizika(yo'nalishlari bo'yicha)magistranti.

ANNOTATSIYA:

Mazkur ilmiy-texnik tadqiqot vazifalarning dolzarbligidan kelib chiqib, ushbu loyihaning asosiy maqsadi sellulozaning sintezi va makromolekula tolalardagi ustmolekulyar tuzilishi va kimyoviy xossalarini innovatsion tarzda joriy etishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: polisaharidlar, polipeptidlar, tabiiy kauchuk) va sintetik (plastmassalar, elastomerlar, kimyoviy tolalar) kompozit materiallar funksional nanotola.

DETERMINATION OF THE ORIENTATION FACTOR OF MACROMOLECULES IN FIBERS BY THE METHOD OF DOUBLE LIGHT REFRACTION.

ABSTRACT:

Based on the relevance of this scientific and technical research tasks, the main goal of this project is to introduce the synthesis of cellulose and the supramolecular structure and chemical properties of macromolecular fibers in an innovative way.

Key words: polysaccharides, polypeptides, natural rubber) and synthetic (plastics, elastomers, chemical fibers) composite materials functional nanofiber.





ОПРЕДЕЛЕНИЕ ФАКТОРА ОРИЕНТАЦИИ МАКРОМОЛЕКУЛ В ВОЛОКНАХ МЕТОДОМ ДВОЙНОГО ПРЕЛОМЛЕНИЯ СВЕТА.

Абстрактный:


Исходя из актуальности задач научно-технического исследования, основной целью данного проекта является инновационное представление синтеза целлюлозы, супрамолекулярной структуры и химических свойств макромолекулярных волокон.

Ключевые слова: полисахариды, полипептиды, натуральный каучук) и синтетические (пластики, эластомеры, химические волокна) композиционные материалы с функциональным нановолокном.

Polimer elementar zvenosi, segmenti, molekulyar zanjirini xususiy optik anizotropiyalarga ega bo'lishi, uning asosidagi materiallarda ham optik anizotropiyalar namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday anizotropiyalarning ko'p jihatdan molekulyar zanjirning konformatsion holatiga bog'liq bo'lib, uning maksimal qiymati zanjir rostlangan bo'lganda kuzatiladi. Bunday kuzatuv polimer plenka va tolalarda bevosita qo'sh nurni sinish usuli yordamida amalga oshirishi mumkin. Bunda harorat va tashqi mexanik ta'sirlarni inobatga olish zarur hisoblanadi, chunki molekulyar zanjirlar bu kabi tashqi ta'sirlar ostida osongicha deformatsiyalanadi, ya'ni konformatsion o'zgarishlar namoyon qilishi natijasida optik anizotropiyani o'zgartirib yuboradi.

Bunday tadqiqotlarni o'tkazishnin, ya'ni optik anizotropiyalar o'zgarishini nazorat qilishning maxsus yig'ilgan polyarizatsion-optik qurilmasi rasmda keltirilgan. Bunda harorat termometr (T) bilan nazorat qilinayotgan suvli shisha termostat (TC) ga qalinligi (d) bo'lgan plenka yoki tola vertikal joylashtiriladi va unga perpendikulyar ravishda to'lqin uzunligi $\lambda \approx 0,56 \text{ nm}$ va yo'nalishi burchagi $\varphi_1 \approx 45^\circ$ ostida bo'lgan qutblangan nur

Yo'naltiradi .nur yorug'lik manbasi (L)kondensor (K) Va qutublagich (R) vositasiga hosil qilinadi . Masalan ,tolada o'tiyotgan nur molekulyaf zanjirini orentatsion tartiblanish darajasiga bog'liq tarzda φ_2 burchakka og'adi





va u poliyarizatsionmikraskop PMK ning analizatori (A) limbi yordamchida o'lchanadi.

1-Rasm tola uchun maxsus polyarizatsion-optikqurulma chizmasi.

Bunda ($\varphi_1 - \varphi_2$) oddiy va g'ayri oddiy nurlar qutblanish burchaklari o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Bunga asosan qo'sh nurning sinish miqdori (Δn) quyidagicha hisoblanadi


$$\Delta n \approx \lambda (\varphi_1 - \varphi_2) / 180d$$


Polimer molekularining orientatsiya faktori (β) quyidagi nisbat bilan aniqlanadi.

$$\beta \approx (\Delta n / \Delta n_0)^{1/2}$$

bu yerda Δn_0 - polimer molekularining dastlabki, ya'ni erituvchisiz muhitdagi qo'sh nurni sinish miqdori. Shuningdek, raqamli fotoapparat (F) orqali materialning anizotropik tavsiri qayd etish uchun mumkin.

Mazkur qurilmaning polyarizatsion optik tizimi tadqiqotlarni erituvchisiz yoki erituvchi muhitida, haroratning turli miqdorlarida bevosita qo'shni nurni sinish miqdorlarini o'lchash orqali olib borish imkonini beradi. Misol uchun rasmda paxta tolasining optik anizotropiyasini issiq suv ta'sirida o'zgarishini qiyosiy tadqiqot natijalarini ifodalovchi mikrofitotasvirlar keltirilgan.





39-rasm. Paxta tolalari turli haroratli suv muhitidagi optik- anizotropiyasini mikrofototasvirlari: a -20 °C; b - 80 °C, c- 100°C.

Muhitning haroratini oshib borishi bilan paxta tolalarini shakllari va optik anizotropiyasi ozgarishi ko'rinib turibdi. Bu hol issiqlik beruvchi muhit sohasida paxta tolalarida strukturaviy ozgarishlar ruy berishidan dalolat beradi. Bunda issiqlikni oshishi tufayli tolalarning diametri ham ozgarishi kuzatilgan.

Shuningdek, polimer plenklar mexanik tarzda cho'zilganda ham optik anizotropik o'zgarishlar yorqin tarzda kuzatiladi. Plenkalarining shaffofligi qo'sh nurni sinishi usulini qo'llash katta imkon beradi.


Paxta tolasi. Polyarizatsion-optik qurilmaning termostatli (TC) optik yacheykasiga 50 ml distillangan suv solinadi va 20 °C haroratda ushlab turiladi hamda undan perpendikulyar tarzda polyarizatsion nur o'tkaziladi. Bunda polyaryaroid (R) dan chiqayotgan nurni qutblanishi vertikalga nisbatan 45° ni tashkil etadi va optik yacheykadan o'tib analizator (A) ga kelib tushadi. PMK orqali vizual tarzda kuzatgan holda analizator qutbi vertikalga nisbatan 90° atrofida buraladi va maksimal qorong'ulikka, ya'ni polyarizator va analizator qutblarini bir biriga nisbatan perpendikulyar kesishgan holatga erishiladi. Bunda oddiy va g'ayri oddiy nurlar





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

orasidagi fazalar farqi φ_1 , ya'ni analizator limbidagi noniusli shkalada necha gradusni tashkil etishi qayd aniqlanadi. Bunday holda tola undan perpendikulyar tarzda o'tayotgan polarizatsion nurni qutb yo'nalishini ma'lum φ_2 burchakka buradi va uning miqdori analizator limbini qorong'ulik holatiga erishguncha burish orqali aniqlanadi. So'ngra (1) va (2) formula yordamida qosh nurni sinish ko'rsatgichi Δn va orientatsiya faktori β aniqlanadi. Qosh nurni sinish ko'rsatgichini o'zgarishi makromolekulyar zanjirlar konformatsion holatiga tuhridan to'g'ri bog'liqligidir. Konformatsion o'zgarishlar, maksimal rostlangan holatni qo'sh nur sinish ko'rsatgichi Δn_0 , bo'lib, unga nisbatan Δn o'zgarishi aynan makromolekulalar orientatsiya faktori ifodalaydi. Shu bois Δn o'zgarishini turli harorat (t) larda o'lchash makromolekulalar holatini issiqlik ta'siriga nisbatan qanchalik o'zgaruvchan ekanligi haqida ma'lumot beradi.



O'lchashlar. Tajribalar $\lambda = 0,56 \times 10^{-4} \text{ sm}$ to'lqi uzunligida φ_1, φ_2 va d ning miqdorlari 20-80 c⁰ diapazonda o'lchash orqali amalga oshiriladi.





Makromolekula (makro... va molekula) — o‘zaro kovalent bog‘lar orqali birikkan o‘n mingdan yuz minggacha atomlardan tuzilgan yirik molekula. M. zanjirida elementar zveno (ma‘lum sondagi atomlar guruhi) juda ko‘p marta takrorlanadi, shuning uchun ham uni kup sonli bir xil yoki har xil kichik molekulalardan (bir necha minggacha) hosil bo‘ladigan molekula deb kabul kilsa bo‘ladi, polivinil xlorid molekulasi tarkibidagi — SN_2-SN — guruhi soni hatto 3000 ga yetishi mumkin. Kimyoviy tarkibi bir xil, ammo mol. m. har xil, yaxlit bo‘lib reaksiyaga kirishadigan M.lar yig‘indisidan tashkil topgan moddalarga yuqori molekuli birikmalar (polimerlar) deyiladi; ular tabiiy (polisaharidlar, polipeptidlar, tabiiy kauchuk) va sintetik (plastmassalar, elastomerlar, kimyoviy tolalar) turlarga bo‘linadi. Tashqi sharoit o‘zgarganda, polimerlar tarkibidagi molekulyar zanjirlarning o‘z konfiguratsiyalarini o‘zgartira olishi M.larning asosiy xossalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda barcha M.lar chiziqli (uzunchoq) egiluvchan (tabiiy kauchuk, kauchuksimon sintetik moddalar M.lari), chiziqli qattiq (sellyuloza M.lari), spiralsimon (oqsillar, nuklein kislotalar makromolekulalari), tarmoqlangan (polisaharidlar makromolekulalari), fazoviy (uch o‘lchamli) turlarga bo‘linadi. M.ning uz. 4000—8000 A, ko‘ndalang kesimi 3—7,5 A. Karbozanjirli (zanjiri faqat uglerod atomlaridan tuzilgan) va geterozanjirli (zanjirida uglerod atomlaridan tashqari azot, kislorod, oltingugurt atomlari saqlagan) M. bo‘ladi. Zanjirning tuzilishi, kattaligi (mol. m.) va zvenolarining joylanish tartibi, uning xossalariga (egiluvchanligi, bog‘larining mustahkamligi, elektr o‘tkazuvchanligi, kimyoviy reaksiyaga kirishiga) ta’sir ko‘rsatadi. M.larning bu xossalaridan ular asosida plastmassa, sintetik kauchuk, sun‘iy tola kabi materiallar olishda foydalaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki tolalarda makromolekula lalarni faqat optik yo‘li bilan aniqlanadi .Bunday tadqiqotni o‘tkazishni yani optik anizotropiyalar o‘zgarishini nazorat qilishning maxsus yig‘ilga polyarizatsionoptik qurilmasi orqali aniqlash mumkin. Shuning uchun ham uni kup sonli bir xil yoki har xil kichik molekulalardan (bir necha minggacha) hosil bo‘ladigan molekula deb kabul kilsa bo‘ladi, . Polyarizatsion-optik qurilmaning termostatli (TC) optik yacheykasiga 50 ml distillangan suv solinadi va 20 °C haroratda ushlab turiladi hamda undan perpendikulyar tarzda polyarizatsion nur o‘tkaziladi.





ADABIYOTLAR

1. Kosimov Asroriddin Sadievich "POLIMERLAR FIZIKASI" Termiz-2022
2. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, T.O'zbekiston, 2004.
3. Xolmuminov Abdulfatto Axatovich "polimerlar fizikasi" Toshkent -2014
4. Kosimov A.S.Nazirov.J.M Amirqulov.J.Sh.Mahalliy polimerlar asosida nanotolalar shakilantirishi. Termiz-2023





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JURNALISTLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusalomova Zarifabonu Abdishukur qizi

Qurbonov Dadabek Farhod o‘g‘li

Jo‘rayev Jaloliddin Ixtiyor o‘g‘li

Ismoilov Furqat Yigitali o‘g‘li

Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakultet Talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda jurnalistikaning tutgan o‘rni va roli, ushbu sohada amalga oshirilatyotgan chora-tadbirlar, hamda Jahonda va O‘zbekistonda olib borilayotgan faoliyatlar va ular o‘rtasidagi farqlar, shuningdek jurnalistika sohasidagi bir qancha muammolar va yechimlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Jurnalistika, Obyektivlik, Integratsiyalashgan platforma, Jurnalistlar murojaatlarini tezkor, samarali va sifatli ko‘rib chiqish va qarorlar qabul qilish mexanizmi, anonimlik funksiyasi, talablar va takliflar.


IMPROVING JOURNALISTS' RIGHTS PROTECTION MECHANISMS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: In this article, the place and role of journalism in our country today, the measures implemented in this field, and the activities carried out in the world and in Uzbekistan and the differences between them, as well as a number of problems and solutions in the field of journalism. z is maintained.

Keywords: Journalism, Objectivity, Integrated platform, mechanism for quick, efficient and quality review and decision-making of journalists' appeals, anonymity function, requirements and proposals.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЗАЩИТЫ ПРАВ ЖУРНАЛИСТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В данной статье рассматриваются место и роль журналистики в нашей стране сегодня, меры, реализуемые в этой сфере, и деятельность,





проводимая в мире и в Узбекистане и различия между ними, а также ряд проблем и решений. в сфере журналистики сохраняется.

Ключевые слова: Журналистика, Объективность, Интегрированная платформа, механизм быстрого, эффективного и качественного рассмотрения и принятия решений по обращениям журналистов, функция анонимности, требования и предложения.

*«Ommaviy axborot vositalari soʻzda emas, amalda «toʻrtinchi hokimiyat» darajasiga koʻtarilishi zarur. Bu — zamon talabi, islohotlarimiz talabi».*⁴⁶


Shavkat Mirziyoyev.

KIRISH

Hozirgi kunda, ommaviy axborot vositalarini koʻpincha «Toʻrtinchi hokimiyat» degan atama bilan atashadi, bu abstrakt va lirik tushuncha. Negaki, ommaviy axborot vositalarida kimningdir qilgan xato va kamchiliklarini tuzatish uchun qoʻllanadigan buyruq mexanizmi yoki vakolati yoʻq. Misol uchun, qaysidir tashkilot odamlarning oylik ish haqini bermayotgan boʻlsa, mehnat kodeksidan chetga chiqib ketgan boʻlsa yoki kimdir qonunni buzayotgan boʻlsa uni jazolay olmaydi, xato va kamchilikni tuzatish uchun buyruq ham bera olmaydi. Lekin muammoga, masalaga yoki qandaydir voqeaga qonunchilik hokimiyati, ijro hokimiyati, sud hokimiyatining diqqatini jalb qilishga matbuotning haqqi bor.

«Toʻrtinchi hokimiyat» atamasi jamiyatdagi ijtimoiy fikrga matbuotning qanchalik taʼsir koʻrsata olishini ifodalaydigan abstrakt va lirik atama hisoblansa-da, ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda boʻlayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonga nisbatan jamoatchilikning diqqatini jalb qilib, unda daxldorlik tuygʻusini uygʻota oladi, bu uning vazifasi va bunga haq-huquqi ham yetarli darajada mavjud. Aynan mana shu egallab turgan haq huquqi evaziga davlat boshqaruv tizimidagi uch hokimiyatni oʻziga, yaʼni matbuotga qaram vaziyatda ishlashini talab qiladi. Agar, aksincha matbuot uch hokimiyatga qaram vaziyatda boʻlsa, unda davlatda hech qanday rivojlanish boʻlmaydi.

⁴⁶ <https://kun.uz/64142721?q=%2Fuz%2F6414272>





Bu ahvolda davlat tizimi korrupsiya botqog‘idan chiqa olmay, parokanda bo‘lishi mumkin.”⁴⁷

Metodologiya

Masalaning nozik tomoni ham bor. “Chegara bilmas muxbirlar” xalqaro nodavlat tashkilotining ma’lumotiga ko’ra 2023-yilda O‘zbekiston matbuot erkinligi indeksida dunyoning 180 ta davlati ichida 137-o‘rinni egallagani takidlangan. Bu esa mamlakatimiz matbuot erkinligi bo‘yicha yaxshi ko‘rsatkichda emasligini ko‘rsatadi. “Chegara bilmas muxbirlar” xalqaro nodavlat tashkiloti har bir mamlakat yoki hudud uchun matbuot erkinligi holatini baholash uchun beshta quyidagi ko‘rsatkichdan foydalanadi.

Bular: Siyosiy kontekst, ijtimoiy-madaniy kontekst, iqtisodiy kontekst, huquqiy baza, xavfsizlik. Bu xalqaro nodavlat tashkilot O‘zbekistondagi matbuot erkinligini ham yuqoridagi besh ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholab, o‘zlarining quyidagi mulohazalarini aytib o‘tishgan.

“Chegara bilmas muxbirlar” xalqaro nodavlat tashkilotining ma’lumotiga ko’ra – “O‘zbekistonda xususiy televideniye tarmog‘i mavjud emas. Davlat radiosi rasmiy tashviqotni uzatadi, xususiy radiostansiyalar yopilishidan qo‘rqib har qanday tanqiddan tiyiladi va yozma matbuot davlat manfaatlariga xizmat qiladi. Faqat 15 ga yaqin onlayn ommaviy axborot vositalari, ularning ba’zilari chet elda joylashgan bo‘lib, sifatli tarkibni nashr etadi. Ular orasida Ozodlik Radiosi, Amerika ozod Yevropa, Ozodlik radiosi, mamlakatda bloklangan. Matbuotning uchdan bir qismi rus tilida efirga uzatiladi”.

Rasmiylar asosan ommaviy axborot vositalarini, shuningdek, hukumat bilan yaqin aloqada bo‘lgan bir qator bloggerlarni nazorat qiladi degan fikrlarini bildirishgan.

Ijtimoiy-madaniy kontekstga keladigan bo‘lsak, 37 million aholining oltmish foizi 30 yoshgacha. Bu kuchli yoshlik mavjudligi, shuningdek, internet qamrovining kengayishi ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa Odnoklassniki, Facebook va Telegram nima uchun jadal rivojlanayotganini tushuntiradi. Ushbu platformalardagi ba’zi guruhlar rasmiy ommaviy axborot vositalari zo‘rg‘a yoritadigan korrupsiya masalalari bo‘yicha ma’lumot almashishga imkon berishi ma’lum bo‘lgan.

Iqtisodiy kontekst.

⁴⁷ <https://kun.uz/64142721?q=%2Fuz%2F64142721>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

“Chegara bilmas muxbirlar” xalqaro nodavlat tashkilotining ma’lumot berishicha - Rasmiylar iqtisodiy bosim o'tkazishdan yoki jurnalistlarni buzishga urinishdan tortinmaydi. Mustaqil ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, asosan, ularni moliyalashtirishni cheklovchi qonunlar, ayniqsa, erkin matbuotni qo'llab-quvvatlovchi xorijiy tashkilotlar tomonidan to'sib qo'yilgan.

Huquqiy baza.

Rasmiylar ommaviy axborot vositalariga qarshi repressiv qonunlarni tugatish uchun zarur bo'lgan islohotlarni hali amalga oshirmagan. Kuzatuv va senzura keng tarqalgan. O'z mustaqilligini saqlab qolish uchun ba'zi mahalliy onlayn nashrlar nashr qilgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilish va katta jarimaga tortilish xavfi ostida OAV sifatida rasman ro'yxatdan o'tishdan qo'rqishadi.

Xavfsizlik.

Ayrim jurnalistlar qamoqqa olingan va ozod qilinganidan so'ng qariyb 20 yil o'tgan bo'lsada, hali hanuz reabilitatsiya qilinmagan. YouTube ijtimoiy tarmog'idagi “Xalq fikri” kanali asoschisi Otabek Sattoriy singari bloggerlarga hamon tahdid qilinmoqda yoki hibsga olinmoqda. U 2021 yil may oyida tuhmat va tovlamachilik jinoyati bo'yicha olti yarim yilga qamalgan edi. Uning ishtirokidagi sud jarayonini yoritishga uringan jurnalistlar hujumga yoki asossiz jinoiy ta'qibga uchrashdi. Qoraqalpog'iston Respublikasining mustaqilligini qo'llab-quvvatlovchi namoyishlarni yoritgan jurnalistlarga nisbatan hukumatning barcha muxoliflarga nisbatan “ovozini o'chirish” va “bostirish” prinsipi qat'iy qo'llandi.

Jahon tajribasi.

Jurnalistlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha integratsiyalashgan platformalardan biri Amerika Qo'shma Shtatlariga tegishli bo'lgan "Press Freedom Tracker" platformasi hisoblanadi.

"Press Freedom Tracker" (Matbuot Erkinligi Kuzatuvchisi) Amerika Qo'shma Shtatlarida jurnalistlar va media xodimlarining xavfli muhitda faoliyat ko'rsatishi va matbuot erkinligi bilan bog'liq holatlarni kuzatish maqsadida yaratilgan onlayn platformadir.

Bu platforma jurnalistlar va media tashkilotlari uchun xavfli muhitda faoliyat ko'rsatishdagi qiyinchiliklarni kuzatib boradi va ularga yordam beradi. "Press Freedom Tracker", jurnalistlarning huquqiy himoyalari, ozodliklari va xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, bu platforma jurnalistlar va media tashkilotlari



o'rtasida bir-birini qo'llab-quvvatlash, ma'lumot almashish va ko'rishlarini o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Shu sababdan ham Amerika Qo'shma Shtatlari"ning jahon matbuot erkinligi reytingida 45-o'rinni egallagani bejizga emas.

To'g'ri AQSH 2023-yilda 2022-yilga qaraganda 3 pog'ona pastlagan lekin bunga sabab qilib Prezident saylovlarida o'z nomzodlarini qo'ygan siyosiy partiyalar o'rtasidagi kurash va bu kurash orqali jurnalistlarga qilingan tazyiqlar sabab bo'lishi mumkin.

NATIJALAR.

AQSH tajribasidan olib, shuni takidlash kerakki, O'zbekistonda jurnalistlar huquqlarini himoya qilish uchun integratsiyalashgan platforma yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Bu integratsiyalashgan platforma orqali jurnalistlar huquqlari sezilarli darajada himoya qilinishi mumkin.

Bu qanday bo'lishi kerak?


9. Integratsiyalashgan Platforma

Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman), bosh prokuratura, ichki ishlar vazirligi, va axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi o'rtasida huquqlari buzilgan jurnalistlar muammolarini yechish uchun integratsiyalashgan platforma yaratish muhimdir. Bu platforma jurnalistlar murojaatlarini tezkor va samarali ko'rib chiqish, xabarlarini qonuniy tartibotka muvofiq hisobga olgan holda tez hal etish, va huquqiy himoyaga olishda muhim rol o'ynaydi.

Bu integratsiyalashgan platforma, jurnalistlar uchun xavfsiz va ishonchli bir muhit yaratishga yordam beradi, ularning huquqiy himoyasini oshiradi va huquqiy tartibotda adolatni ta'minlaydi. Bu platforma orqali jurnalistlar murojaatlari sababli yetkazilgan xabar hamda muammolarni aniqlab, ularga javob topishlari va muammolarni hal etish uchun ko'maklashadi. Buning natijasida, jurnalistlar uchun ozodlik va obyektivliklarini oshirish va faol media faoliyatini davom ettirishga imkoniyati paydo bo'ladi.

2. Tezkor, Samarali va Sifatli Ko'rib Chiqish Mexanizmi

Jurnalistlar murojaatlarini tezkor, samarali va sifatli ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish mexanizmini takomillashtirish lozim. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va integratsiyalashgan platformalar jurnalistlarning murojaatlarini tezda qabul qilib,





huquqiy nazarotga olish va ularga qarorlarini tezda e'lon qilish uchun xizmat qilishi kerak.

3. Anonimlik Funksiyasi

Jurnalistlar qonunbuzarliklar haqida tazyiqlarsiz xabar berishini ta'minlash uchun platformada anonimlik funksiyasini joriy etish, hamda ularning ozodlik va huquqlarining himoyalanganliklarini kuchaytirish uchun muhim bir vosita bo'lib xizmat qiladi. Anonimlik funksiyasi jurnalistlarga xavfsizlik va himoya hissini beradi.

Buning natijasida, anonimlik funksiyasini joriy etish, jurnalistlar va ularning xabarlarini bilan ishlashdagi huquqiy xavflar kamayadi va ularni maqbul media muhitida faol ishtirok etishga ilhomlantiradi.

4. Amalga Oshirilgan Ishlarni O'rganish va Sohoni Tartibga Solish

Jahon sudi amaliyoti va davlat boshqaruvi tomonidan jurnalistlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni o'rganish va sohoni tartibga solish juda muhim omil hisoblanadi. Bu esa, davlatning jurnalistlarni huquqiy himoya qilish sohasidagi qadamini o'rganish, qonuniy manbai bo'yicha takliflar ishlab chiqish va jurnalistlarning obyektivligini va ozodligini ta'minlashga intiladi.

Ushbu yaratilayotgan platforma tarkibida Jurnalistlar uchun qonuniy yordam bo'limi tashkil etilishi va malakali huquqshunoslarni jalb etgan holda jurnalistlarga qonuniy masalalarda yordam berish mexanizmi yaratilishi zarur.

Bu bo'lim orqali jurnalistlar o'zlari uchun tushunarsiz bo'lgan holatlar yuzasidan huquqiy yordam olishlari mumkin bo'ladi.

Huquqlari buzilayotgan jurnalistlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha inson huquqlari vakili(Ombudsman), Prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi o'rtasida yaxlit platforma yaratish matbuot erkinligi va inson huquqlarini himoya qilishning birlamchi yechimi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu platformani yaratishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi asosiy qadamlar mavjud bo'lib bular quyidagilar:

1.Markazlashtirilgan tizimni o'rnatish:

Jurnalistlarga o'z huquqlarining buzilishi bo'yicha o'z murojaatlarini yuborish imkonini beruvchi markazlashtirilgan tizimni ishlab chiqish zarur. Jurnalistlar har qanday voqea-hodisalar to'g'risida osongina xabar berishlari uchun ushbu tizim qulay va foydalanuvchilar uchun oson bo'lishi kerak.





2.Agentliklar o'rtasidagi muvofiqlashtirish:

Jurnalistlardan kelib tushadigan murojaatlarnin tezkorlik bilan hal etish bo'yicha inson huquqlari vakili, Prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Axborot va kommunikatsiyalar agentligi o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlanlash lozim. Ushbu muvofiqlashtirish jarayonni tartibga solishga yordam beradi va xabar qilingan qonunbuzarliklarga o'z vaqtida javob beradi.

3.Standartlashtirilgan protseduralar:

Jurnalistlarning murojaatlarini ko'rib chiqishning stabdartlashtirilgan tartiblarini ishlab chiqish, shu jumladan tergov, hal qilish va keyingi harakatlar uchun protokollar tuzish zarur. Bu tartib-qoidalar orqali jurnalistlar huquqlarini himoya qilishni birinchi o'ringa qo'yish va har qanday huquqbuzarlik uchun javobgarlik ta'minlanishi kerak.

4.O'qitish va salohiyatni oshirish:

Tegishli idoralar xodimlarining matbuot erkinligi, inson huquqlari va jurnaslistlar huquqlarini tartibga soluvchi qonunchilik asoslari haqidagi tushunchalarini oshirish dasturlarini taqdim etish lozim. Bu ularning jurnalistlar murojaatlarini samarali hal etish va huquqlarini himoya qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.


5.Shaffoflik va hisobdorlik:

Jurnalistlarning murojaatlarini ko'rib chiqish jarayonida shaffoflikni ta'minlash va tegishli idoralar tomonidan amalga oshiririlgan barcha harakatlar uchun javobgarlik saqlanishi kerak. Murojaatlar holati va tergov natijalari to'g'risida fuqarolarga muntazam xabar berib borish jurnalistlar va jamoatchilik o'rtasida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama

Yuqorida qayd etilgan asosiy idoralar o'rtasida yaxlit platforma yaratish orqali jurnalistlar huquqlarini himoya qilish, matbuot erkinligini ta'minlash va inson huquqlari me'yorlarini qo'llab-quvvatlashning yanada mustahkam mexanizmini yaratish mumkin bo'ladi.Ushbu hamkorlikdagi yondashuv tizimli muammolarni hal qilishga va kelajakda buzilishi mumkin bo'lgan inson huquqlari va jurnalistlar huquqlarining himoya qilinishiga yordam beradi va natijada jurnalistika hamda so'z erkinligi uchun yanada qulay muhit yaratilishiga hissa qo'shadi.

XULOSA.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

Xulosa qilib aytganda, Jahon amaliyoti va davlat boshqaruvi tomonidan jurnalistlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni o'rganish va sohani tartibga solish juda muhimdir. Bu davlatning jurnalistlarni huquqiy himoya qilish sohasidagi qadamini o'rganish, qonuniy manbaalar bo'yicha takliflar ishlab chiqish va jurnalistlarning obyektivligini va ozodligini ta'minlashga intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://rsf.org/en/country/uzbekistan>
2. https://rsf.org/en/2023-world-press-freedom-index-journalism-threatened-fake-content-industry?year=2023&data_type=general
3. <https://kun.uz/64142721?q=%2Fuz%2F64142721>






TABLE OF CONTENTS

1	JISMONIY TARBIYADA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI Qurbanov Omirbek Arazmuratovich	7-13
2	IDENTIFICATION OF RESPIRATORY FUNGAL INFECTIONS USING CYTOSCREENING Mugtaba Ahmed Abdelrazig, Huda Bassam Aroudaky	14-21
3	ROUTE PLANNING FOR A MOBILE ROBOT IN 3D SPACE BASED ON AN ALGORITHM PROBABILISTIC ROADMAP Vladyslav Yevsieiev, Svitlana Maksymova, Amer Abu-Jassar	22-33
4	SURXONDARYO VILOYATINING TOVARLAR TASHQI SAVDO AYLANMASINI TREND MODELLARI ORQALI MODELLASHTIRISH A.O'.Omonova, B.E. Turayev	34-41
5	AMINLARNI ANIQLOVCHI YARIMO'TKAZGICHLI SENSORNI METROLOGIK TAVSIFINI O'RGANISH Salohiddin Aliqul o'g'li Zikirov, Hayit Xudaynazarovich Turayev, Nurmuhammad Suyunovich Boltayev, Sunnattullo Toshpo'lat o'g'li Mansurov	42-47
6	ИНТЕНСИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ Кенжаева Мухаббат Тоштемировна	48-51
7	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI Axmedov Alim Babaniyazovich, Mardanova Dilnoza Aliqul qizi	52-56
8	UNDERSTANDING THE PILLARS OF THE GLOBAL STANDARD OF ACCOUNTING Ismailov Shapakhat Sodikovich	57-62
9	THE VITAL ROLE OF ACCOUNTING AND AUDITING IN THE DIGITAL ECONOMY Qo'shayev To'xtasin Abdiqodirovich	63-67
10	DAVLATNING BYUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI JAMG'ARMALARI FAOLIYATI SAMARODORLIGINI OSHIRISH YONALISHLARI. (PENSIYA JAMG'ARMASI MISOLIDA) Aslonova Mohinur Rustam qizi, Rahimova Nozimaxon	68-73
11	IQTISODIYOTDA MODERNIZATSIYANING TUTGAN O'RNI Kenjayeva Sabohat Safarovna	74-78





12	ТРАНСФОРМАЦИЯ ГЕРОЯ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX ВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А. С. ПУШКИНА, М. Ю. ЛЕРМОНТОВА, И. С. ТУРГЕНЕВА Холдоров Чоршанби Холдорович	79-84
13	UNIB O'SGAN O'Z YURTINGDAN AYRILMA Shabbazova Nodira Xamzayevna	85-90
14	ДОКУМЕНТАЛЬНАЯ ПРОЗА: ОТРАЖЕНИЕ РЕАЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ ПЕРО ПИСАТЕЛЯ Шахноза Бердиева	91-95
15	BADIIY KO'CHIM VA RAMZNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI Rajabov To'xtamurod Abdullayevich	96-100
16	TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KREDITDAN SAMARALI FOYDALANISH Hojiqulova Feruza Dona qizi, Jumayeva Nafisa Narzulla qizi	101-104
17	MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AGRAR SOHANING TUTGAN O'RNINI Xamidov Asilbek Umuruzoqovich, Ashurov Jaloliddin Eshpo'latovich	105-110
18	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK PALATASI VA SENATI O'RTASIDAGI KELISHMOVCHILIKNI BARTARAF ETISH TARTIBI Sobirov Sardorbek Bahodir o'g'li, Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li	111-114
19	SURXONDARYO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR ZIYORATGOHLAR Nazarova Shahnoza, Ashurov Jaloliddin	115-119
20	ПАХТА ТОЛАСИНИ МОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИНГАН НИТРОН ТОЛАСИГА АРАЛАШТИРИБ ЙИГИРИЛГАН ИПЛАРНИНГ БИР ДАВРЛИ ДЕФОРМАЦИЯСИ У.Б.Ражапова, А.О.Эркинов, А.А.Бахромова	120-124
21	MEN YOQTIRGAN ADIB Saitqulova O'g'li Zokir qizi	125-134
22	MODIFIKATSIYALANGAN KARBAMID-FORMALDEGID SMOLASIGA QO'SHIMCHA PLASSIFIKATOR QO'SHIB KOMPOZITLAR OLISH Murodova Dildora Chori qizi, Eshmurodov X.E.	135-138
23	IMPORTANCE OF LEARNING ENGLISH LANGUAGE IN XXI CENTURY Lobar Murodova Zoyer qizi	139-144






24	ИММУННЫЙ ОТВЕТ НОВОРОЖДЕННЫХ, РОЖДЕННЫХ ОТ МАТЕРЕЙ, ИНФИЦИРОВАННЫХ SARS-COV-2. Кароматова Фазолат Абдикаххоровна	145-149
25	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SMETALAR IJROSI HISOBINI YURITISH Shaymatova Nargiza Ashurovna	150-155
26	IMPACT OF NEW ECONOMIC POLICY ON TRADE AND INDUSTRY Yunusova B.A	156-162
27	АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЁШЛАРДА ВИРТУАЛ МАДАНИЯТНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ КЎНИКМАЛАРИ Каримов Одилжон Икрамович	163-167
28	ИЖТИМОЙ ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ КОММУНИКАТИВ УСУЛЛАРИ М.Н.Нормаматова	168-171
29	A PROGRAM FOR ANALYZING THE STRUCTURE OF A WEB SITE DEVELOPMENT USING THE PARSING METHOD BASED ON THE PYTHON Vladyslav Yevsieiev, Svitlana Maksymova, Ahmad Alkhalailah	172-183
30	SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK ISHLAB CHIQRISH HAJMIGA ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSUYALARNING TA'SIRINI BAHOLASH. O.Ahmedov, B.E. Turayev	184-194
31	SAVDO, YASHASH VA OVQATLANISH BO'YICHA XIZMATLAR SOHASIDA YARATILGAN QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH O. Axmedov, B.E. Turayev	195-205
32	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI VA IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIGA UNING TA'SIRI Atajanov Mamatsharip Karimberdiyevich	206-213
33	TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA KREATIV YONDASHUV Yerlepesova Xadisha Xudaybergenovna	214-219
34	РОЛЬ ЯЗЫКА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ Атажанов Кеңесбай Ибрагимович	220-224
35	HUDUDLARNI INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH Turdialiyeva Masuda Rahimjon qizi	225-231





36	IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH DINAMIKASI Eshqulova Dilorom Abduravupovna	232-238
37	DISCOVERING THE DEPTHS: THE SALT MINE AS A UNIQUE HEALING PLACE Sarvar Abdurahimov Nasrilloevich, Zamira Norsoatova Ziyadulla qizi	239-245
38	UNVEILING TREASURES: EXPLORING THE TERMIZ ARCHAEOLOGICAL MUSEUM, CENTRAL ASIA'S CULTURAL GEM Sarvar Abdurahimov Nasrilloevich, Bo'ronov Nodir Pardayevich	246-251
39	EXPLORING THE HEART OF EXCURSION TOURISM: UNVEILING ITS SIGNIFICANCE AND CHARMS Sarvar Abdurahimov Nasrilloevich, Sohijon Zokirov Narzullo o'g'li	252-259
40	SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI Aliyarov Olim Abdug'aparovich	260-265
41	O'ZBEKISTON IQTISODIY-IJTIMOY GEOGRAFIYASI KURSIDA METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Sobirov Javoxir Xayrulla o'g'li	266-275
42	"YASHIL IQTISODIYOT"NI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR Abdiyeva Muhayyo Muxtarovna	276-282
43	INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA TANA A'ZOLARI NOMLARI QATNASHGAN IBORALARNING O'ZARO TAHLILI Sharipova Sarvinoz, Ziyadullayeva Sitara	283-288
44	ESHQOBIL SHUKUR "BOBO SO'Z IZIDAN" ASARIDA KELTIRILGAN SO'ZLARNING MAHMUD QOSHG'ARIY VA NAVOIY ASARLARIDA UCHRASHI. Hamidov Abdumalik, Rajabova Sabohat	289-293
45	ESHQOBIL SHUKUR "BOBO SO'Z IZIDAN" ASARIDA SO'ZLARNING LUG'ATLARDAN FOYDALANIB TAHLIL QILINISH TADQIQI. Hamidov Abdumalik, Rajabova Sabohat	294-297
46	GLOBAL IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK-MOLIYA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI Abdurasulov Ravshanbek	298-305
47	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ART PEDAGOGIKASI VOSITASIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH Umirova Mohinur Mirzo qizi	306-309





48	GLOBALASHUV SHAROITIDA ISLOM DINI VA UNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI G‘oyibov Maqsudjon Homidjon o‘g‘li	310-313
49	DEFINING AND NON-DEFINING RELATIVE CLAUSES IN BRITISH ENGLISH GRAMMAR Intizor Allabergenova Kadamovna	314-316
50	PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI Boboqulova Umida, Boboniyozova Manzura	317-323
51	ПОМИДОР КЎЧАТИНИ ЯНГИ ЛОЙХА АСОСИДА БАРПО ЭТИЛГАН ИССИҚХОНАДА ПЕНОПЛАСТ КАСЕТАЛАРДА ТАЙЁРЛАШ Абдиев Зафарали Тоштемирович, Боймуродов Алишер Абдурасулович	324-331
52	RAQAMLASHTIRISHNI IJTIMOY HAYOTGA IJOBIY VA SALBIY TA‘SIRI MASALASI. D.X.Shukurova	332-335
53	PATENT TROLLING ATAMASI HUQUQIY TAVSIFI, MUAMMOLI VAZIYATLAR VA YECHIMLARI. Juraboyeva Mahbuba Asqarbek qizi	336-342
54	VITAMIN B12 BOLALARDA VA KATTALARDA YETISHMOVCHILIGI SABABLARI, KLINIKASI, ASORATLARI VA DAVOLASH TAKTIKASI Xursandova Feruza Sattorovna	343-350
55	TOLALARDA MAKROMOLEKULALARNING ORIENTATSIYA FAKTORINI QO‘SH NURNI SINISHI USULDA ANIQLASH. Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Nazirov Jonibek Mamayusupovich, Amirqulov Jasurjon Shodiqul o‘g‘li,	351-357
56	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JURNALISTLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH Abdusalomova Zarifabonu Abdishukur qizi, Qurbonov Dadabek Farhod o‘g‘li, Jo‘rayev Jaloliddin Ixtiyor o‘g‘li, Ismoilov Furqat Yigitali o‘g‘li	358-365
	MUNDARIJA	366-370

